

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

A.YO'LDOSHEV

SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH

(O'quv qo'llanma)

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi tomonidan o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2007

65.261.4

A. Yo'ldoshev. Soliq va soliqqa tortish. «Fan va texnologiya». 2007,
128 bet.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining menejment (tarmoqlar bo'yicha) yo'naliishi bo'yicha bakalavriatning «Soliq va soliqqa tortish» fani dasturi asosida yozilgan.

Qo'llanmada soliq va soliqqa tortishning eng muhim masalalari: funksiyalari, umum davlat soliqlari, mahalliy soliqlar va yig'imlar hamda xonijiy mamlakatlarning soliq tizimi kabilalar yoritilgan.

Qo'llanma oliy o'quv yurtlarining bakalavriat talabalariga mo'ljalangan. Undan amaliyotchilar va mustaqil o'r ganuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar: O.ABDULLAYEV – Namangan Davlat universiteti professori;
I.SIROJIDDINOV – Namangan muhandislik-pedagogika instituti dotsenti.

| | | |
|----|------|--|
| 20 | 02 | Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MFT |
| A | 4284 | |

10 33466
291

ISBN 978-9943-10-045-9

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2007-y.

KIRISH

1991-yilning 31-avgustida Respublika Davlat mustaqilligi deb e'lon qilingan o'n ikkinchi chaqiriq Oliy majlis Kengashning navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari haqida»gi Qonun ham qabul qilingan edi. Ushbu Qonunning 12-moddasida: «O'zbekiston Respublikasi mustaqil moliya va kredit siyosatini amalga oshiradi. Respublika hududida undiriladigan soliq va yig'imlar O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti va mahalliy budgetlarga tushadi», deb belgilab qo'yilgan edi.

O'zbekiston budgetining daromadlari bozor iqtisodiyotiga ega barcha mamlakatlar singari hozirgi vaqtida asosan soliqlar orqali ta'minlanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va soliq qonunchiligining shakllanganligi soliq idoralari faoliyatini tashkil etilgani, soliq to'lovchilari bilan ish olib borishning samaradorligi O'zbekistonda g'oyat muhim soliqlarning byudjetga to'la hajmda va belgilangan muddatlarda to'lashni ta'minlashning uddasidan chiqishga imkon bermoqda.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish davlatning soliq siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi kunda soliqlarni chuqur o'rganish va ulami shakllantirish maqsadida bir qator olimlarimiz tomonidan darsliklar, qo'llanmalar va ilmiy maqolalar yozilishi soliq va soliqqa tortishni takomillashtirish uchun muhim ilmiy negiz bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma biz O'zbekiston Respublikasidagi soliq va soliqqa tortish tizimini yoritishni to'rtta qismga ajratdik.

Birinchi qism soliq nazariyasi bo'lib, unda soliqlarning iqtisodiy mohiyati, funksiyalari, soliq solish tizimi, soliq siyosati va iqtisodiyotni bar-qarorlashtirishdagi soliqlarning roli ko'rsatilgan.

Ikkinchi qismida esa umum davlat soliqlarining mohiyati, soliq solish obyekti, soliq stavkalari, soliqlar bo'yicha imtiyozlar va to'lash tartibiga to'xtab o'tiladi.

Uchinchi qismida mahalliy soliqlar va yig'imlarning mohiyati, to'lash tartibi ko'rsatib o'tilgan.

To'rtinchi qismida esa xorijiy mamlakatlarning soliq tizimlari yoritib berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmada yoritib berilayotgan masalalar fikr bildiruv-chilarga muallif oldindan o'z minnatdorchiligini izhor etadi.

I QISM SOLIQ NAZARIYASI

I bob. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIYALARI

1-§. Soliq va soliqqa tortish fanini o'qitishning zaruriyati va predmeti

Soliq va soliqqa tortish fanining o'qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Soliq va soliqqa tortish fanining boshqa fanlar singari o'ziga xos predmet va vazifalari mavjud. Bu fanni o'qitishning zarurligi bozor iqtisodiyoti munosabatlari ichida soliq munosabatlarning ahamiyati o'sib borayotganligidan kelib chiqadi.

Soliq va soliqqa tortish fani soliq vogeliklarini (harakatlarini) chuqur o'rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini o'rgatadi.

Soliq va soliqqa tortish fani soliq amaliyotidagi eng to'g'ri, eng mukammal va eng progressiv vogeliklarni o'rganib, amaliyot uchun xuddi bir dasturiy amalday yoritib boradi. Nazariya vogeliklarni amaliyotdan oladi va yana amaliyotga eng to'g'ri, ma'qil va ilg'or tajribalar olinib amaliyotga yo'l ko'rsatish uchun o'rgatiladi.

Demak, nazariya amaliyot uchun kerak va amaliyot uchun kompas, barometr, yo'l boshlovchi vazifasini bajaradi. Nazariyasiz amaliyot yo'ldan adashgan yo'lovchidir. Nazariyani chuqur bilgan amaliyotchi har qanday o'zgarishlarda ham ishlab keta oladi va yo'ldan adashmaydi.

Soliq va soliqqa tortish fanini o'qitishning zarurligi amaliyotda yo'ldan adashmaslik, keraksiz soliqlar bo'yicha o'zgartishlarga yo'l qo'ymaslik, amaliyotda istiqbolli qadamlar tashlash uchun va katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun ham zarurdir.

Soliqlar fani soliqlar jarayonidagi muhim va takrorlanib turadigan munosabatlarni ilmiy ravishda tartibga solib o'rganadi.

Soliqlar va soliqqa tortish fani to'rtta qismidan iborat. Birinchi qismida soliq nazariyasi, bunda soliq amaliyotidagi eng to'g'ri, eng mukammal va progressiv voqealarni o'rganib olib, amaliyot uchun dasturlar sifatida xulosalar beriladi. Nazariya amaliyotdan olinadi. Lekin, faqat to'g'ri va mukammal deb hisoblangan amaliyot yakuni olinadi va u yana amaliyotga yo'l ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Ikkinchi qismida, umum davlat soliqlar, bunda umum davlat soliqlarning mohiyati, soliqlarning obyekti, soliq stavkasi, soliqlar bo'yicha imtinozlar va soliqlarni hisob-kitobi ko'rsatilgan.

Uchinchchi qism mahalliy soliqlar va yig'imir deb ataladi. Bu qismda O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan mahalliy soliqlar va yig'imirni mohiyati, soliq obyekti, soliq stavkalari va soliqlarning hisob-kitobi ko'rsatib o'tilgan.

To'rtinchi qismida xorijiy mamlakatlarning soliq tizimlari yoritilgan. Bu qismda Amerika Qo'shma Shtatlari soliq tizimi, Yaponiya soliq tizimi, Germaniya davlatining soliq tizimi va Fransiya davlatining soliq tizimlari haqida gap yuritiladi.

Bu fan korxona iqtisodiyoti va moliya fanlari bilan chambarchas bog'liqidir. Chunki soliqlar moliya munosabatlarining tarkibiga kiradi. Ma'lumki, moliya munosabatlarining markazda davlat moliyasi turadi. Davlatning moliyaviy resurslari esa soliqlar orqali vujudga keladi. Soliqlar davlat bilan soliq to'lovchilar o'rtaсидаги о'зига xos pul munosabatlarni, pul resurslarini davlatga belgilangan tartibga majburiy ravishda berilishini ifodalaydi. Bu munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini mazkur qo'llamada yoritib berishga harakat qilamiz.

Har qanday fan o'zining predmetiga ega bo'lishi kerak. Soliq va soliqqa tortish fanining predmeti soliq harakatini o'rganishdir. Soliqqa tortishda soliq mexanizmi ishga solinadi. Uning harakatlanishi pul munosabatlari orqali sodir bo'ladi. Bu pul munosabatlari soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliq undiruvchi (oluvchi) davlat o'rtaсида bo'ladi. Fanning vazifasi mazkur munosabatlarni chuqur o'rganish, ularni to'g'ri tashkil etilishini ta'minlashdir. To'g'ri tashkil etish deganda, soliq munosabatlarda qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatlarni inobatga olgan holda iqtisodiy munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi.

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, byudjetga soliq olishda soliq to'lovchilarining manfaatlariga, ularning ishlab chiqarishni rivojlantirish rejaliga putur yetkazmaslik, munosabatni do'stona, bozor iqtisodiyoti talablariga binoan tashkil etishga harakat qilishdir. Bordi-yu davlatning bir tomonlama zo'ravonligi munosabati kuchaysa, soliq to'lovchilar soliq obyektlarini har xil yo'llar bilan yashirib, davlatni «jazolaydilar». Bunday holatlarda har qanday huquqiy hujjalarning ta'sir kuchi yetmay qolishi mumkin.

Demak, soliq va soliqqa tortish fanini chuqur o'rganish, uning xulosalarini amaliyotda qo'llash orqali amaliyotda umum davlat va mahalliy soliq tushumlari xo'jalikning qismilarini ta'minlashda muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin.

Soliq va soliqqa tortish fanining vazifasi iqtisodchi va menejment mutaxassislarini va boshqa xodimlarni nazariy qurollantirish ularga soliq amaliyotida bo'yicha eng umumiyo yo'l-yo'riqlar ko'rsatishdan iboratdir. Shu bilan birga chet el soliq tizimi amaliyotini o'rganish asosida qilingan xulosalar, ularning shu tajribalarini o'zimizning iqtisodiyotimizga moslab tatbiq etish uchun sharoit yaratadi.

2-§. O'zbekiston Respublikasining soliqlari va soliqsiz to'lovlar

Mustaqil O'zbekiston ochiq, erkin iqtisodiyotga asoslangan odil jamiyat, kuchli demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan bosqichma-bosqich olq'a bormoqda. Respublikamizda jamiyatni yangilashda va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tanlangan bu yo'li Jahon tajribasiga asoslangan, xalqimizning turmush sharoitlari, an'alarini, urf-odatlarini, turmush tarzini har tomonlama hisobga olgan.

Bozor munosabatlari o'tish murakkab jarayon, u bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Har bir bosqichni amalga oshirish uchun ma'lum vaqt kerak bo'lib, har tomonlama murakkab bo'lgan bir qancha ishlarni bajarish zarur bo'ladi.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida eng, avvalo, bozor munosabatlarining huquqiy poydevori yaratildi. Bu davrda 300 taga yaqin iqtisodiy xarakterdagi qonunlar qabul qilindi, turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar, ya'ni davlat korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlar, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar, kichik va mas'uliyati cheklangan korxonalar, ijara korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, jamoa xo'jaliklari, xususiy korxo-nalar, yakka tartibda mehnat faoliyat ko'rsatadigan shaxslar vujudga keldi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda turli mulkchilik shaklidagi korxonalar faoliyatini uchta asosiy mexanizm orqali tartibga solinadi.

1. Xo'jalik qonunchiligi.
2. Soliq mexanizmi.
3. Bank mexanizmi, narx, kredit va boshqaar.

Iqtisodiyotni tartibga solishda soliq mexanizmi alohida o'rinn tutadi. O'zbekistonda bozor islohotlari boshlanishi bilan oldingi soliq tizimi ta'sirchanligi va samarasi susaydi, chunki u rejali boshqarish tizimiga asoslangan mexanizm edi. Endi bozor iqtisodiyotiga xos soliq mexanizmi joriy etilishi zarur bo'lib qoldi. Buning uchun dastlab soliq qonunlari qabul qilingan bo'lsa so'ngra O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi ishlab chiqildi va u 1-yanvar 1998-yildan boshlab amalga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq korxona, tashkilot, firmalar va aholi soliqlar va yig'imlar to'laydilar.

Soliqli to'lovlarining hamma turlari faqat budjetga tushadi. Soliqli to'lovlar mohiyatini ochishga keyinroq to'xtalamiz. Yig'imlar ham asosan budjetga tushadi.

Soliqsiz to'lovlar esa byudjetga, yoki maxsus fondlarga tushadi. Mavjud soliqli va soliqsiz to'lovlarining farqi faqat budjetga tushishdagina emas, boshqa farqlari ham mavjud.

Budget daromadlarini asosan soliqlar, yig'imlar va soliqsiz daromadlar tashkil etadi. Ummurmdavlat soliqlariga: qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, yuridik shaxslar daromadlarini (foyda)sidan olinadigan soliq jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq, suv resurslaridan olinadigan soliq, yer ostidan foydalanganlik uchun soliqlar kiradi.

Byudjetdan tashqari maxsus fondlarga ajratmalar. Bular ham soliqsiz to'lovlardir. Bunday fondlarga mehnat bandlik fondi, pensiya fondi va asosiy yo'l qurilishi fondi kiradi.

Korxona, birlashma, tashkilot va firmalar o'zlarining ish haqi fondlariga nisbatan 24 % ajratib, pensiya fondiga, 0,3 % mehnat bandlik fondiga va 0,2 %ini ijtimoiy sug'urta fondiga o'tkazib beradilar.

Davlat budjeti daromadining qariyb 90 %ni soliqlar tashkil etar ekan, ularning mohiyatini ochish, tizimini guruhlab o'rganish muhim iqtisodiy ahamiyatga ega.

Respublikamizning mustaqillik davridagi soliq amaliyoti chet mamlakatlar soliqlarini o'rganish, ularni respublikamizda qo'llash, qo'llanayotgan ba'zi bir soliqlarga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish bilan takomillashib bormoqda. Shunday qilib, O'zbekiston o'zining soliq tizimiga va soliqsiz to'lovlarga ega, ular respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda.

3-§. Soliqlarning mohiyati va ahamiyati

Iqtisodiy adabiyotlarda eng keng tarqalgan ta'rifga binoan soliqlar budgetga tushadigan va Qonun bilan belgilangan majburiy to'lovlarni ifodalovchi munosabatlardir. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan davlat o'rtaida yuz beradi. Soliq to'g'risidagi qonunlar Oliy majlis tomonidan qabul qilindi. Soliqlar milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir. Soliq davlatning markazlashgan pul fondi (davlat budgeti)ni tashkil etishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Soliqlarning majburiyligi Oliy majlis tomonidan qabul qilingan qonunlarda huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yiladi.

Soliqlarni eng, avvalo, davlatning ijtimoiy zarur vazifalarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash zarurligi keltirib chiqaradi. Davlat oldida turgan vazifalar quyidagilardan iboratdir:

- ahollining kam ta'minlangan tabaqalarni (talabalar, nasaqaxo'rlar, nogironlar va boshqalar)ni ijtimoiy himoya qilish;
- mamlakat mudofasini ta'minlash;
- mamlakat fuqarolarining tinch mehnat qilish va erkin yashash muhofazasini ta'minlash;
- mamlakat ichida uzlusiz ijtimoiy, madaniy tadbirlarni
- (maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy ta'minot va boshqalar) amalga oshirish;
- xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalarni o'rnatish;
- bozor infrastrukturasini yaratish, boshqa tadbirlar va ishlarni amalga oshirish.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun nihoyatda ko'p moliyaviy resurslarni talab etiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu resurslar soliqlar va yig'imlar orqali tashkil topadi.

Endi biz soliqlarni iqtisodiy mohiyatini ochishga harakat qilamiz. Har qanday buyum, narsa, vogelikni chuqur bilish uchun uning mohiyatini ochish zarur bo'ladi. Soliqlarning mohiyati soliq vogeligini, ya'ni soliq va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalash zarur. Shunday ekan, biz soliqlarning mohiyatini ochayotganda ularni iqtisodiy vogelik deb tushunishimiz kerak. Demak, soliqlar huquqiy normalarda ifodalansada, mazmunan iqtisodiy, shu jumladan, ichida, moliyaviy kategoriyaadir. Soliqlar doimiy takrorlanib turadigan moliyaviy vogelik, aniqroq pul munosabatlari ko'rinishida bo'ladi. Ana shu pul munosabatlarining mazmunini ochish orqali soliqlar mohiyati ochiladi.

Amaliyotdagi rahbarlar va hatto iqtisodchi olimlarning ba'zilari o'zalining chop etgan maqolalarida soliqlar mohiyatini bu iqtisodiy dastak deb ta'riflash bilan kifoyalanadilar. Qurol tushunchasi soliqdan foydalananishni bildiradi va mohiyatini to'la ochoholmaydi. Soliq mohiyatini ochish esa davlat bilan soliq to'lovchilar o'rtasidagi obyektiv pul munosabatlarini harakatini o'rganish bilan amalga oshiriladi. Soliqlar hamma pul munosabatlarini emas, balki soliq obyektlari bo'l mish daromad, qiyamatni taqsimlash, qayta taqsimaldashdagi pul munosabatlarini bildiradi.

Soliqlarning mohiyatini ochishda ularning eng, avvalo, majburiy to'lovlar ekanligi ko'p iqtisodchilar tomonidan ko'rsatiladi. To'g'ri, soliq munosabatlarida majburiylik mavjud, bu majburiylik demokratianing oliy timsoli bo'l mish parlament qarori, qonun bilan kiritiladi, davlatning qattiq talabi e'tiborga olinadi. Demak, soliqlardagi majburiylik huquqiy-demokratik ma'yorlar asosida kiritiladi.

Soliqlar, o'z mohiyatidan kelib chiqib uzoq yillarga mo'ljallangan majburiylik munosabatlarini ifodalaydi. Masalan, sho'rolar davridagi obozrot solig'i 62 yil o'zgarmasdan iqtisodiyotga xizmat qilgan. Respublikamizning soliqlari ham ana shunday uzoq yillarga xizrnat qiladigan oddiy, hammaga tushunarlari soliqlar bo'lishi kerak. Buning uchun ular Respublika iqtisodiyoti xususiyatlarini to'liq ifoda eta oladigan, ilmiy asoslangan bo'lishi kerak.

Demak, soliqlar mazmunida uzoq muddatlarga mo'ljallangan majburiy munosabatlari yotadi.

Soliqlar pul munosabatlarini ifoda etib, bu munosabatlarining bir tomonida davlat va ikkinchi tomonida soliq to'lovchilar ya'ni, korxona, birlashma, tashkilotlar va aholi turadi. Shu munosabatlarni tashkil qilishni davlat o'z qo'liga olgan, chunki soliqlar byudjetga daromad bo'lib tushadi, soliq to'lovchilar uchun xarajat bo'ladi. Odatda, bu ish to'lovchilar uchun norozilikni tuqdirishi tabiiy. Lekin davlat bilan soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatni xalq saylagan noiblar Oliy Majlisda Qonun asosida hal qilib beradilar. Shu bilan soliq to'lovchilarning roziligi olingan hisoblanadi. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyotiga o'tgan mamlakatlarda budgetga to'lovlar asosan soliq ko'rinishida bo'ladi. Bunday holatda har qanday ishbilarmon ilgaridan qanday soliqlar to'lashligini biladi va ularning o'zgarmasligiga ishonadi. Ana shunday sharoit yaratilgandan

so'ng bizning respublikamizga ham xorijiy ishbilarmonlar kela boshladi. Bizning respublikamizda ular uchun soliq bo'yicha qulay sharoitlar yaratilgan.

Soliqlar obyektiv taqsimlash munosabatlari orqali ijtimoiy ishlab chiqarishning hamma jahbalariga taalluqli bo'ladi va ishlab chiqarish munosabatlari aylanadi. Shunday ekan, ular iqtisodiy bazisni ifodalaydi. Shuning uchun soliqlardan ishlab chiqarishni rag'battantirish, tovar ishlab chiqarish va iste'molni ko'paytirish yoki ba'zi holatlarda kerak bo'lsa cheklash maqsadida foydalananish mumkin.

Soliqlar faqat davlatniki bo'lganidan ular markazlashgan pul fondiga (budgetga) tushadi. Boshqa fondlarga tushishi ham maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Bizning respublikamizda hamma soliqlar umumiylondagi tushadi. Undan davlat asosan ijtimoiy himoya va boshqa ijtimoiy zaruriy maqsadlarda foydalananish mumkin.

Soliqlar mohiyatini chuqurroq ochish uchun ularni iqtisodiy mohiyatiga qarab to'g'ni va egri soliqlarga bo'linishini ko'rsatish muhim ahamiyatga ega.

Soliqlarning mohiyati amaliyotda ularning bajaradigan funksiyalarida o'z ifodasini topadi.

Yuqoridagi larda asoslanib, soliqlarga qisqacha ta'rif beramiz. Soliqlar faqat byudjetga tushadigan majburiy to'lov bo'lib, davlat bilan soliq to'lovchilar o'tasisidagi iqtisodiy, ijtimoiy, demokratik taqsimlash munosabatlariadir.

Shunday qilib, aytish murakkinki, soliqlar – bu davlat sarf-xarajatlari asosiy manbayı bo'lib, u bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni taribga solishning asosiy dastagi hisoblanadi.

4-§. Soliqlarning obyektiv zarurligi

Soliqlar davlatning paydo bo'lgan qadimgi davrlardan, ya'ni quidorlik tuzumidan boshlab mavjuddir. Lekin, xususiy mulkchilik tugatilib, davlat mulkchiligi hukmron sho'ro davrida soliqlar o'miga markazlashgan rejalashtirish mohiyatiga mos keladigan majburiy to'lovlari va ajratmalar joriy etilgan edi. U davrida soliqlarni tamomila qoralangan, ularni qo'shimcha ekspluatatsiya quroli deb atalgan.

Shuning uchun ham soliqlarni zarurligining faqat davlatni paydo bo'lishi bilan bog'lash hamisha ham to'g'ri bo'lmaydi. Soliqlarning zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan iqtisodiyotda va ijtimoiy hayotda muayyan vazifalar bajarilishi zarur ekanligidan kelib chiqadi. Davlat o'z funksiyalarini to'liq bajarish uchun albatta moliyaviy manbalarga suyanishi lozim. Buning yagona yo'li soliqlardir.

Bozor iqtisodiyoti davrida davlatning an'anaviy funksiyalaridan tashqari, ya'ni ta'llim tarbiya, xalq xo'jaligini boshqarish, mamlakat xavfsizligini ta'minlashdan tashqari, aholini ijtimoiy himoya qilish ham zarurdir. Ana shu funksiyalarni moliyaviy mablag' bilan ta'minlash uchun soliqlar xizmat qiladi.

Ikkinchini tomonidan, soliqlarning zarurligini bozor iqtisodiyotining iqtisodiy qonunlari talablardan kelib chiqadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilik shakllari nihoyatda xilma-xil bo'ladi va har bir mulk shakli teng huquqlidir. Mulk egalarining mulki daxlsizdir. Bunday sharoitda davlat o'z xohishicha va istagancha ular mulkini davlat mulkiga ajratma yoki boshqa to'lovlar bilan jalb qilib ololmaydi. Bozor iqtisodiyotining mohiyati yuqori erkinlik, demokratiyanı ifoda etganligi uchun har xil mulk egalarining mulkidan umum davlat ehtiyojlari uchun ham foydalanish faqat demokratik yo'l-soliqlar orqali amalga oshiriladi.

Shunday ekan, bozor iqtisodiyoti qonunlarining mohiyatiga tushungan davlat uning rang-barang strukturasini yaratadi, turli mulk shaklidagi korxona, birlashma, firma, shirkat, ijara, xususiy korxonalarni ko'paytiradi. Bu esa o'z navbatida davlatga soliq to'lovchilarning sonini ko'paytiradi va soliq obyektlari doirasini kengaytiradi.

Bu davrda korxona, birlashma xilma-xil tashkilotlar va aholi keng damokratik huquqlarga ega bo'lganligi uchun ular bilan davlat o'rta sidagi munosabat faqat soliqli munosabat bo'ladi. Demak, bozor iqtisodiyoti soliqlarni obyektiv zarur qilib quyadi.

5-§. Soliqlarning funksiyalari

Soliqlar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- xazina (fiskal) funksiyasi;
- rag'batlantirish funksiyasi;
- nazorat funksiyasi.

Ayrim iqtisodchilar bu funksiyalar safiga taqsimlash va iqtisodiyotni tartibga solishni ham qo'shadilar. Lekin, fikrimizcha, soliqlarni asosan 3ta funksiyani bajaradi. Bular xazina, rag'batlantirish va taqsimlash fuksiyalaridir.

Xazina (Fiskal) funksiyasi (fiskal lotincha Fiscus so'zidan olingan bo'lib, g'azna degan ma'noni anglatadi). Fiskal funksiya davlatning iqtisodiyotga aralashuvni uchun obyektiv shart-sharoit vujudga keltiradi.

Budget daromadlarini ta'minlash soliq tizimi vazifalaridan bittasi xolos. Soliq tizimi ana shu vazifani hal etar ekan, jamg'arma va ishlab chiqarishning o'sish jarayonlariga to'sqinlik qilmasligi, ijtimoiy adolatni buzmasligi, xalq xo'jaligi tarkibiy tuzilishiga salbiy ta'sir etmasligi, bozor jarayoniga putur yetkazmasligi zarur.

Bozor munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi sharoitida aynan soliqlarni davlatning iqtisodiyotga ta'sir o'tkazishidagi asosiy vositalardan biri bo'lib qolmoqda. Davlatning iqtisodiy funksiyalari bajarlishi orqali xo'jaligining rivojlanishi rag'batlantiriladi, shuning barobarida soliqlarning xazina (fiskal) funksiyasi uchun bazani kengaytiriladi. Oqilona tashkil etilgan davlat soliq siyosati soliqlarni mexanizmini ishlab chiqarishni rag'batlantirish, rivojlanishi uchun foydalanishga imkon beradi.

Soliqlarning izga solib turuvchi sifatidagi funksiyasining ahamiyati bozor sharoitida o'sib boradi, bu davrda tadbirkorlarni ma'muriy qaram qilish usullari yo'q bo'lib ketadi yoki juda oz holda qoladi, korxonalar faoliyatini farmoishlar, ko'rsatmalar va buynuqlar yordamida idora qilish huquqiga ega bo'lgan «yuqori tashkilot» tushunchasining o'zi asta-sekin yo'qola boradi. Biroq, iqtisodiy faollikni izga solib turish, uning rivojlaniшини jamiyat uchun maqbul bo'lgan yo'nalishda rag'batlantirish zaruriyatini saqlanib qoladi.

Shunday qilib, soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi orqali ishlab chiqarish korxonalarini yangi tashkil etilgan paytlarida soliqlardan ozod etiladi va boshqa imtiyozlar beriladi. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarga soliq imtiyozlari berish orqali ularning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini yahshilashga erishiladi.

Soliqlarning nazorat funksiyasiga kelsak, soliq mexanizmi milliy daromadning muayyan qismini soliqlar orqali budjetga to'plash zarurligidan kelib chiqqan holda, ularning obyektlarini, soliq to'lovchilarini, soliq stavkalarini to'g'ri belgilash hamda soliqlarni o'z vaqtida to'g'ri hisoblab budjetga o'tkazish jarayonini nazorat qilib boradi. Bu nazorat doimo taqsimlash funksiyasi bilan yonma-yon olib boriladi. Soliqlarning nazorat funksiyasi ba'zan taqsimlash funksiyasidan ham kengayib ketadi. Chunki taqsimlashda faqat pul munosabatlari bilan chegaralanib qolinsa, soliqlarning nazorat funksiyasi pul munosabatlari orqali taqsimlashdan tashqari soliq obyektlarini buyum shaklida ham to'liqligi, mahsulotlar qoldiglari, homashyo va yoqilg'ilardan boshqa manbalardan foydalanish ustidan ham nazoratga aylanadi. Demak, soliqlarning nazorat funksiyasi soliq idoralari tomonidan olib boriladigan umumiqtiyoti nazoratining nazariy asosini tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq idoralarining nazorati xo'jalik qonunchiligi talablari assosida olib boriladigan nazoratga aylanadi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Soliq va soliqsiz to'lov larga nimalar kiradi?
2. Soliqlarni iqtisodiy mohiyati va ahamiyati nimadan iborat?
3. Soliqlarning obyektiv zarurligi nimadan iborat?
4. Soliqlar qanday funksiyalarni bajaradi?
5. Fiskal funksiyasi?
6. Rag'batlantirish funksiyasi?
7. Nazorat funksiyasi?

II bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMI VA SOLIQ STAVKALARI

1-§. O'zbekistonda soliq solish tizimi va uning asosiy elementlari

Biz avvalo, soliq tizimi va soliq solish tizimi tushunchalarining bir-biridan farqini bilishimiz zarur.

Bu yerda nazariy jihatdan soliq tizimi deganda soliqlar yiq'indisi tushuniladi. Soliq solish tizimi deganda iqtisodiyot subyektlarini muayyan soliqlarga tortishning tashkiliy usullari yig'indisi tushuniladi, ya'ni soliq solish tizimi amaliy uslublar yiq'indisidir.

Shunday qilib, soliq solish tizimi deb, Oliy Majlis tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlar-ning tuzilish usullari va tamoyillari yiqindisiga aytildi. Bu tizimning o'mni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi bilan aniqlanadi.

Hozirgi davrda O'zbekistonning soliq solish tizimi davlatning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi funksiyalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi bilan belgilanadi.

Soliq solish tizimining bir qancha elementlari mavjud va bular quyidagilardan iboratdir: soliq subyekti, obyekti, manbasi, soliq stavkasi, soliq solish birligi, soliqlardan imtiozlar va boshqalar kiradi.

Soliq subyektlari bu soliq munosabatlарining ishtirokchilaridir. Bularga asosan soliq to'lovchilar: yuridik shaxslar-korxona, tashkilot, firma va jismoniy shaxslar-aholi kiradi. Ikkinci tomonidan soliq subyektiga davlat kiradi, ya'ni soliq oluvchi.

Soliq obyekti-bu soliq solinadigan daromad, narsa (buyum), mulk qiymati, tovar, yer maydoni, ot kuchi va boshqalar. Ko'pincha soliq nomi obyekt nomi bilan ataladi. Masalan, yer solig'i yoki daromad solig'i.

Soliq manbayi – bu soliq to'lovchi (subyekt)ning daromadidir. Daromad, yalpi daromad, tushum. Ba'zi soliqlarda soliq obyekti va manbasi bir bo'ladi. Masalan, korxonalar daromadiga soliqda obyekt yalpi daromad, soliq manbasi daromaddir.

Aholining daromad solig'ida obyekti yalpi daromad, manba ham yalpi daromad.

Markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq va yig'imlar turlarining yiq'indisiga soliq tizimi deb ataladi.

Tizim-bu yig'ma tushunchadir. Bu tushunchada soliqlarning bir-biri bilan bog'liqligi ham ifoda etilgan.

Soliq tizimining elementlari soliq obyektiga qarab uch guruhga bo'lish mumkin: oborotdan, daromaddan va mulklar qiymatidan olinadigan

soliqlar. Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, konlardan foydalanganligi uchun soliq, bojxona boji kiradi. Daromaddan olinadigan soliqlarga foya solig'i va daromad soliqlari kiradi.

Mulklardan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig'i va yer soliqlari kiradi.

Iqtisodiy mohiyatga qarab soliqlarni to'g'ri va egri soliqlarga bo'lish mumkin.

To'g'ri soliqlar bevosita daromad oluvchi mulk egasining daromadlaridan (foydalaridan) olinadi. Bunday soliqlarda huquqiy va haqiqiy soliq to'lovchi bitta shaxs bo'ladi. Soliq ilgaridan aniq belgilangan bo'ladi. Uning manbayi bo'lib korxona va tashkilotlarning xo'jalik faoliyati natijasida erishilgan moliyaviy yakun hisoblanadi. Aholi soliqlariда esa soliq manbayi bo'lib to'g'ridan-to'g'ri aholining daromadi hisoblanadi. Foya (daromad) solig'i, yer solig'i va daromad solig'i to'g'ri soliqlarning eng muhim turlaridir.

Egri soliqlar korxona va tashkilotlar faoliyatining moliyaviy yakuniga bog'liq bo'lmaydi. Ular sotilayotgan tovarlar va xizmatlar oborotiga (bahosiga) ustama tarzda belgilanadi.

Ular so'zsiz tovar qiymati va xizmat summasini oshiradi va iste'molni kamaytiradi. Bu soliqlarni ba'zan ist'mol soliqlari deb ham ataladi. Bunday qaraganda, ularni go'yo mahsulot sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi to'layotgan bo'ladi. Aslida esa ularning haqiqiy to'lovchisi tovar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilar bo'ladi. Egri soliqlar guruhiiga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va bojxona bojlar kiradi.

2-§. Soliq stavkalarining turlari va soliq deklaratsiyasi

Soliq solish tizimida muhim o'rinni soliqqa tortiladigan va tortilmaydigan daromadlar tashkil qiladi.

Soliqqa tortiladigan daromad bu huquqiy va jismoniy shaxslar yalpi daromadining soliqqa tortiladigan qismidir.

To'g'ri soliqlarda soliqqa tortiladigan daromadni aniqlayotganda yalpi daromaddan imtiyozlarni va soliqqa tortilmaydigan daromadlarni chegirib tashlanadi.

Masalan, bizning respublikamizda fuqarolar yalpi daromadidan hamma turdag'i pensiya nafaqa, zayom va lotereyadan yutuqlar omonat kasalaridagi omonatlardan foiz daromadlari, sug'urta qoplamlari, o'z mulklarini sotishdan olgan daromadlarni chiqarib tashlab, soliqqa tortiladigan daromad aniqlanadi.

Soliqlarni hisoblashda soliq stavkasi katta o'rin egallaydi. Soliq stavkalarini quyidagi turlarga bo'linadi: proporsional, progressiv va regressiv stavkalar.

Proporsional stavka – soliq solish obyektiiga yagona foizlarda belgilanadi. Masalan, mol-mulk solig'ida asosiy fondlar qiymatiga yagona bir xil foiz soliq stavkasi qo'yilgan.

Progressiv stavka – obyekt qiymati yoki daromad o'sishi bilan stavka o'sib boradi. Masalan, fuqarolarning ish haqidan olinadigan daromad solig'ida 2007-yil 1-yanvardan boshlab daromad summasining eng kam ish haqining 4 baravarcha qismi 13 % soliqqa tortilib, daromad ortib borishi bilan soliq stavkasi ham 25 %gacha ko'payib boradi.

Regressiv stavkalarda daromad qancha orta borsa, soliq ham kamayib boradi. Bu progressiv stavkaning teskarisi.

Soliq deklaratsiyasi soliq to'lovchilar tomonidan yozib topshiriladigan ariza - ma'lumotnomadadir. Bu hujjatda soliq to'lovchilar o'tgan davrdagi (chorak, yarim yil yoki yilda) o'zlarini ishlab topgan hamma daromadlarni ko'rsatadilar, shu daromadlarni olish uchun sarflagan xaratjatlar ham ko'rsatiladi. Bu soliqni hisoblash uchun hujjatdir.

Soliq deklaratsiyasiga binoan soliq idoralari soliq to'lovchilarning daromadi xaratjati sof daromaddan (ya'ni soliqqa tortiladigan daromadini) belgilab, soliq stavkasini qo'llab, soliq summasini hisoblab beradilar.

Onday xaratjatlarni yalpi daromaddan chegirib tashlash lozimligini O'zbekiston Respublikasi soliq Qonunchiligi asosida Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi belgilab beradilar.

Respublikamiz soliq qonunchiligiga binoan soliq deklaratsiyasida asosiy ish joyidan olgan ish haqi, mukofot, moddiy yordam va boshqa daromadlar, o'rindoshlikdan olingan daromadlar va boshqa hamma daromadlar ko'rsatilishi shart bo'ladi. To'lovchilar soliq deklaratsiyasini o'z vaqtida taqdim qilmasalar soliq idoralari o'tgan davrdagi to'langan summani 150 % qilib to'lashni talab qiladilar va to'langan summadan 10 %ni ushlab qoladilar.

3-§. O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini qayta qurishning zarurligi

O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlarning soliqlari to'g'risida» Qonuniga binoan 1992-yildan boshlab yangi soliq tizimi joriy etildi. Bu tizimi 1991-yildagiga qaraganda tubdan yangi tizim bo'ldi. Respublikamizda birinchi marta egori soliqlarni kiritildi.

1992-yilgacha korxona va tashkilotlarning asosiy solig'i bo'lmish oborot solig'i o'miga qo'shilgan qiymat solig'i, foydadan ajratma to'lovi o'miga yalpi daromaddan daromad solig'i va yangidan Respublikadan tashqariga chiqarib sotiladigan tovarlarga soliq, cheklangan tovarlarga aksiz solig'i va mol-mulk soliqlari joriy etildi.

O'zbekiston soliq tizimini o'zgartirishning zaruriyati quyidagilardan kelib chiqqan edi.

Birinchedan. Bozor iqtisodiyotining obyektiv qonunlaridan. Bozor iqtisodiyoti erkin va huquqiy munosabatlarni, har kim tomonidan qonunsiz aralashishini yoqtirmaydigan munosabatlarni talab etadi. Ilgari iqtisodiyotni buyruq-ma'muriyatçilik asosida boshqarishda davlat o'zining va

boshqa mulk shaklidagi korxonalarining daromadlari istagancha qayta taqsimlar edi. Budget daromadlari xilma-xil to'lovlar va ajratmalardan tashkil topar edi. Ularning stavkalarini davlat xohlaganicha o'zgartirar va markazlashgan fondga olib qo'yari edi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat bilan turli mulk shaklidagi korxona, birlashma va tashkilotlar, aholi o'tasidagi munosabatlar faqat qonuniy, huquqiy demokratik asosga o'tadi.

Bu munosabatlar qonun chiqaruvchi organ tasdiqlab bergan soliqlar orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchidan. Ilgarigi buyruqbozlik, iqtisodiyotni markazlashgan boshqarish davrida o'matilgan soliqlar bozor iqtisodiyotini boshqarish davriga mos kelmay qoladi.

Bu davrda korxona va tashkilotlarga keng moliyaviy erkinliklar, ya'ni o'z moliyaviy manhalarini o'zlarini taqsimlashi, o'z ishchi va xizmatchilariga ish haqini o'zlarini belgilashi, bahoni o'zlarini aniqlashi budgetga har xil to'lovlar emas, balki qonuniy, qat'iy soliqlar bo'lishligini talab etadi.

Ish haqi xarajatlarining oshib ketishi natijasida foydadan ajratmaning tushmay qolishi yalpi daromaddan soliqqa o'tishga zaruriyat yaratadi.

Oborot solig'i esa asosan davlat belgilaydigan baholar farqi sifatida ifodalanan edi. Korxona va tashkilotlarga o'z tovar va xizmatlariga baholami o'zlarini belgilash huquqi berilganligi davlat qo'lidan bu huquqni olib qo'ydi. Endi baholar farqi bo'yicha oborot olish imkoniyati yo'qoldi. Shuning uchun bu soliqni ham tubdan o'zgartirib qo'shilgan qiymat solig'iga o'tildi.

Uchinchidan. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri og'ir bo'lar ekan, bu davrda ishlab chiqarish darajasi pasayishi, ishsizlar sonining ortib ketishi, moliyaviy tanqislik, pul inflatsiyasi, baholarning keskin oshib ketishi yuz berib, budget xarajatlarini tez ko'payib ketishiga ham olib keldi. Ulami qoplash uchun esa salmoqli daromadlar bo'lishi talab etildi. Daromadlami faqat to'g'ri soliqlar orqali budgetga jalb qilish yetarli bo'lmay qoldi. Shuning uchun to'g'ri soliqlardan tashqari egri soliqlarni qo'llash zarur bo'ldi.

To'rtinchidan. O'z mustaqilligini e'lon qilgan O'zbekiston Respublikasi o'zining yangi soliqlar tizimiga ega bo'lishi va ilgari Markaz belgilagan soliqlardan voz kechishi kerak edi.

Bu ma'naviy jihatdan ham zarur bo'lgan edi.

Yuqorida gilarning jami yig'ilib O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini qayta qurishni obyektiv zarur qilib qo'ygan edi.

Soliq tizimini tashkil etuvchi soliqlarni respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi harakatiga qarab turli guruhlarga bo'lish mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlarni to'g'ri va egri soliqlarga bo'lish mumkin.

To'g'ri soliqlar to'g'ridan to'g'ri haqiqiy daromad oluvchi yoki mulk egasidan olinadi. Ularning obyekti yalpi daromad, mulk qiymati, yer maydoni, ot kuchi va boshqalar bo'ladi. Bunday soliqlarda huquqiy va

haqiqiy soliq to'lovchi ilgaridan aniq va bitta. Soliqni soliq to'lovchining o'zi to'laydi. Bu soliqlarning manbayi korxonaning xo'jalik – moliya faoliyati yakuni, ya'ni daromaddir. O'zbekistonning to'g'ni soliqlariga korxona va tashkilotlarning daromadidan soliq, mol-mulk solig'i, transport vositalari egalari solig'i, yer solig'i, aholining daromad solig'i va boshqalar kiradi.

Egri soliqlar sotilayotgan tovar, bajarilayotgan ish, ko'rsatilayotgan xizmatlar qiymatiga ustama tarzda undiriladi.

Ular tovar qiymati yoki xizmat ta'risi summasini oshiradi.

Ulami shunday qaraganda mahsulot sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi to'layotganday bo'ladi. Huquqiy jihatdan ulami mahsulot sotuvchilar to'laydi, (lekin haqiqiy soliq og'irligini o'z zimmasiga oluvchilar boshqa, yashiringan). Egri soliqlaming haqiqiy to'lovchisi sotilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatni iste'mol qiluvchi korxonalar va oqibat natijada aholi.

Egri soliqlar guruhiga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va bojxona bojlari kiradi.

Soliqlar huquqiy va jismoniy shaxslardan ya'ni korxonalar va aholidan olinadigan soliqlarga bo'linadi.

Huquqiy shaxslardan undiriladigan soliqlar byudjet daromadida hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Bularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, daromad solig'i, korxoanlar mol-mulki solig'i, korxonalar transport vositalari egalari solig'i, yer solig'i, dam olish joylarida, sanoat qurilishi solig'i kiradi.

Huquqiy shaxslardan olinadigan soliqlarning muhim xususiyati ular naqd pulsiz hisoblashlar orqali olinadi va hisoblashish oson bo'ladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bizning respublikamizda budjet daromadlarida hal qiluvchi o'rinni egallamasa ham ularning daromadlarni boshqarib turishda ahamiyati katta.

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarga daromad solig'i, aholi mol-mulk solig'i, yer solig'i, reklama solig'i, transport vositalarini, maishiy va hisoblash texnikasini qayta sotish solig'i va boshqalar kiradi.

Budgetga o'tkazish nuqtayi nazaridan soliqlar umum davlat soliqlari va mahalliy soliqlarga bo'linadi.

Umum davlat soliqlariga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, korxonalar daromadiga soliq, aholi daromadiga soliq va boshqalar kiradi.

Umum davlat soliqlarning muhim xususiyati ular respublika budjetiga tushib, mahalliy budjetlarga ham ularni daromad va xarajatlarini tenglashtirish uchun ajratmalar beriladi.

Mahalliy soliqlar faqat har bir hududdagi mahalliy hokimliklar budjetiga tushadi, boshqa byudjetlarga ajratmalar berish bo'lmaydi.

Bunday soliqlarga yer solig'i, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i, dam olish joylarida sanoat qurilishi solig'i, transport vositalari soliqlari kiradi. Bularidan tashqari mahalliy soliqlar va turli yig'imlar kiradi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida xilma-xil faoliyat va mulk shakllaridagi korxona va tashkilotlarni umum davlat chora tadbirlarini moliya-

lashtirishda qatnashishlari ijtimoiy, iqtisodiy zaruriyatdir. Hozirgi moliyaviy tanqislikni asosan byudjet tanqisligini e'tiborga olib soliqlarning yangi turlari ham kiritilishi mumkin. Chunki bozor iqtisodiyotining infrastrukturasiiga xizmat qiladigan xil soliqlar bo'lishi zarur.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. O'zbekistonda soliq solish tizimi nima?
2. Soliqlarni asosiy elementlariga nimalar kiradi?
3. Soliq stavkalarining turi nima?
4. Soliq deklaratsiyasi nima?

III bob. O'ZBEKISTON DAVLATINING SOLIQ SIYOSATI

1-§. O'zbekiston Respublikasidagi o'tish davri iqtisodiyotini boshqarishda moliya siyosatining roli

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumati bozor munosabatlariiga asoslangan iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan izchil iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Islohotlar strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining keng qamrovli dastaklarini o'z ichiga oladi. Mana shunday dastaklardan eng muhimlaridan biridavlatning izchil moliyaviy siyosati hisoblanadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat moliyaviy siyosatini olib borish va iqtisodni moliyaviy tartibga solish muammolariga alohida e'tibor beriladi.

Moliyaviy siyosat davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, uni falsafiy kategoriyaga taqquoslardigan bo'lsak, ustqurmaga taalluqlidir. Ma'lumki, har qanday jamiyatda ham davlat biron-bir maqsadga erishish, oldiga qo'ygan vazifa va majburiyatlarni bajarish uchun moliyadan keng foydalanadi.

Moliyaviy siyosat qo'yilgan maqsadlarga hayotga tatbiq etish uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni tashkil etishda asosiy rol o'ynaydi. Moliyaviy siyosatni ishlab chiqish jarayoni va hayotga tatbiq etishda u jamiyat oldida turgan vazifalarni bajarish sharoitlarini ta'minlab, iqtisodiy manfaatlarga ta'sir ko'rsatadigan qurol sifatida namoyon bo'ladi.

Moliyaviy siyosatning asosiy yo'nalishi moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy tizim sohalari o'rtaida qayta taqsimlash va bosh yo'nalishga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni barqarorlashtirish maqsadida davlat ixtiyoridagi moliya resurslarini markazlashtirishdan iborat.

Moliyaviy siyosat haqida so'z yuritar ekamiz, biz uning nihoyatda ko'p qirrali va murakkab kategoriya ekanligini alohida ta'kidlashimiz kerak. Hozirgi kunga qadar moliyaviy siyosat tushunchasi borasida yagona fikr mavjud emas. Masalan, g'arb iqtisodchilarini Stenli Fisher, Rudiger Dornbush va Richard Shmalenziarning fikricha, moliyaviy siyosat mustaqil tushuncha hisoblanmaydi. Ular moliyaviy siyosat tushunchasiga fiskal siyosat tushunchasi orqali yondashadilar. «Fiskal siyosat esa davlatning o'z daromadlari va xarakatlari bo'yicha qaror qabul qilishi bo'lib, hisoblanadi», deb ta'kidlanadi.

¹ Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика-М. Финансы и статистика. 1993.

Xorij iqtisodiy maktabining Kempbell R., Makkonell va Stenli L. Bryu kabi namoyandalari ham shunga o'xhash fikrlarni bildirib, «moliyaviy byudjet va fiskal siyosat tushunchalarini bir o'ringa qo'yishadi»².

Professor V.V Lavrovning fikricha, moliyaviy siyosat ishlab chiqarishni hisobga olish va nazorat qilish, mehnat sifati va mahsulotlami taqsimlash bilan bog'liq. Rus olimi I.V. Levchuk moliyaviy siyosatni ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi katta rolini ko'rsatib, moliyaviy siyosat, biringchi navbatda markazlashtirish va demokratik boshqarishni tashkil etishda xizmat qiladi, - deydi.

Moliyaviy siyosatga to'laroq tushunchani M.K.Sheremetev o'zining «Финансы» o'quv qo'llanmasida beradi: «Birinchidan, moliyaviy siyosat bu moliyadan foydalanish bo'yicha davlatning asosiy yo'nalishidir; ikkichidan, moliyaviy siyosat mamlakat iqtisodiyotining ichida ro'y beruvchi moliyaviy jarayonlarning natijasidir»!

Yuqorida qilarga asoslanib, moliyaviy siyosat bu aholining hayot darajasini oshirish maqsadida moliyaviy mablag'larning davlat tomonidan tartibga solinishidir, deb aytishimiz mumkin.

Moliyaviy siyosat haqida fikr yuritganimizda, uning turlariga alohida to'xtalib o'tishimiz lozim bo'ladi. Hozirgi kunda moliyaviy siyosat turlarini quyidagicha guruhash mumkin:


- iqtisodiy o'sish siyosati;
- muvozanatlashtirish siyosati;
- chegaralash siyosati.

Moliyaviy siyosatning yuqorida keltirib o'tilgan turlari milliy daromad hajmini va aholi bandligi darajasini oshirishga davlat xarajatlari tizimini nazorat qilishga, soliqlar vositasida iqtisodiyotni tartibga solishga, budget soliq siyosati yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi. Moliyaviy siyosatni amalga oshirishda davlat moliyasining alohida bo'g'inlariga e'tibor qaratiladi.

Davlat moliysi bo'g'inlari quyidagilarda tashkil topadi:

Davlat moliyasining tarkibiy tuzilishi

Davlat moliyasining bo'g'inlari



Davlat budjeti kuchli demokratik davlatning ishonchli moliyaviy tayanchi bo'lib xizmat qilish kerak. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasiga binoan, O'zbekiston Respub-

² Беляев Ю.А. Бюджетный федерализм зарубежный опыт -М Финансы 1994.

likasi o'z moliya va pul kredit tizimiga ega. Davlat budjeti respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy byudjetlardan iborat. Bundan tashqari, davlat budjeti tarkibida davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasida ilk bor davlat va mahalliy budjetlarga tushuncha berib o'tilgan, bunga ko'ra davlat byudjeti bu davlat pul mablag'larning (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larning) markazlash-tirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tu-shumlar miqdori, shuningdek, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sifsi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Asosiy moliyaviy reja sifatida budjet quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- budjet universal moliyaviy reja hisoblanib, o'z ko'rsatkichlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barcha sohalarini qamrab oladi. Bu universallik xususiyati boshqa moliyaviy rejalarda uchramaydi, chunki ular tor doirada harakat qiladi;

- boshqa moliyaviy rejalariga nisbatan budjet muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi;

- muvofiqlashtirish-budget ko'rsatkichi bilan boshqa moliyaviy rejalar ko'rsatkichining o'zaro bog'liqligi orqali amalga oshiriladi. Korxonalarning moliyaviy rejalarida budjetga to'lanidigan majburiy to'lovlar hajmi va byudjetdan ajratiladigan mablag'lar ajratiladi.

Taniqli rus olimlari M.V.Karaseva va Yu.A.Kroxina o'zlarining «Финансовое право» darsligida budjetning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tadilar:

- budjet davlat va ma'muriy tuzilmalarning xarajatlarini qoplash maqsadida tashkil etiladigan pul mablag'lari jamg'armasidir;

- budjet davlat va ma'muriy tuzilmalarning moliyaviy rejali akti bo'lib, unda ularning daromadlari va xarajatlari ko'rsatib o'tiladi;

- budjet – korxonala muassasalar va tashkilotlarning balansi va smetasi singari moliyaviy reja bo'lib, universallik va muvofiqlashtiruvchi xususiyatga ega.

Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha jihatlar budjet mazmunini boyitib, to'ldirib turadi. Byudjet bu davlat hokimiyati organlari funksiyalarini ta'minlash maqsadida pul mablag'larini tashkil etish va xarajat qilish shaklidir. Bu tushunchadan ko'rniib turibdiki, birinchidan, budjet bu pul mablag'larini tashkil etish va xarajat qilish shakli hisoblanadi, ikinchidan, budjet davlat va mahalliy hokimiyat organlarining funksiyalarini ta'minlaydi.

Har qanday kategoriyaning, shu jumladan, budjetning mohiyati uning vazifalarida namoyon bo'ladi. Budjet keng moliyaviy kategoriya bo'lganligi sababli unga moliyaning barcha vazifalari xosdir.

Budjetning quyidagi asosiy vazifalarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- milliy daromadni qayta taqsimlash;

- iqtisodiyotni tartibga solish;
- budjet sohasini moliyaviy ta'minlash;
- davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish;
- markazlashgan pul mablag'lari jamg'armalarini tashkil etish va foy-dalanish ustidan nazorat o'matish.

Budjet ommaviy-huquqiy kategoriya bo'lib, normativ tarzda mustah-kamlanadi va davlat (ma'muriy-hududiylar) manfaatlarini amalga oshirishda xizmat qiladi.

2-§. Soliq siyosati haqida tushuncha

O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati-asosan Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustdag'i «O'zbekiston Respublikasining davlat Mustaqilligi to'g'risida»gi Qonunda «Shu kundan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil soliq siyosatini olib boradi», deb ko'rsatilgan. Davlatning soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham ko'rsatib o'tilgan.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab soliq sohasida bir qancha qonunlar qabul qilingan edi. Shulardan eng asosiyları O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlari to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limganlarning solig'i to'g'risida»gi qonunları va ularga kiritilgan o'zgarishlar, to'ldirishlar edi.

Soliqlarning huquqiy asosi 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi» bo'ldi. Soliq kodeksining qabul qilinishi soliq siyosatining izchilligi va yaxlitligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Umuman, siyosat deganda, davlatning ilgaridan belgilab, anqliab qo'ygan chora-tadbirlari yig'indisi tushuniladi. Soliq bo'yicha ishlarni tashkil qilish ham muayyan siyosat tarzida amalga oshiriladi. Soliq siyosati davlatning moliya siyosatini eng muhim, tarkibiy ajralmas qismidir.

Soliq siyosati nima? Soliq siyosati-davlatning soliq borasidagi farmon, qonun va qarorlarni ijrosini ta'minlash hamda uni tashkil qilish-dagi chora-tadbirlari, sa'y-harakatlari yig'indisidir. Shunday ekan, faqat mustaqil davlatgina o'z mustaqil soliq siyosatiga ega bo'la oladi.

Soliq siyosatini ishlab chiqish moliya-iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadi. Davlat soliq siyosati orqali respublika iqtisodiyotini barqarorlash-tirishga va rivojlanishiga har tomonlarma faol ta'sir ko'rsatish mumkin.

Soliqlar pul munosabatlari bo'lib, iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi ekan, soliq siyosati ham iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismidir.

3-§. Soliq siyosatining chet el tajribasi

Chet el tajribasi soliq siyosati to'liq va to'g'ri amalga oshirilishi uchun u ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi kerakligini ko'rsatadi.

Soliq munosabatlari puxta o'rganilib, undan ilmiy xulosalar chiqarilishi lozim. Aks holda bunday siyosat muvaffaqiyatga erishishi qiyin. Bu sohada Olmoniyadagi soliq siyosatini ishlab chiqish tajribasidan o'rgansa arziydi. U yerda har bir yangi soliqni joriy etishdan avval uning loyihasini tayyorlash soliq sohasida ishlovchi olimlarga 5–6 oy muddatga topshirilar ekan. Hamma izlanuvchilarga ish natijasidan qat'i nazar mualliflik haqini avvaldan to'lab qo'yildi. Tayyorlangan soliq loyihamarini ko'rib chiqish va eng yaxshisini tanlab olish uchun 3–5 kishidan iborat ekspertlar ishlaydi. Ular soliq loyihasini tanlab olib parlamentga muhokama va tasdiqlashga topshiradilar. Qaysi olimning loyihasi parlamentga qo'yilsa o'sha olim uni bundestagda ham himoya qiladi. Bu soliq loyihasi shu olimning nomi bilan qonun sifatida qabul qilinadi.

Jahon soliq siyosati tajribasida soliq solishning quyidagi yo'nalishlariga katta e'tibor beriladi:

1. Har xil mulk shakllariga asoslangan korxona va tashkilotlarning xo'jalik yuritishiga iqtisodiy mumkin darajada qilay sharoit yaratish, ularning har tomonlama bozor munosabatlariga kirib borishiga yordamlashish.
2. Umum davlat ijtimoiy zaruriy vazifalarini bajarish uchun davlatga zarur bo'lgan moliyaviy manbalarni ta'minlab berish.
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tashkil qilishda qatnashish, ishsizlarni ish bilan ta'minlash, iqtisodiy nochorlarga yordam berish.
4. Aboli turmush darajasini zaruriy me'yorda saqlab turish imkonini izlash va ta'minlash, soliqqa tortilmaydigan daromad minimummini vaqtivaqti bilan ko'tarib turish. Bunda «iste'mol savatchasi» ma'lumotlaridan foydalanish.

Soliqlardan kompleks foydalanish xalq xo'jaligini tarmoqlarini qaya ko'rishga, xo'jaliklar va aholining tovar sobit olish qobiliyatini boshqarib turishga va pulni qadrsizlanish jarayonini (inflatsiya) ji洛vlab turishga imkon beradi. Pul qadrsizlanishiga qarshi choralar ko'rish daromadlarga soliq progressiyasini oshirish bilan ham amalga oshiriladi.)

4-§. Soliq siyosatini ishlab chiqishda davlatning roli

Soliq davlat yashashining moliyaviy manbayi bo'lganligidan soliq siyosatini ishlab chiqishning asosiy tashkilotchisi va ijodkori ham davlatdir. Buning uchun davlat o'z qo'ilidagi butun kuchni, idoralarni jalb qilib uni ishlab chiqadi. Bunday tashkilotlarga Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi va boshqa ilmiy uslubiy tashkilotlar kiradi.

Davlat soliq siyosatini ishlab chiqayotganda mavjud soliqlar mohiyati, ahamiyati, kelib chiqish va rivojlanish tarixi chuqur o'rganiladi. Yangi kiritilayotgan soliqlarning ilmiy asoslanganligi tekshiriladi. Amaliyotchi yirik mutaxassislar fikrini eshitib, erkin bahslashuvlar o'tkazib, so'ng bir qarorga kelishi zarur. Hech qachon faqat biron soha mutaxassislarini taklifini tezda olib, ularga qarab qaror qilishi to'g'ri bo'lmaydi. Chunki har soha-

ning vakili o'z sohasining vazifalaridan kelib chiqib taklif qilishi mumkin. Umum davlat manfaatlarini to'liq ilgaridan ko'ra olmasligi mumkin.

Ma'lum qarorga kelingandan so'ng soliq siyosati loyihasi qaror chiqaruvchi organ tasdig'iغا berilsa maqsadga muvofiq, bozor iqtisodiyoti mohiyatiga mos keladi. Tasdiqlangan soliq siyosatining keng jamoatchilikka ommaviy axborotlar orqali ma'lum qilish zarur. Shunday siyosatning ijrosini ham strategik jihatdan, ham taktik jihatdan ta'minlashni yana davlat tashkil qiladi. Buning uchun o'zining tegishli idoralarini ishga soladi. Demak, davlat soliq siyosatini tayyorlovchi va uni to'liq hayotga tadbiq qilishning tashkilotchisi va boshqaruvchisidir.

Davlatning faol soliq siyosati yunitishi bozor iqtisodiyotiga muvafqaqiyatlari o'tish va uning munosabatlarni rivojlantirishning muhim omilidir.

Shunday qilib, soliq siyosati orqali davlat respublika iqtisodiyotini ham tomonlama barqarorlashtirish va rivojlantirishga faol ta'sir ko'rsatadi.

5-§. Hozirgi davr soliq siyosati

Hozirgi davr soliq siyosati negizida Prezidentimiz I.A. Karimov ishlab chiqqan iqtisodiy islohotlarning besh tamoyili, ustuvor yo'nalishlari etadi. Soliq siyosati ana shu tamoyillardan kelib chiqmoqda, soliq sohasidagi chora tadbirlarni amalga oshirmoqda. Hozirgi kunda soliq siyosati ikki yo'nalishga qaratilgan.

Birinchi yo'nalish. Korxona va tashkilotlarga nisbatan soliq siyosati. Bu yerda eng avvalo, korxonalarning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi erkinligini hisobga olish zarur. Ya'ni ular tovar va xizmatlarga erkin baho belgilaydilar, moliyaviy mustaqillikka egadirlar. Shularni hisobga olib soliq siyosati yo'nalishini belgilash lozim bo'ladi. Bu yerda budgetga to'lovlar faqat demokratik, ya'ni Oliy Majlisning tasdiqlab bergen soliqlar bo'lishi zarurligini aytish lozim.

Ikkinchi yo'nalish. Aholining xilma-xil guruuhlariga nisbatan soliq siyosatida xilma-xil yondoshishdir. Nochor, kam ta'minlanganlarga iloji boricha ko'proq soliqdan yengilliklar berish va kam mehnat bilan ko'p daromad oluvchi yoki boshqa yengil daromad topuvchilarga nisbatan ko'p progressiyali soliq stavkalarini qo'llash maqsadga muvofiq.

Soliq siyosatining strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilgan bo'lishi zarur. Soliq strategiyasi deganda uzoq yillarga (10-15) mo'ljallangan soliq munosabatlaridagi asosiy yo'nalishlar, chora-tadbirilar majmuasi tushuniladi. Uning negizida puxta ilmiy asosda ishlab chiqilgan soliq konsepsiysi yotadi.

Soliq taktikasi deganda esa soliq strategiyasida mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlarni e'tiborga olib ham bir yil yoki muayyan davr ichida amalga oshirish ushublari yoki tadbir choralar tushuniladi. Qoida bo'yicha soliq strategiyasi uzoq yillar o'zgarmasdan amal qiladi. Taktika esa har bir muayyan davrda o'zgarib turadi. Lekin umumiy yo'nalishdan chiqib ketmaydi, umumiy strategiyaning ijrosini ta'minlab borishga erishiladi.

Taktikada uchraydigan o'zgarishlar hayotning obyektiv taqozosidan kelib chiqqan bo'ladi.

„Soliq siyosatini faollashtirish maqsadida soliqlar harakati chegarasini kengaytirish, ularni chuqur tahlil qilib borish va ilmiy xulosalar asosida yangi soliqlar joriy etish talab etiladi. Bunda quyidagilarga e'tiborni qaratmoq lozim.

1. Soliq sohasidagi tarixda bo'lgan davlatlar xatolari takrorlanmasligi uchun soliq solish tarixini puxta o'rganish lozim bo'ladi.

2. Soliq solish va undirish ishlarni arzonga tushirishni unutmaslik kerak.

3. Soliq obyekti aniq, ixcham bo'lishi va soliqni hisoblash uchun to'lovchilarga va soliqni tekshirish idoralariga oson va qulay bo'lishi zarur.

4. Budgetga soliqlarni to'liq va o'z vaqtida tushishini rag'batlantirish maqsadida byudjetga ko'p salmoqli soliq to'lovchilarga soliqdan ma'lum hissasini qoldirish ham maqsadga muvofiqdir.

Bunday chora-tadbirlar yig'indisi soliqlar orqali bozor iqtisodiyotini boshqarish imkoniyatini kengaytiradi va unga muvaffaqiyatlari o'tishga zamin tayyorlaydi.»

6-§. Soliq mexanizmi

Soliq mexanizmi moliya mexanizmi tarkibiga kiradi. Moliyaviy mexanizm — bu moliyaviy munosabatlarni tashkil qilish usullari yig'indisi bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishda qulay shart-sharoitlar ta'minlash uchun jamiyat tomonidan qo'llaniladi. Moliyaviy mexanizm moliyaviy munosabatlarning turlari, shakllari va usullarini o'zida aks ettiradi. Soliq mexanizmi deganda soliqlar tortish bilan bog'liq bo'lgan soliqlarni tashkil qilishning barcha elementlari yig'indisi tushuniladi. Bunday elementlarga soliq obyekti, subyekti, manbayi, soliq stavkasi, to'lov muddatları, soliq huquqi va hujjalari kiradi. Soliq mexanizmi amaldagi soliqlarni hayotga tatbiq etishni ifoda etilishini ifodalaydi.

Soliq mexanizmidan foydalananish soliq elementlarining yig'indisidan samarali foydalananish maqsadida ishlab chiqilgan tushunchadir. Bu mexanizm tarkibiga soliqlar va boshqa to'lovlar (ajratma, yig'imlar) kabi elementlar borligini ayтиb o'tish zarur. Shu mexanizm tarkibida soliqlar aksariyati uzoq yillar harakat qilsa ularning elementlari (masalan, stavkasi) tez-tez o'zgarib turishi mumkin. Demak, soliqlar soliq mexanizmining nisbatan mustahkamlash uzoq yillarga mo'ljallangan ham o'zgartiriladigan qismi. Ajratmalar, yig'imlar va soliqlarning elementlari tez-tez o'zgarib turiladigan, hatto bekor bo'ladigan turidir. Masalan, 6 % byudjetga resurs to'lovlar 1993-yilda joriy etilib, bir o'tgach bekor qilingan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida soliq mexanizmini shunday takomillashtirish lozimki, budgetga soliq va yig'imlar to'liq va o'z vaqtida tushsin, ular bir vaqtning o'zida tovar ishlab chiqarishni kengaytirish va

ko'plab daromad olish imkoniyatini bersin. Eksportga mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirib keyin valutalarga ega bo'lsin. Hozirgi vaqtning soliq siyosati soliq mexanizmmini ana shu yo'naliishda takomillashtirib bormoqda. Bu esa bozor iqtisodiyoti talablariga mos tushib, iqtisodiyotni barqarorlashtirish imkoniyatini bermoqda. Soliq mexanizmining asosiy yo'naliishi soliq siyosatidan kelib chiqadi. Soliq siyosatining yo'naliishi o'zgarsa, soliq mexanizmining keraksiz elementlari chiqarib tashlanadi va yangi elementlar kiritiladi.

Soliq mexanizmida o'zgarishlar kiritilib, takomillashtirilib boriladi. Uni tez o'zgartirishga olib keladigan qator omillar mavjuddir. Bunday omillarga pu'ning qadrsizlanishi, iqtisodiy yo'naliish sharoitida yangi ustuvor yo'naliishlarni belgilash va boshqa qator yangiliklar kiradi.

7-§. Budjet-soliq siyosati yaxlitligi va moliyaviy tartibga solish

Makroiqtisodiy jihatdan esa davlatning samarali budjet-soliq siyosati investitsiya iqlimini yaxshilash, moliyaviy barqarorlik pul va moliya bozorlari rivoji, korxonalarни moliyaviy sog'lomashtirish va aholining real daromadlari o'sishiga imkon beradi.

Soliq tadbirdiari budjet tadbirdarini to'ldirib turadi va ular birgalikda talab majmuasini rivojlantirishga, natijad, esa ishlab chiqarishni ham rivojlantirishga olib keladi. Budjet-soliq siyosati pul kredit siyosati kabi davlatning yaxlit tadbirdarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ular quydagilardan iborat:

1. Iqtisodiy holatni ko'tarish davrida davlat byudjet-soliq va pul kredit siyosatida qarama-qarshi tadbirdarni mujassamlashtirib turish siyosatini o'tkazadi. Ushbu davrdagi budjet-soliq siyosati soliqlar stavkasining ko'tarilishi, davlat xarajatlarining qisqarishi, amortizatsiya siyosatini o'tkazish doirasida chegaralanishlar bilan xarakterlanadi.

2. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash. Buning uchun, eng avvalo, iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatlari o'tkazishning asosi sifatida pul muomilasining barqarorlashtirish bo'yicha zarur choralar ko'rish darkor. Faqat barqaror pul tizimi yaratilgan sharoitda xo'jalik mexanizmining barcha qatnashchilarini va tashkiliy qismlar o'rtasida aloqalar o'matish mumkin.

3. Investitsion faoliytni rivojlantirish va uning milliy daromdidagi ulushini ko'paytirish.

4. Budjetning davlat dotatsiyalari bo'yicha alohida moddiy ishlab chiqarish sohalariiga ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish. Xarajatlar orqali budjet, iqtisodiyotni boshqarish va rivojlantirishning muhim dastagi bo'lib xizmat qiladi.

5. Budjetningg daromad bazasini soliqqa tortishni takomillashtirish va soliqlarni to'liq to'lanishi bo'yicha nazoratni kuchaytirish hisobiga barqarorlashtirish. Soliqlar orqali korxonalar fəoliyatini rag'batlantirish raqobat bardoshlikni oshiradi. Kapital yig'ilish uchun qulay sharoit yaratadi.

Bunda turli soliqlardan imtiozlar berilib, iqtisodiy rivojlanishi uchun zamin yaratiladi.

6. Davlat xarajatlarini maqsadli va samarali tashkil qilinishi bo'yicha moliyaviy nazorat tizimini shakllantirish.

Hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biri byudjet daromadlari va xarajatlari o'tasidagi mutanosiblikni ta'minlashdan iborat. Bunda asosiy o'rinni budget soliq siyosatini yaxlitligiga erishish masalasi egallaydi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarda izdan chiqqan iqtisodiyotni qayta qurish, yangi jamiyat boshqaruv tizimini shakllantirish, aholini «ijtimoiy larzalarsiza» bozor munosabatlariga moslashtirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish juda katta mablag'larni talab etdi. Lekin bu korxonalar zimmasidagi soliq yukining ortib ketishiga, ular iqtisodiy ahvolini yomonlashuviga olib keldi. Shuning uchun keyingi yillarda asosiy e'tibor budget-soliq siyosatining faqat fiskal tominigina emas balki uzoq muddatli istiqbolga erishi maqsadida budget xarajatlari tarkibini qaytadan ko'rib chiqish va soliqlarni rag'batlantiruvchi funksiyasini oshirishga ham qaratilmogda.

Budget uch tarkibiy qismidan-xarajatlar daromadlar qismlari va ular balansidan iborat, ya'ni daromadlarning xarajatlariga muvoqligi qoidasiga ko'ra tuziladi. Budgetni shakllantirish, avvalo, uning xarajatlar qismini tuzish yo'li bilan yuz beradi, chunki davlat o'zida mavjud moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqibgina xarajatlar qilishi mumkin.

Davlat, avvalo, jamiyatni samarali rivojlantirish maqsadida uning zarur mablag'lari hajmini belgilash va shundan keyingina o'z qo'lida bo'lgan byudjet daromad qismini to'ldirishning asosiy vositasi soliq va boshqa manbalari yordamida ana shu moliyaviy resurslarni jaib etish kerak. Budget soliq siyosati mablag'lar harakatining aniq yo'nalishlarini milliy daromadning qayta taqsimlashni aks ettiradi. Bu esa unga mamlakatda iqtisodiyotni va ijtimoiy jarayonlarni samarali boshqarishga imkon beradi.

Iqtisodiy rivojlanishining turli bosqichlarida budget davlat siyosatini amalga oshirish quroli, mo'ljalangan dasturlar va tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag'larni asosiy manbasi hisoblanadi. Oxir ogibatda ayni shu davlat hokimiyatining kundalik masalalarini ham, rivojlanish istiqbollarini ham hal etishga salohiyatini belgilaydi.

Budget iqtisodiyotiga ishlab chiqarish jarayoniga, xo'jalik haotiga davlat tomonidan ta'sir o'tkazish vositasidir. U davlat iste'molining moliyaviy asosi sifatida namoyon bo'ladi hamda davlat tomonidan ijtimoiy siyosat olib borish uchun foydalilanadi.

Davlat budgeti davlatning asosiy moliyaviy rejasи sifatida, hukumat organlariga o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun iqtisodiy imkoniyatlar beradi. Budget davlat uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni aks ettirib, shu bilan birligida mamlakat soliq siyosatini belgilaydi.

Soliq siyosatini o'zgartirib, davlat muayyan doiralarda mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishni rag'batlantirishi va uning iqtisodiyotda paydo bo'ladigan salbiy ko'rinishlariga yo'll qo'ymasligi mumkin. Soliqlar yordamida tartibga solish har qanday mamlakatning xo'jalik hayotini ya'ni ishlab

chiqarish tarkibi, sarmoya jamg'arish shaxsiy iste'molni qamrab oladi, chunki soliq siyosatining o'zgarishi mamlakat iqtisodiyotining ta'sirchan vositasidir. Bunday tartibga solishning asosiy maqsadi bo'lib, korxonalarining ichki va tashqi faoliyatini uchun (ayniqsa, investitsiya faoliyatini jondorish uchun) soliq iqlimini yaratish hamda sarmoya harakatini tarmoq va mintaqaviy yo'nalishlarda rivojlantirishni rag'batlantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash hisoblanadi. Soliq siyosati yordamida tartibga solish har doim ham samarali natijalar beravermaydi, bunga mavjud iqtisodiy vaziyatni to'g'ri baholamaslik uzoq muddatli strategik taxminlash-tirishni noto'g'ri belgilash soliq yukining taqsimlanishida nomutanosiblik sabab bo'lishi mumkin.

Soliq siyosati asosiga byudjetga soliq tushumlari hajmlarini soliq stavkalarini oshirish hisobiga emas, balki ishlab chiqarishni tegishli tarmoqlarini va mahsulotlarning ustuvor turlarini rag'batlantirish vositasida soliq solish bazasini ko'paytirishga imkon yaratadigan choralar hisobiga oshirish zarurligiga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Soliq siyosati soliq-larning jamiyatdagi rolini belgilaydi. Soliqlarning ustqurma tartibining subyektiv hodisisi sifatidagi ahamiyati davlat faoliyatini bilan chambarchas bog'liq. Ushbu ahamiyat doimo harakatda bo'lib, butun xalq xo'jaligini manfaatlari va maqsadlarini jamlama ko'rinishda aks ettiradigan holda davlat siyosatini o'zgarishiga bog'liqdir.

Davlatning budget soliq siyosati samarasiz bo'lishi mumkin, ya'ni uni amalga oshirish quyidagi hollarda maqbul natijalarga olib kelmaydi:

1. Budget-soliq siyosati vaqt davrlari muammosi bilan to'qnash keladi. Iqtisodiy siyosatni ro'yobga chiqishda vaqt-davralarining ikki turi ajratib ko'rsatiladi.

Ichki davr-iqtisodiy shok gangitish bilan u yoki bu harakatlarni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilish o'rtaida.

Tashqi davr-choralar ko'rish bilan natijani olish o'rtaida.

Iqtisodiy tanglik yoki inflatsiyani anglash darhol yuz bermaydi. Odatta, iqtisodchilar makroiqtisodiy vaziyatni batafsil ta'riflaydigan statistika ma'lumotlarini yaxshi deganda uch-olti kechikib oladilar.

Tabiiyki, bunday vaziyatda har qanday qarorlar kechikadi.

Budget-soliq siyosati uzoq davom etadigan ichki davr bilan ta'riflanadi: soliq qonunlaridagi yoki xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlar, odatta, hokimiyatning qonun chiqaruvchi organi tomonidan tasdiqlanishi kerak. Bu esa ko'p vaqtini talab qiladigan turli xil ma'muriy rusum-qoidalar: qonun loyihasini tayyorlash, uni muhokama qilish va kelishib olish, parlament tomonidan qabul qilinishi, Prezident tomonidan tasdiqlanishi va boshqalar bilan bog'langan.

Ko'pincha byudjet-soliq siyosatini amalga oshirishda funksional kechikish yuz beradi: qaror qabul qilinishi bilan uning ijrosi ko'p vaqt o'tishiga to'qnash keladi. Shunday qilib, tadbir rejlashtirish va ijro etishdagi muddatlarga to'liq rioya etilmasligi byudjet soliq siyosatinining samaradorligini pasaytiradi, ba'zan uni xavfli ham qiladi: Barqarorlashtirish

o'miga beqarorlikka olib kelishi ham mumkin. Inflatsiya omili pul muomilasining barqarorligi byudjet soliq siyosatini (soliqlarni kamaytirish) natijalarini olish paytda iqtisodiyot tushkunlik bosqichiga o'tsa, ular bir muncha noo'rin bo'lishi mumkin. Buning natijasida quyidagi omillar sababli iqtisodiy tushkunlik yanada kuchayadi.

1. Budget soliq siyosati amalga oshirish turli xil siyosiy muammolar bilan to'qnash keladi. Hukumat faoliyati, makroiqtisodiy barqarorlashtrishdan tashqari, barqarorlashtirish vazifasiga zid kelishi mumkin bo'lgan boshqa maqsadlarni ham ko'zlaydi. Budget-soliq siyosatidan juda tez siyosiy natijalarga erishish (hokimiyat tepasiga kelish, hokimiyatni qo'ldan bermaslik) uchun foydalaniladi. Soliq yukining kamayishi davlat xarajatlarining ko'payishi, odatda turli xil saylov oldi tadbirlari boshlanishi bilan muvofiq kelishi avvaldan ko'zga tashlanib keladi. Bundan tashqari, budget siyosatini doimo hammaning ko'z o'ngida saylovchilar madadiga tayannoqchi bo'lgan siyosatchilar (hatto, buni iqtisodiy zaruriyat talab qilganda ham) soliqlarni ko'paytirishga yoki ijtimoiy ehtiyojlar uchun zarajatlami kamaytirishga jur'at eta olmaydilar.

2. Makroiqtisodiy prognozlash muammosi mavjud. Qarorni o'z vaqtida qabul qilishda va ijroning o'z vaqtida amalga oshirish zarurligini e'tiborga olganda, byudjet soliq siyosatining muvaffaqiyati makro darajada bo'lg'usi vaziyatni oldindan bashorat qilish mumkinligiga bog'liqidir. Masalan, 2002-yilda respublikamizda o'tkazilgan «Ichki iste'mol bozorini sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish va savdo ustidan bank nazoratini o'rnatish»ga qaratilgan bozorlarni yopish siyosati pul kredit tizimining nomuvofiqligiga, tovarlar aylanishining sekinlashuviga, byudjetga tushumlar miqdorini kamaytirishga naqd pul massasini chetga chiqishiga, ishsizlik darajasining ortishiga sabab bo'lib budget-soliq siyosati va makroiqtisodiy barqarorlikka o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Har bir makroiqtisodiy siyosat o'zining natijalarini kamida yanim yildan keyin beradi. Lekin yarim yildan so'ng iqtisodiyot tushkunlik holatida bo'ladi, rivojlanadimi yoki bizning siyosatimiz inflatsiya to'lqinini yanada kuchaytirib yuboradimi? Afsuski, ilm-fanning hozirgi holati makroiqtisodiy siyosat uchun aniqlik bilan uzoq muddatli va o'rta muddatli proqnozlar qilish imkonini bermaydi. Odatda, qisqa muddatli (2-3 oyga) proqnozlargina muvaffaqiyatli bo'ladi.

3. Faol makroiqtisodiy siyosatning hozirgi ba'zi muholiflari o'z dalil isbotlarida Lukas tanqidi (ratsional kuzatishlar nazariy maktabining asoschisi R.Lukas nomi bilan atalgan) degan konsepsiyanedan foydalananadilar. Lukas tanqidi shundan iboratki, iqtisodiy siyosat natijalarini baholash usullarini uning iqtisodiyot subyektlari umidlarini shakllantirishga ta'sirini hisobga olmaydi. Vaholanki, ushbu umidlar ulkan o'nin egallab, makroiqtisodiy siyosatni ko'pincha ma'nosiz qilib qo'yadi. Chunonchi, hukumat tomonidan rag'batlantiruvchi siyosat o'tkazilganda iqtisodiyot subyektlari muayyan vaqt o'tgandan so'ng inflatsiya sakrashi yuz berishini tushunadilar. Shuning uchun ular o'z rejalarini yangi vaziyatni hisobga olib tutadilar.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Soliq siyosati nima?
2. Soliq siyosatining chet el tajribasi?
3. Soliq siyosatini ishlab chiqishda davlatni roli nimadan iborat?
4. Hozirgi sharoitda soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari nimadan iborat?
5. Soliq mexanzmi nima?
6. Budjet-soliq siyosati yaxlitligi va moliyaviy tartibga solish nimadan iborat?
7. Moliya siyosati nima?

IV bob. SOLIQLARNING IQTISODIYOTNI BOSHQARISHDAGI ROLI VA SOLIQ IMTIYOZLARI

1-§. To'g'ri va egri soliqlar haqida tushuncha va ularni budget daromadlarini to'ldirishdagi roli

Davlat budgeti daromadlarida to'g'ri va egri soliqlar nisbati deyarli bir xil, ahamiyati esa har xil.

To'g'ri soliqlarda soliqlarning huquqiy va haqiqiy to'lovchisi to'g'-ridan-to'g'ri mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlar bajaruvchi va xizmatlar ko'sratuvchi korxonaning o'zginasidir. Bu yerda soliq og'irligini boshqalar yelkasiga ortish holati bo'lmaydi. Bu soliqlar to'g'ridan-to'g'ri moddiy ishlab chiqarish va ko'rsatilgan xizmatlar rejasining sifat bo'yicha bajarilishiiga bog'liq. Agar respublikamizda mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish oshib borsa hamda uning moddiy va pul xarajatlari kamayib borsa korxonalar va birlashmalar daromadlari oshib boradi. Daromadlarning oshishi ham korxona va birlashma va ham davlat byudjeti uchun zarur. Daromad solig'i orqali davlat korxona va birlashmalarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilishidan, jami xarajatlarning rejali uslubi asosida amalga oshishidan va umuman korxona moliyaviy ahvoldidan xabardor bo'lib turadi. Ularning moliyaviy ahvoli yaxshi bo'lsa, byudjetga soliqlar ko'proq tushadi, aks holda kam tushadi. Yoki mol-mulk solig'ida korxona va tashkilotlarda asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatiga qarab soliq hisoblanadi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari, ya'ni stanoklar, mashinalar, har xil mexanizmlar, asbob-uskunalami oshiqcha ko'paytirib yuborsa, korxona soliq ko'p to'laydi. Oz fondlar ishlatib ko'proq mahsulot ishlab chiqarish va sotishga erishsa, kam soliq to'laydi. Demak, soliq bu yerda korxona ixtiyoridagi asosiy fondlardan unurnli foydalananishga va ishlatalmaydigan, keraksiz fondlarni sotib yuborishga undaydi.

Yer solig'i esa korxona birlashma va tashkilotlar ixtiyorida bo'lgan yerlardan samarali foydalananishni ko'zlaydi.

Umuman to'g'ri soliqlarning respublikamiz iqtisodiyotiga juda katta ijobjiy ta'siri mavjud. Ular respublikamiz korxona, tashkilot birlashmalardan moddiy xarajatlarni, mol-mulklarni, yerlarni transport vositalari va pul manbalarini tejash va iqtisod qilishga undaydi. Ulardan budgetga tushgan soliqlar esa respublika ijtimoiy iqtisodiy maqsadlariga yo'naltiriladi.

O'z mablag'laridan mehr-shafqat, ekologiya va boshqa ijtimoiy maqsadlarga ishlatgan korxona, birlashma va tashkilotlarga esa soliqlardan qator yengilliklar beriladi. Demak, bunda soliqlarning ijtimoiy, insoniylik xarakterdaligi o'z ifodasini topadi.

Soliqlarning ayniqsa kamchi xalq iste'moli mollari yangi va raqobatga bardosh bera oladigan mollar ishlab chiqarishni rag'batlantirish uchun ham ahamiyati kattadir.

Egri soliqlarning bozor iqtisodiyoti talablaridan, uning o'tish davri qiy-inchiliklardan kelib chiqqanligini aytib o'tgan edik.

Iqtisodiyotni rivojlanishi erkin bozor munosabatlarga asoslanadigan bo'lsa, hokimiyat demokratik yo'ldan rivojlanadigan bo'lsa, davlat bilan bozor munosabatlari sharoitida ishlaydigan korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar o'ttasidagi munosabat faqat huquqiy munosabat asosida bo'lishi taqozo etiladi. Shunday munosabatlar soliqlar, shu jumladan, egri soliqlar bilan ham amalga oshiriladi.

Ayniqsa bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki davrlarida jamiyat uchun zarur bo'lgan moliyaviy manbalarni faqat to'g'ri soliqlar orqali ta'minlash imkoniyati yetarli bo'lmay qoladi.

Shuning uchun to'g'ri soliqlardan tashqari egri soliqlardan ham foy-dalaniladi.

Egri soliqlarning ham yurtimiz iqtisodiyotida ahamiyati kattadir. **Birinchidan**, bu soliqlar tovarlar va xizmatlar sotilishi bilan bog'liq bo'l-ganligidan, ular sotilishi bilanoq byudjetga tushadi. Odatda, kamaytirib berilmaydi. Bu hol budjet daromadini mustahkamlaydi, budgetdan bo'ladigan ijtimoiy zaruriy xarajatlarni uzlusiz, o'z vaqtida, mustahkam moliyalashtirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, bu soliqlar orqali korxona va birlashmalarning mahsulot sotish, xizmat ko'rsatish va ishlar bajarish ustidan davlat nazorati o'rnatiladi. Iste'mol tovarlarini uzlusiz ishlab chiqarish nazoratga olinadi. Tovarlar iste'molini boshqarib, kerak bo'lsa cheklab borish imkoniyati yaratiladi.

Uchinchidan, bu soliqlar tovarlar qiymatini ustiga qo'yilganligi sababli tovar bahosi oshib, muomaladagi ortiqcha pullar muomaladan olinadi. Bu esa pul muomalasini mustahkamlashga, pul qadrsizlanishi (inflatsiya)ni jilovlashga imkon beradi.

To'rtinchidan, bu soliqlar obyekti tovar oboroti, bajarilgan ishlar va xizmatlar bajarilishi bilan byudjetga soliqni o'tkazib beradi. Bu yerda to'g'-ri soliqlarda bo'lgani kabi moliyaviy faoliyat yakunini kutish zarurati bo'lmaydi. Shuning uchun bu soliqlar byudjetga tamomila tushadi, odatda gaytarib berilmaydi.

2-§. Soliq imtiyorlari haqida tushuncha va soliqqa tortish tamoyillari

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida soliqlardan imtiyorlar berish ko'rsatib o'tilgan. Imtioyz deganda boshqa shaxsga nisbatan ustunlik tushuniladi. Imtiozda odatda, a'lo baholarga o'qigan talaba boshqalarga nisbatan ko'proq stipendiya oladi va hokazo. Lekin soliqlarda imtioz deganda soliq ko'p olinmaydi, balki soliq og'irligi yengillashtiriladi

(kamaytiriladi). Shuning uchun ham soliqlarda imtiyoz emas balki yengillik so'zi soliq munosabatlarini to'liqroq ifodalaydi.

Soliqlardan yengilliklar degani joriy soliq qonunchiligi bo'yicha xuquqiy va jismoniy shaxslarni soliq to'lashdan to'liq yoki qisman ozod qilish demakadir. Imtiyozlar to'g'ridan-to'g'ri to'lanadigan soliq summasidan berilishi mumkin. Aytaylik, korxonada bolalar kiyim-kechaklarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lsa, daromadga (foyda) soliq bo'yicha imtiyoz beriladi. Bu qisman ozod qilishga ham kiradi. Imtiyozlar vaqtinchalik ham bo'lishi mumkin. Jumladan, dehqon (fermer) xo'jaliklari yangi tashkil etilgan davrda boshlab ikki yilgacha daromad solig'ini to'lashdan ozod etiladi.

Bizning soliq qonunchiligidan soliq to'lashdan to'la ozod qilish xolari ko'p uchraydi. Masalan, korxonada jami ishlovchi xodimlar sonidan 75 %dan ko'prog'ini o'rta maktab va maxsus bilim yurti talabalaridan iborat bo'lsa, foyda (daromad) soliqlaridan tamomila ozod etiladi.

Jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha xorijiy mamlakatlarining vakolatxonalarida va elchixonalarida ishlovchi chet xodimlari, mutaxassislar soliqdan mutlaqo ozod etiladi. Bularidan tashqari, soliq bazasini kamaytirish orqali byudjetga to'lanadigan soliq summasini qisqartirish ham imtiyozlar turkumiga kiradi. Masalan, xususiy shaxslar o'z daromadlarini investitsiyaga sarflashsa yoki uning uchun olgan uzoq muddatli kreditlarni qaytarishsa, 50 % soliqqa tortiladigan bazadan kamaytiriladi. Umuman olganda, imtiyozlar turkumiga soliqqa tortilmaydigan daromad guruhlari ham kiradi. Masalan, fuqarolarning daromad solig'i bo'yicha bir qator soliqqa tortilmaydigan daromadi mavjud. Bularga pensiya, nafaqa, aliment, kon topshirgan shaxs oladigan daromad guruhlari ham kiradi. Imtiyozlar dialektikasiga binoan budgetga soliq to'lashdagagi imtiyozlar mehnat unumtdorligini oshirib, ishlab chiqarishni rivojlantirish hisobiga budgetga tushadigan umumiylar daromadlarini, aytaylik, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz soliqlari orqali bo'lsa ham ko'paytirishi mumkin.

Soliq qonunchiligi amaliyotida imtiyozlar turi juda ko'p bo'lgani bilan ulardan foydalanish ancha murakkab. Ba'zan ular cheklab qo'yildi. Soliqlar bazasini kamaytirishning 6-7 holatlari mavjud. Soliq to'lovchilar qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hamma imtiyozlardan to'liq foydalana olmaydi, chunki shartlari og'ir, ortiqcha rasmiyatichiliklarni talab etadi.

Respublikamizda aholi soliqlaridan xilma-xil yengilliklar berilishi bozor iqtisodiyotining og'ir o'tish davrida aholini ijtimoiy himoya qilishga, shu davrda aholiga eng kam deganda iste'mol savatchasi darajasi atrofida daromad olishga qaratilgan.

Korxona, birlashma va tashkilotlarga soliqlardan yengilliklar berilishi ularga o'z korxonalarini kengaytirish, ko'proq xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish, xorijiy ishbilarmonlar bilan birlashib qo'shma korxonalar tuzish, ijtimoiy va madaniyat shoxobchalariga bozor qiyinchiliklari davrida yordam berish va boshqa mehr-muruvvat jamg'armalariga yordamlashish imkonini yaratadi.

Soliqlar kelib chiqishiga ko'ra davlat bilan bog'liqligi, ular davlatni ekanligini aylib o'tgan edik. Demak soliqlar davlatni ekan, ulami tashkil etish ya'ni soliqqa tortish tamoyillarini ham davlat ishlab chiqadi. Soliqlarni tashkil qilishda shu tamoyillarga qattiq rioya qilish soliq to'lovchilarni ko'p ranjitmasdan ulardan soliqlarni undirish imkonini beradi.

Soliqqa tortish tamoyillari davlat tomonidan ishlab chiqiladi va Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlarda ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevral va uni oxirgi marta 1995-yil 22-dekabrda kiritilgan o'zgartirishlar va to'ldirishlar bilan qabul qilingan. Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar soliqlari to'g'risida Qonunda soliqqa tortishing asosiy tamoyillari ko'rsatib o'tilgan. Bularغا quyidagilar kiradi:

1. Manbalardan qat'iy nazar hamma daromadlarni soliqqa tortilish majburiyligi.

2. Umum davlat soliq siyosati atrofida hamma daromaddagi majburiy hududlarning soliq faoliyatidagi mustaqillikni hisobga olib yagona umum davlat soliqqa tortish siyosatini yuritish.

3. Faoliyati muhim ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik muammolarga hamda xo'jalik yuritishning ilg'or shakllariga qaratilgan faol ishlovchi korxonalarga imtiyozlar tizimi orqali soliqlarni qiziqtiruvchi rolini ta'minlash.

4. Soliq to'lovchilari bo'yicha deklaratsiyalar, tekshirishlar va reviziylar o'tkazish qonunchiligini buzganlarga iqtisodiy jazolar qo'llash bilan moliyaviy nazorat o'rnatishdan iboratdir.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning soliq qonunchiligidagi soliqqa tortish tamoyillari ko'rsatib berilgan. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

1. Tenglik va samaradorlik.

2. Soliqqa tortishda aniq va osonlik.

3. Soliqqa tortishning xazinaviy samaradorligi va egiluvchanlik.

4. Soliqqa tortishning arzonligi.

5. Soliqqa tortishda ijtimoiy adolat.

Yuqorida barcha tamoyillarni e'tiborga olish soliq konsepsiyanini mukammal ishlab chiqishning asosidir. Bunday konsepsiyaning yaratilishi esa soliq siyosati strategiyasi va taktikasining negizidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq solishda katta ehtiyojkorlik talab etiladi. Bu davrda tovar baholarining keskin oshib ketishi mehnatkashlar turmush darajasini qiyinlashtirib turgan paytda iloji boricha soliqlar yuki ni yengillashtirib borish talab etiladi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. To'g'ri soliqlar nima va unga qanday soliqlar kiradi?
2. Egri soliqlarga qanday soliqlar kiradi?
3. Soliqlar orqali iqtisodiyotni qanday boshqariladi?
4. Soliq imtiyozlarini nima?

II QISM UMUMDAVIAT SOLIQLARI

V bob. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA (DAROMAD) SOLIG'I

1-§. Foyda (daromad) solig'inining mobiyati va obyekti

O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarishda soliq mexanizmi asosiy o'rindan birini egallaydi, chunki soliq mexanizmini budjet daromadlarini shakllantirishning asosiy manbasi hisoblanadi. Budjet daromadlarini tashkil etishda foyda solig'inining roli kattadir. Bozor iqtisodiyotiga o'tishga qadar (1991-yilgacha) davlat budjetini daromadlarini tashkil etishda korxonalarni foydasidan ajratmalar katta o'rinni tutar edi. Bunday ajratmalar majburiy hisoblanan edi (bu ajratmalar balans foydasining 85 % gacha yetardi). Turli shakldagi mulkchilikka asoslangan korxonalarni paydo bo'lish natijasida korxonalar imkoniyati oshishi, bozor infrastrukturasi elementlari rivojlanishi bilan majburiy ajratmalarning avvalgi tizimi xo'jalik yuritishga mos kelmay qoldi, ya'ni davlat budjeti uchun yetarli mablag' to'planmadidi. Bundan tashqari, u mulkchilikni muqobil shakllaridagi korxonalar butun bir toifasini hamda boshqa tadbirkorlarni qamrab olmas edi. O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jarayonida foydadan ajratmalar o'rniga foyda solig'inining joriy etj-lishi maqsadga muvofiq bo'lib qoldi.

Hisobot davrida moliya-xo'jalik faoliyati natijalaridan soliqqa tortiladigan foydaga (daromadga) ega bo'lgan, mulkchilik shaklidan qat'i nazar ushbu soliq turi bo'yicha imtiyozga ega bo'lмаган yuridik shaxslar foyda (daromad) solig'i to'lovchilar deb hisoblanadi.

Yuridik shaxslar foyda solig'i bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblami mustaqil olib boradilar.

Foyda solig'i subyektlariga (to'lovchilar) O'zbekiston hududida faoliyat ko'rsatayotgan davlat korxonaları, aksiyadorlik jamiyatları, firmalar, qo'shma korxonalar va boshqalar kiradi. Bu korxonalar uchun foyda solig'ini to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida o'z ifodasini topgan.

2-§. Yuridik shaxslarni jami daromadini aniqlash tartibi

Foyda solig'inining aniqlashda dastavval korxona jami daromadini aniqlash lozim. Jami daromad uchun jo'natilgan tovar, bajarilgan ishlar,

ko'rsatilgan xizmatlar va boshqa operatsiyalar uchun korxona olishi lozim bo'lgan mablag'lar yoki tekinga olingan mablag'lar asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Bularga esa quyidagilar kiradi:

– tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan keladigan tushum;

– asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk obyektlari, materiallar va boshqa aktivlarni realizatsiya qilishdan keladigan daromad;

– foizlardan keladigan daromadlar;

– dividendlar;

– tekinga olingan mol-mulk;

– mol-mulkni ijara berishdan keladigan daromad;

– roylati;

– tekin moliyaviy yordam (davlat byudjetidan berilgan subsidiyalar bundan mustasno);

– da'vo muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik va deponent qarzdorlikni hisobdan chiqarishdan olingan daromad;

– ilgari chegirib tashlangan xarajatlar, zararlar yoki shubhali qarz-laming o'mini qoplash tariqasida olingan daromadlar;

– valuta hisob-varaqalaridagi kurs bo'yicha musbat farq;

– favqulodda daromadlar;

– boshqa daromadlar.

Agar o'zarlo aloqador korxonalar tijorat va moliyaviy munosabatlarda mustaqil yuridik shaxslar o'tasida qo'llanishi mumkin bo'lgan narxlardan farq qiladigan narxлами qo'llasalar, Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, narxlarda vujudga kelgan farqga teng miqdorda daromad summasini o'zgartirilishi mumkin.

O'zarlo aloqador korxonalar quyidagilardir:

Xorijiy davlatning yuridik shaxslari va ularning O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar hamda ularning O'zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan shu'ba korxonalari;

– ayni bir yuridik yoki jismoniy shaxslar muassisleri bo'lgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar va xorijiy davlat-larning yuridik shaxslari.

Soliq solinadigan daromadlarni (foydani) belgilashda jami daromad-dan quyidagi chegirmalar amalga oshiriladi;

– qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, yer osti boyligidan foydalanganlik uchun soliq, ekologiya solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq, boj to'lovlar;

– banklarning va boshqa moliya-kredit tashkilotlarning qisqa muddatli kreditlari bo'yicha foiz to'lovlarini summalarini, to'lov muddati o'tgan va to'lov muddati uzaytirilgan ssudalar bo'yicha soizlar bundan mustasno;

– xodimlarga ish haqi to'lash bo'yicha xarajatlar (banklar, sug'urta tashkilotlari, videosalonlar, videoko'rsatuv, video va audio yozuv punktlari, auki-onlar, kazino, pul yutuqi qo'yilgan uyin avtomatlari va boshqalar mustasno;

- belgilangan tartibda kiritilgan renta to'lovlarining summasi; ijara haqi (lizing to'lovi); asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari;
 - chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning moddiy xarajatlari va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati;
 - majburiy sug'urta to'lovlar bo'yicha o'tkazilgan qonun xujatlarga muvofiq ish haqiga hisoblangan summalar;
 - mahsulotni (xizmatlarni) sertifikatlash ishlariga haq to'lash xarajatlari summasi;
 - qonun hujjatlarga muvofiq normalar bo'yicha xizmat safarlari xarajatlari summasi;
 - qonun hujjatlarga muvofiq normalar bo'yicha vakillik maqsad-laridagi xarajatlar summalar;
 - reklama xarajatlari;
 - belgilangan normalar doirasida kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash uchun xarajatlar summalar;
 - soliq to'lovchi balansidagi so'glikni saqlash obyektlari, qariyalar va nog'ironlar uylari, maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari, bolalarning dam olish lagerlari, madaniyat va sport obyektlari xalq ta'limi muassasalari, uy-joy fondini saqlashga mahalliy davlat hokimiyat organlari tasdiqlangan normativlarga muvofiq keladigan xarajatlar summalar, shuningdek, soliq to'lovchilar sanab o'tilgan muassasalarni saqlashda ulush qo'shib qatnashib, ana shu maqsadlar uchun qilinadigan xarajatlarning summalar;
 - qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan boshqa majburiy to'lovlar.
- Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xarajatlari va majburiy to'lovlardan tashqari quyidagi xarajatlar va ajratmalar ham jami daromaddan chegirib tashlanadi.
- 1) Banklar bo'yicha:
 - kredit resurslari uchun to'lovlar, operatsiya xarajatlari, pul mablag'lari va boyliklarni tashish hamda saqlash xarajatlari;
 - mijozlarning hisobvaraqlari, shu jumladan, jismoniy shaxslarning omonatlari bo'yicha hisoblangan va to'langan foizlari;
 - tavakkalchilik operatsiyalari bo'yicha zaxira hisoblash, uchirilgan umidsiz ssuda summalar;
 - 2) Sug'urta tashkilotlari bo'yicha:
 - qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha berilgan to'lov summalar;
 - amal qilishi hisobot yili oxirigacha to'lanmagan sug'urta va qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha berilgan to'lov summalar;
 - sug'urta va qayta majburiyatlar bo'yicha amalgaoshlirilgan va hisoblangan to'lov summalar;
 - o'tgan yillardagi sug'urta hodisalari bo'yicha to'lanmagan to'lov summalar, shu jumladan, da'vo muddati doirasidagi majburiyatlar summalar;

– sug'urta tashkiloti sug'urta hodisalari ro'y berishini bartaraf etish va uning oldini olishga doir tadbirlarni moliyalashga sarflaydigan mablag'lar summalar;

– sug'urta tashkilotlarning zaxira fondlari bu tashkilotlar ustav fondaning 25 % yetguniga qadar sug'urta tashkilotlari o'z daromadlarining 25 % miqdorida zaxira fondlariga qiladigan ajratmalar.

Jami daromaddan chegirib tashlanadigan xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalarni aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Agar amalga oshirilgan xarajatlar bir necha toifaga kiritilgan bo'lsa, u faqat bir marta jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Asosiy vositalar amortizatsiya qilinadi, yer bundan mustasno, asosiy vositalarning soliq solinadigan davr mobaynida belgilangan normalar doirasida hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summalarini jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Bundan tashqari, nomoddiy aktivlarga qilingan xarajatlar jami daromaddan eskirish tarzida har oyda, korxona tomonidan ularning boshlangich qiymati va ulardan unumli foydalanish muddati asosida hisoblab chiqilgan normalar bo'yicha chiqarib tashlanadi.

3-§. Foya solig'ining stavkalar

Korxona, tashkilot va firmalarning soliq solinadigan foydasiga eng yuqori – 35 % stavka O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida 1998-yilda belgilangan edi, 1999-yil 1-yanvardan 33 % 2000-yil 1-yanvardan esa 31 %, 2001-yil 1-yanvardan boshlab stavka 26 % va 2002-yilda esa 24 % 2003-yil 1-yanvardan 20 % 2006-yil 1-yanvardan 12,4 %, 2007-yil 1-yanvardan 10 % belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi quyidagilar uchun foydasiga solinadigan soliqning kamaytirilgan stavkalarini belgilashi mumkin:

– qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun asosiy faoliyati bo'yicha, ya'ni ular yagona yer solig'i to'laydigan bo'ldilar, 1-yanvar 2002-yildan boshlab;

– chet el investitsiyaları ishtirokidagi korxonalar uchun;

– bolalar bop va badiiy hunurmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun;

– o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarini eksport qiluvchi korxonalar uchun.

Korxonalarga to'lanadigan dividendlar va foizlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan stavka bo'yicha to'lov manbaya soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasidagi to'lov manbayida ilgari soliq undirilgan dividendlar va foizlarni olgan rezident yuridik shaxslar to'lov manbayida soliqning to'langanligini tasdiglaydigan hujjatlar mavjud bo'lsa, ularni jami daromaddan chegirib tashlash huquqiga egadirlar.

Banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlarga to'lanadigan foizlarga to'lov manbayida soliq solinmaydi, balki bank va boshqa moliya-kredit tashkilotiga belgilangan tartibda soliq solinadi.

Norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi to'lov manbayidan olin-gan, doimiy muassasa bilan bog'liq bo'limgan foydasiga manbada che-girmalarsiz quyidagi stavkalar bo'yicha soliq solinadi:

| | |
|--|------|
| Dividendlar va foizlar | 15 % |
| Tavakkalchiliklami sug'urta qilishga yoki qayta sug'urta qili-shga to'langan sug'urta mukofotlari | 10 % |
| O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar o'ttasida xarajat qilishda xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar yoki transport xizmatlari uchun | 6 % |
| Ijaradan olingan daromadlar, xizmatlar ko'rsatish, maslahat berish | 20 % |

4-§. Foya solig'i bo'yicha beriladigan imtiyozlar

Korxona, tashkilot va firmalarni ishlab chiqarishni rivojlantirishga foya solig'ini to'lashlarini qiziqtirish va rag'batlantirish uchun ayrim toifadagi korxonalariga imtiyozlar belgilangan, ya'ni quyidagi turdag'i korxonalar foya solig'i to'lashdan to'laligicha ozod etiladi. Bular O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida ko'rsatib o'tilgan:

Protez-ortepediya buyumlari, inventar ishlab chiqarishga, shuning-dek nogironlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar asosiy faoliyati turi bo'yicha.

Ishlovchilarni umumiy sonining kamida 50 %ini nogironlar, 1941-45-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini tashkil etgan korxonalar (bularga, vositachilik, savdo, ta'minot-sotish va tayyorlov tashkilotlari kirimaydi).

Davolash muassasalari qoshidagi davolash ishlab chiqarish ustaxonalarini.

Jazoni ijro etish muassasalari.

Shahar yo'lovchilar transporti (taksidan, shu jumladan yo'nalishi taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bilan bog'liq xizmatlar bo'yicha.

Yuridik shaxslar tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash va qayta tiklash ishlarini amalga oshirishda olingan daromad bo'yicha.

Yuridik shaxslar umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlashdan olingan foya.

Yangi tashkil etilgan dehqon va fermer xo'jaliklari va xususiy korxonalar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashdan, xalq iste'mol tovarlari, binokorlik materiallarini ishlab chiqarib foya oladigan korxonalar ro'yxatdan o'tgandan keyin ikki yil muddatgacha.

Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlariда yangi tashkil etilgan, turizm bilan shug'ullanadigan korxonalar 3 yil muddatgacha.

Quyidagilar olingen foydalarini yuzasidan:

patent egasi (litsenziyalar) sanoat mulki obyektlari o'zi ishlab chiqargan faoliyatlaridan shuningdek, ularga litsenziya sotishdan daromadi yuzasidan amal qilish muddati doirasida foydalana boshlangan sanadan e'tiboran:

- ixtirolar va seleksiya yutug'idan patent bo'yicha 5 yil davomida;
- ixtirolardan dastlabki patent bo'yicha 3 yil davomida;
- seleksiya yutug'idan guvohnorma bo'yicha 3 yil davomida;
- sanoat namunasidan dastlabki patent bo'yicha 2 yil davomida.

litsenziyalari (litsenziya shartnomasidan foydalanish huquqini olgan shaxs) sanoat mulki obyektlaridan foydalanishdan olib daromad yuzasidan foydalana boshlangan sanadan e'tiboran:

- ixtirolar va seleksiya yutug'idan patent bo'yicha 5 yil davomida;
- ixtirolardan dastlabki patent bo'yicha 3 yil davomida;
- seleksiya yutug'idan guvohnorma bo'yicha 3 yil davomida;
- sanoat namunasidan dastlabki patent bo'yicha 3 yil davomida;
- foydali modeldan guvohnorma bo'yicha 2 yil davomida;
- tovar belgisi va xizmat belgisidan 1 yil davomida.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilib, eksportga yo'naltirilgan va importning o'mini bosadigan mahsulotlar chiqaradigan korxonalar:

- agar ishlab chiqarilgan hajmning 25 %dan ortig'i bolalarbop mahsulotdan iborat bo'sha 5 yil muddatga;
- agar chet el sarmoyasining ulushi korxona ustav fondining 50 % va undan ko'pini tashkil etsa 2 yil muddatga.

Ustav fondida chet el sarmoyasining ulushi 50 % va undan ko'progini tashkil etgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalarini-ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga yo'naltirilgan foydasini bo'yicha.

O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturiga kiritilgan loyiha-larga kapital mablag'lari sarflaydigan chet el investitsiyasi ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalarini 7 yil davomida.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlashga (uzum-mevalari, o'tkiz ichimliklar tayyorlagandan tashqari), xalq iste'moli tovarlari, oziq-ovqat, binokorlik materiallari 2 yil muddatga.

Bularidan tashqari quyidagi korxonalarga soliq solinadigan foydasini kamaytiriladi:

- ekologiya, salomatlik, hayriya fondlari, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot – 1 %dan ko'p bo'1-magan miqdorda;
- investitsiyalar va olingen kreditlar uchun esa 50 % kamaytiriladi;
- tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazishga ketgan xarajatlar 30 % summasiga;
- futbolni rivojlantirishga ko'maklashish, futbol klublari va maktabalarining moddiy-teknika bazasini yo'naltirilgan mablag'larning mustahkamlashga 50 % miqdorida.

**5-§. Foyda solig'ini hisoblab chiqish, hisobotini tuzish
va to'lash tartibi**

Tijorat bilan shug'ullanuvchi korxona, tashkilot va firmalar ortib boruvchi yakun bilan chiqarilgan foyda solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni, agar qonun hujjalarda boshqa tartib belgilanmagan bo'lsa ro'yxatdan o'tgan joydagи soliq inspeksiyalariga choraklarga oid va yillik moliyaviy hisobotlamini taqdim etish muddatlarida topshiradilar.

2-jadval

**MOLIYAVIY NATIJALAR BO'YICHA HISOBOT
2-chorak 2006-yil ming so'mda**

| Ko'rsatkichlar | Qa-tor t/r | o'tgan yilning shu davri uchun | | hisobot davri uchun | |
|--|------------|--------------------------------|--------------|---------------------|---------------|
| | | darom. foyda | xaraj. zarar | darom. foyda | xarajat zarar |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| Mahsulot sotishdan, ish va xizmat ko'rsatishdan tushgan tushum | 10 | 5729 | X | 6883,6 | X |
| go'shilgan qiymat solig'i | 20 | X | 799,1 | X | 834,3 |
| Aksiz | 30 | X | 346,2 | X | 387,6 |
| | 40 | - | - | - | - |
| Mahsulot sotishdan sof tushum | 50 | 4583 | X | 5694,5 | X |
| Sotilgan mahsulot, tovar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatning ishlab chiqarish tannari | 60 | X | 3951 | X | 4841,7 |
| Mahsulot sotishdan yalpi moliyaviy natija | 70 | 632,1 | 85,4 | 852,8 | |
| Sotish xarajatlari | 80 | X | 67 | X | 98,3 |
| Ma'muriy xarajatlar | 90 | X | X | X | 80 |
| Asosiy faoliyat bo'yicha boshqa | | | | | |
| operatsion xarajatlar va daromadlar | 100 | 31,3 | X | 37,2 | - |
| Asosiy ishlab chiqarish faoliyati | | | | | |
| bo'yicha moliyaviy natija (foyda yoki zarar) | 110 | 511 | | | 711,7 |
| Shu'ba va assotsiatsiya korxonalaridan olingan dividendlar | 120 | - | - | - | - |

jadvalning davomi

| | | | | | |
|---|-----|-------|------|------|-------|
| Boshqa olingan dividentlar | 125 | 3,5 | X | 4,7 | X |
| Shu'ba va assotsiatsiya korxona lariga berilgan va olingan qarzlar bo'yicha foizlar | 130 | 4,2 | | | 2,9 |
| Boshqa olingan va berilgan foizlar | | | | | |
| foizlar | 135 | | | 21,6 | 27,5 |
| Valuta kursi bo'yicha farqlar | 140 | 5,8 | | | 7,1 |
| Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromadlar va xarajatlar | 145 | 79,3 | | | 93,2 |
| Umumxo'jalik faoliyati bo'yicha moliyaviy natija (foyda yoki zarar) | 150 | 582,2 | | | 792,1 |
| Favqulodda foyda yoki zarar | 160 | 11,4 | | | 8,3 |
| Foyda solig'i to'lagunga qadar Umumiyl moliyaviy natija (foyda yoki zarar) | 170 | 593,6 | | | 800,4 |
| Foyda (daromad) solig'i | 180 | X | 200 | X | 248,5 |
| Yuqoridagi moddalarga kiritilmagan boshqa soliq va ajratmalar | 190 | X | 25,6 | X | 55,7 |
| Joriy davming sof foydasi | 200 | 368 | | | 496,2 |

Ushbu hisobotni korxonaning bosh hisobchisi chorak tugagandan so'ng keyingi oyda chorakni moliyaviy hisobotini taqdim etish muddatida 5 kun ichida mahalliy soliq idorasiga topshiradi. Bu hisobot bilan birgalikda foyda solig'i hisob-kitobini ham topshiradilar.

Bular quyidagi jadvalda keltirilgan.

3-jadval

FOYDA (DAROMAD) SOLIG'INING HISOB-KITOBI

| Ko'rsatki chilar | Satr | Summa |
|---|------|-------|
| | kodi | |
| 1 | 2 | 3 |
| 1. Foyda solig'i to'lagunga qadar umumiyl moliyaviy natija (foyda yoki zarar) (Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning 2-shaklidan 170-satr). | 10 | 800,4 |

| | | |
|---|-------------|-------|
| 2. Soliqqa tortiladigan bazaga kiruvchi xarajat mod-dalari: | | |
| - «harajatlar tarkibi to'g'risida»gi Nizomning 1-ilovasiga muvosiq; | 20 | |
| - «harajatlar tarkibi to'g'risida»gi Nizomning 3-ilovasiga muvosiq (bu satmi faqat daromad solig'ining to'lovchilar to'lg'azadilar). | 30 | |
| 3. Mazkur hisobot davrida soliqqa tortiladigan bazadan chegirilmaydigan (xarajatlar tarkibi to'g'risidagi nizomning 2-ilovasiga muvosiq 26-schyotning 4-subschyotida hisobga olinadigan) xa-rajatlar. | 40 | |
| Mazkur hisobot davrida soliqqa tortiladigan bazadan chegiriladigan avvalgi davrlarda amalga oshirilgan xarajatlar (balansdan tashqari 010raqamli schyot bo'yicha maxsus hisob-kitob: - ilova qilinadi). | | |
| Soliqqa tortiladigan bazaga qo'shilishi kerak bo'lgan xarajatlar (040 satr - 050 satr). | 50 | |
| bo'yicha maxsus hisob-kitob: - ilova qilinadi). | 60 | |
| 4. Aksiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha dividendlar (foizlar), shuningdek, boshqa korxonalar faoliyatida hissa qo'shib qatnashishdagi daromadlar. | 70 | |
| 5. Soliqqa tortiladigan baza (010 satr – 020 satr Q 030 satr - 060 satr - 070 satr). | 80 | 800,4 |
| 6. Amaldagi soliq Qonunchiligiga muvosiq soliqqa tortiladigan bazaning kamayishi (imtiyozlar bo'yicha ma'lumotlar ilova qilinadi). | 90 | |
| 7. Soliqqa tortiladigan foyda (daromad) (080 satr-090 satr). | 100 | 800,4 |
| 8. Foyda (daromad) solig'ining belgilangan stav-kasi. | 110 | 12 % |
| 9. Foyda (daromad) solig'ining tuzatilgan stav-kasi (hisob-kitob ilova qilinadi). | 120 | 96 |
| 10. Budgetga to'lanishi kerak bo'lgan foyda (daromad) solig'ining summasi: (100 satr x 120 satr -100%). | 130 | |
| 11. Dividendlar uchun soliq stavkasi | 140 | 15 % |
| 12. Olingan dividendlar bo'yicha soliq summasi (170 saatr x 140 satr x 100 %). | 150 | |
| 13. Jami budgetga hisoblangan (130 satr-150 satr). | 160 | |
| 14. Budgetga hisoblandi. | 170 | |
| 15. Muddati bo'yicha hisoblangungacha. | 180 | |
| 16. Kamayishiga. | 190 | |
| Korxona (tashkilotning) rahbari | (imzo) | |
| Bosh buxgalter | (imzo) | |
| qabul qildi. | (imzo) sana | |

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Foyda solig'i qanday soliq hisoblanadi?
2. Foyda solig'ining obyekti nima?
3. Yuridik shaxsni daromadi qanday aniqlanadi?
4. Foyda solig'ining stavkalari qanday?
5. Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar nimadan iborat?
6. Foyda solig'i bo'yicha hisobotlar qanday tuziladi.

VI bob. SODDALASHTIRILGAN SOLIQ TIZIMI (yagona soliq)

1-§. Soddalashtirilgan soliq tizimi haqida tushuncha va uning iqtisodiy ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi oldida turgan qator iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni yechishda, shu jumladan, bozorlarni tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlashda, aholini ish bilan bandligini tashkil etishda bozor iqtisodiyoti sharoitida xojalik tiziminining muhim tarkibiy qismi bo'l mish kichik biznesning ahamiyati beqiyosdir. Hozirga kelib, kichik korxonalar yalpi ichki mahsulotning to'rtidan bir qismini bermoqdalar.

O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda davlatning kafolatlari va yordami tufayli iqtisodiyotda katta imkoniyatlarni ishga solish mumkin. Ularga davlat yordamini berish, kafolatlardan tashqari ixchamlashgan soliq tizimiga o'tishga ruxsat berishlik ularni tashkil qilish va moliya xo'jalik faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ixchamlashgan soliq tiziminining ahamiyati kattadir.

Bular **birinchidan**, bozormi tezda tovarlar va xizmatlar bilan boyitish imkonini beradi, **ikkinchidan**, ishsizlikni kamaytirish, yangi ish o'rinnari ochishga yordam beradi, **uchinchidan**, ular faoliyatini tashkil qilishni ixchamlashtiradi, **to'rtinchidan**, soliq hisoblari va hisobotlari sonini kamaytiradi, soliq hisoblash xodimlari ishini osonlashtiradi, chunki ilgari ko'p soliq hisoblari va dalolatnomalari o'miga yagona soliq (aksiz osti tovarlari bo'ladi aksiz) soliq to'laydi. Ko'p martali bo'nak to'lovlar umuman bo'lmaydi. Demak, boqimanda ham bo'lmasligi lozim.

Agar kichik korxonalar aksiz osti tovarlari ishlab chiqarsalar, unda aksiz solig'ini ham tulaydilar.

Soliq hisobi oddiy bo'ladi, atigi 6 ko'rsatkichdan iborat.

Kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lashga o'tishlik ixtiyoriyidir. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash» to'g'risidagi qaroridan kelib chiqiladi. (1998-yil 15-aprel 159-son).

Ixchamlashtirilgan soliq to'lashga o'tgan kichik korxonalar uchun quyidagi to'lovlarini to'lash tartibi saqlanib qolgan:

Aksiz solig'i.

Bojxona to'lovları.

Davlat boji.

Budjetdan tashqari fondlarga to'lovlar: pensiya fondi, bandlik, yo'l fondlari va b.

Birja bitimlari yig'imi.

Maxsus tovarlarni sotish huquqini olish litsenziya yig'imi.

Savdo qilish huquqini olish yig'imi.

Kichik biznes korxonalari qatoriga o'tishning yagona mezoni bor. U ham bo'ladi ulardagi ishlovchilar sonidir. 2002-yildan boshlab, filial va bo'linmalarda ishlovchilar ham ishlovchilar soniga qo'shiladigan bo'ldi.

Kichik biznes maqomini olishning quyidagi me'yortari belgilangan:

Mikrofirmalarda:

ishlab chiqarish sohalari uchun — 10 kishigacha;

xarid qilish, ta'minlash sotish korxonalari, xizmat ko'rsatish va noishlab chiqarish sohalari uchun — 5 kishigacha.

Kichik korxonalarda:

sanoatda — 40 kishigacha;

qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohalarida — 20 kishigacha;

fan, ilmiy xizmat qilish, chakana savdo va boshqa noishlab chiqarish sohalarida — 10 kishigacha ishlovchisi bo'lishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 30-avgustdag'i Farmoniga asosan 2004-yilning 1-yanvaridan kichik tad-birkorlik (biznes) subyektlari toifasiga quyidagilar kirishi belgilandi:

yakka tartibdag'i tadbirkorlar;

ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgunji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar;

quyidagi tarmoqlarning o'rtacha yillik xodimlar soni:

yenilg'i va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yoq'ochni qayta ishslash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati-100 kishidan;

mashinasozlik, metallurgiya, yoqilig'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishslash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari — 50 kishidan;

fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sugurta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan sohalar — 25 kishidan.

Soddalashtirilgan soliq, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq ishlab chiqilgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar (keyingi o'rinnlarda — mikrofirmalar va korxonalar deyiladi) uchun soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llash tartibini belgilaydi.

Soddalashtirilgan soliqning amal qilishi dasturiy vositalar ishlab chiqarishga, kompyuter texnikasi va dasturiy vositalarga servis xizmati ko'rsatishga, kompyuter texnikasida va axborot texnologiyalari bilan ishslashga o'qitishga ixtisoslashayotgan tashkilotlarga (xodimlar sonidan qat'i nazar) ham tatbiq etiladi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun soliqqa tortishning soddashtirilgan tizimi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida nazarda tutilgan amalagi soliqqa tortish tizimi bilan bir qatorda qo'llaniladi.

Soliqqa tortish tizimini tanlash huquqi ixtiyoriy ravishda mikrofirmalar va kichik korxonalarga mazkur tartibga muvofiq taqdim etiladi, soliq solishning alohida tartibi belgilangan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlarini amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno.

Soliqqa tortishning soddashtirilgan tizimi umum davlat soliqlari yig'indisi, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyyati organlari joriy etadigan, quyida ko'rsatilgan yig'implardan tashqari, mahalliy soliqlar va yig'implar o'miga yagona soliqning to'lanishini nazarda tutadi:

savdo-sotiq qilish huquqini bergenlik uchun yig'im, shu jumladan, tovarlarning alohida turlari bilan savdo-sotiq qilish huquqini bergenlik uchun litsenziya yig'implari;

yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'im;

avtotransportni qo'yanlik uchun yig'im.

Yagona soliqni to'lovchi bo'lgan korxonalar sotib olingan tovar qiymatida to'langan ko'shilgan qiymat solig'i summasini ishlab chiqarish xarajatlari (muomala chiqimlari)ga hisobdan chiqaradi.

Soliqqa tortishning soddashtirilgan tizimini ko'llaydigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun bojxona bojlari, qo'shilgan qiymat solig'i va import qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun aksiz solig'i, davlat poshlinalari, litsenziya yig'implari, budjetdan tashqari fondlarga ajratmalarni to'lashning amalagi tartibi saqlab qolinadi.

Soliqqa tortishning soddashtirilgan tizimiga o'tgan korxona umumiyligi belgilangan tartibda yoki soddashtirilgan shakli bo'yicha hisob yuritish huquqiga ega. Buxgalteriya hisobotlarining boshlanich hujjatlari va daromadlar hamda xarajatlarni hisobga olish daftari yuri tilishining soddashtirilgan shakli O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi va O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi.

2-§. Yagona soliqning soliq tizimiga tatbiq etilishi va amal qilish jarayoni

Korxonalar soliqqa tortishning soddashtirilgan tizimiga o'tishi uchun ular ro'yxatdan o'tgan joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yil choragi boshlanguniga qadar bir oy qolishidan kechiktirmasdan yozma ariza berishi zarur. Bunda yuqorida nazarda tutilgan shartlarga rioya qilinishi lozim.

Soliqqa tortishning soddashtirilgan tizimiga o'tishda korxonalarning bundan oldingi davr uchun o'sha davrda amal qilib turgan soliqqa tortish tizimi asosida soliqlarni to'lashga doir majburiyatlarini saqlab qolinadi.

Korxonaning soliqqa tortish soddashtirilgan tizimiga o'tishi haqidagi qaror yoki dalillangan raddiya davlat soliq xizmati organi tomonidan korxonaning ariza bergen kunidan boshlab o'n kun davomida chiqariladi.

Hisobni soddalashtirilgan shakl bo'yicha yuritishga o'tishga qaror qilgan korxona arizasi qondirilganidan so'ng davlat soliq xizmati organiga belgilangan shaklga ko'ra xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish daftarini ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi.

Davlat soliq xizmati organi xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish daftarining bиринчи sahifasida ariza imzolangan sanani qayd qiladi.

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish daftariга O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy hujjatlariga binoan belgilangan hisobot bilan muomala qilish qoidalari tegishli bo'ladi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llanishda, voz kechish va soliqqa tortishning belgilanmagan tizimiga qaytish navbatdagi taqvimiyl yil boshidan boshlab davlat soliq xizmati organiga tegishli arizani takvimiyl yil tugallanishiga 15 kun qolishidan kechiktirmasdan berilgani holda amalga oshirilishi mumkin.

Davlat soliq xizmati organining soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tishni rad qilish haqidagi qarori ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Yagona soliqni to'lashdan soliqqa tortishning bundan oldingi tizimiga o'tish yil davomida amalga oshirilmaydi.

3-§. Yagona soliq to'lovchilarining tarkibi va uning obyekti

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi qonunlarda belgilangan mezonlarga binoan mikrofirmalar va kichik korxonalariga kiradigan yuridik shaxslarga tegishli bo'ladi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi uchun faoliyat turi Macroqitsodiyot va statistika vazirligi belgilagan kod bo'yicha aniqlanadi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar xodimlari sonini belgilashda, shuningdek, pudrat shartnomasi va fuqarolik-huquqiy tusdagi boshqa shartnomalar bo'yicha ishlovchilar ham hisobga olinadi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llovchi va nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston Chernobilchilar» uyushmasining mulki bo'lgan, ishlovchilar umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mepnat fronti faxriyulari tashkil etgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lashdan ozod etiladi.

Mazkur imtiyoz savdo, vositachilik, ta'minotsotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarga joriy etilmaydi.

Bir necha faoliyat turlarini amalga oshiradigan yagona soliqni to'lovchilar faoliyatning har bir turi bo'yicha soliqqa tortish obyektining alohida hisobini yuritishi va muayyan faoliyat turining soliq solinadigan obyekti va unga muvofiq keladigan yagona soliq stavkasi asosida yagona soliqning hisob-kitobini amalga oshirishi kerak.

Aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarayotgan Mikrofirmalar va kichik korxonalar aksiz solig'ini O'zbekiston Respublikasining Soliq ko-

deksida belgilangan tartibda to'laganlari taqdirda soddalashtirilgan soliq solish tizimiga o'tishlari mumkin.

Quyidagilar yagona soliqqa tortish obyektlari (soliq solinadigan oborot) hisoblanadi:

savdo (xarid qilish, vositachilik, ulgurji-sotish, ta'minot) korxonalari uchun – yalpi daromad;

xarid qiluvchi, ta'minot-sotish korxonalari uchun yalpi tushum.

Bunda, qurilish, qurilish-montaj, tuzatish-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadiqot tashkilotlari uchun o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solish obyekti hisoblanadi.

Yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiradi:

– tovar (ish, xizmat)larni, mol-mulkni sotishdan olingan tushum summasi;

– sotilgan mol-mulk qiymati va boshqa aktivlar o'zi ishlab chiqargan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni erkin almashtiriladigan valutaga eksport qilishdan olingan tushum summalarini yalpi tushum tarkibiga kiritilmaydi. Mazkur koida savdo-vositachilik faoliyatini bilan shug'ullanayotgan yoxud xomashyo tovarlarni paxta tolasi, paxta kalavasi, lint, neft, neft mahsulatlari, rangli va kgora metallarni erkin almashtiriladigan valutaga eksport qilayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga joriy qilinmaydi

Yalpi daromad tarkibiga quyidagilar kiradi:

– tovarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rjasidagi farq;

– moliyaviy faoliyatdan daromadlar va O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq belgilanadigan boshqa daromadlar.

4-§. Yagona soliqning stavkalari, soliqni hisoblash muddatlari

Soliqni joriy etish afzalliklari. Yagona soliq to'lovchilar tomonidan mustaqil ravishda soliq solinadigan oborot va tasdiqlangan stavkalar asosida hisoblab chiqiladi.

Yagona soliq bo'yicha hisob-kitoblar davlat soliq xizmati organlariga yil choragilik va yillik hisobotlarni topshirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

Yagona soliq budgetga yilning har choragida o'sib boruvchi yakun bo'yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan to'lanadi.

Yagona soliq summasi mahalliy budgetga o'tkaziladi.

To'lovchilar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Yagona soliq to'lovchilari bo'ladi, korxonada ishlovchilar soni cheklangan me'yordan oshmagan yuridik shaxslar hisoblanadi. Bunga hamma sohalarda faoliyat ko'sratuvchi har xil mulk shaklidagi korxonalar kiradi. Demak, kichik korxona me'yori faqat ishlovchilar sonigagina qaratilib, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va daromad olish darajasi e'tiborga

olinnagan. Shu yerdan ko'nnib turibdiki, davlat ko'p mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlar, xizmatlar bajaruvchi kichik korxonalarini har tomonlama rag'batlantirishni muljallaydi. Faoliyat turi xilma-xil bo'ladi ham yagona soliq to'laydilar.

Yagona soliq to'lovchi korxonalar sotib olingen tovarlar va xomash-yolar tarkibida to'langan KKS summasini shu tovarlar va xomashyo tar-kibiga kiritadi (konsignatsion tovarlar bo'yicha davr xaratatiga olib boradi). Mahsulot yetkazuvchilarga ish va xizmat bilan birga to'langan KKS summasi shu ishlar, xizmatlar qiymatiga kiritiladi.

Yagona soliq to'lovchilar, bordiyu asosiy vostilar va nomoddiy aktiv-larini ijaraga bersalar, unda shu aktivlar qiymatidan mol-mulk solig'ini umumiy tartibda to'laydilar.

Korxonada ishlovchilar soniga shartnoma bo'yicha ishlovchilar, fuqaro-huquqiy shartnomalar bo'yicha ishlovchilar hamda yuridik shaxs maqomini olmagan filial va vakolatxonalarida ishlovchilar soni ham qo'shiladi.

Ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab, ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qaror qilgan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan joydag'i soliq inspeksiyasiga yozma ariza beradilar. Bu yerda ixchamlashtirilgan soliqqa o'tishga ruxsat olish kerak bo'lmaydi.

Korxonada ishlovchilar sonidan 50 %ni 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriyilari, invalitlar birlashmasi «Nuroniy» va O'zbekiston Chernobilchilar assatsiyatsiyasi multkida bo'lgan nogironlar tashkil etsa yagona soliq to'lashdan ozod etjladilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 13-no-yabrdagi 390-son qaroriga asosan mikrofirmalar va kichik korxonalar tushumi:

- iste'mol tovarlari ishlab chiqarishdan olinsa soliq stavkasi yigirma besh foiz kamaytiriladi;
- iste'mol tovarlari ishlab chiqarish fizik hajmi o'sish hisobiga olinsa yagona soliqdan ozod etjladi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan faoliyatning ayrim turlarini amalga oshinganlari taqdirda, soliqning qat'iy belgilangan summasini oldindan to'lab boradilar.

2007-yil uchun mikrofirmalar va kichik korxonalarga quyidagi yagona soliq stavkalari belgilangan

| Ko'rsatkichlar | Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish hajmiga nisbatan foizlarda |
|--|--|
| xarid, ta'minot-sotuv korxonalari, brokerlik firmalari | 33 (yalpi daromaddan) |

| | |
|--|----------------------|
| Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi, notariuslar | 50 |
| Gastrol-konsert bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, norezidentlarni jalb etish yo'li bilan ommaviy tomasha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi korxonalar | 30 |
| Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari | 6 |
| Iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi korxonalar | 10 |
| Loteriyalar, totalizatirlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etuvchi yuridik shaxslar | 30 % yalpi tushumdan |

1. Lizing kompaniyalari lizing beruvchining daromadiga (marjasiga) nisbatan foizda soliq to'laydilar.

Yagona soliq to'lashga o'tishni istagan korxonalar chorak boshlanishidan bir oy oldin ro'yxatdan o'tgan soliq idoralariга yozma ravishda ariza berishlari kerak.

Korxonalarni yagona soliqqa o'tkazish to'grisida yoki asoslangan tarzda uni rad etish to'g'risidagi qaror soliq idoralari tomonidan ariza berilgan kundan e'tiboran 15 kun ichida amalga oshiriladi. Yangi tuzilgan korxonalar uchun ruxsat olish talab etilmaydi.

Yagona soliqni hisoblash va budgetga to'lash tartibi

Kichik korxonalarning yagona solig'i yuridik shaxslar tomonidan har chorakda quyidagi oddiy shaklda tuziladi.

Masalan, 2006-yil I va II chorak soliq hisobi

| Ko'rskichilar | Yalpi tushum | |
|--|--------------|-----------|
| | I chorak | II chorak |
| Yalpi tushum jami (m.so'm) | 900 | 1400 |
| Yagona soliq stavkasi (%) | 12 | 12 |
| Yagona soliq summasi (m.so'm) | 108 | 164 |
| Ilgarigi davr uchun hisoblangan (m.so'm) | - | 108 |
| Qo'ushimcha hisoblandi | 108 | 56 |
| Kamaytirishga tegishli | - | - |

Mikrofirmalar va kichik korxonalarning yagona solig'i har chorakda choraklik moliyaviy hisobotlar topshirish uchun belgilangan muddatda to'lanadi. Bo'nak to'lovlar bo'lmaydi.

Soliq to'lovchilar yagona soliqni to'gri, to'liq hisoblash va budgetga o'tkazish javobgarligini soliq qonunchiligi bo'yicha oladilar.

• Yalpi daromadni yoki tushumni kamaytirish soliq obyektini yashirish (kamaytirish) deb qaraladi va tegishli moliyaviy jazolarga tortiladi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Yagona soliqqa o'tishning ahamiyatlari qanday?
2. Qanday korxonalar yagona soliq to'lashga o'tishlari mumkin?
3. Qanday korxonalar yagona soliq to'lovchilari bo'la oladi?
4. Soliqqa tortish obyekti nimalardan iborat?
5. Soliq stavkalarini kim belgilaydi, nimalarga bog'liq?
6. Soliq qaysi budjetga to'shadi?
7. Yagona soliqni hisoblash uchun qanday ko'rsatkichlar kerak?
8. Soliq qaysi davr uchun hisoblanadi?
9. Yagona soliq qaysi muddatda budjetga o'tkaziladi?

VII bob. JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADIGA SOLINADIGAN SOLIQNING MOHIYATI VA HISOBBLASH TARTIBI

1-§. Jismoniy shaxslardan daromad solig'ining mohiyati, soliq to'lovchilari va soliq solish obyekti

Fuqarolardan undiriladigan daromad solig'i-amalda Jahoning barcha mamlakatlarida ayniqa keng targalgan soliq turi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday olinadigan daromad, tekinga olingen narsa va soyda soliqqa tortilishi lozim. Hozirgi vaqtida mazkur soliq aholining deyarli hamma qatlamlarini qamrab oluvchi, eng yahshi ishlab chiqilgan va bar-qaror soliqdir.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarning daromadlari «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi»ga muvofiq soliqqa tortiladi.

«O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi»ga binoan moliya yili davrida O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilda boshlanadigan 12 oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatga O'zbekistonda yashagan jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasidagi shuningdek, bundan tashqaridagi faoliyat manbalaridan olingen daromadlari bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan jismoniy shaxslarning daromad solig'i summalar O'zbekiston Respublikasidagi soliqni to'lashda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq hisobga olinadi. Hisobga olinadigan summalar miqdori jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan stavkalar bo'yicha hisoblab chiqarilgan daromad solig'i summasidan oshmasligi lozim.

Daromad solig'i fuqarolar barcha toifalarining manfaatlari bilan bog'-liq bo'lib, soliqqa tortishning asosiy qoidalarining o'zida ayniqa to'la ifodalananadi.

Chunonchi, soliqqa tortish chog'ida ijtimoiy adolatni saqlash maqsadida amaldagi soliq qonunlarida istisno tariqasida bir qancha imtiozlar ko'zda to'tilgan. Xususan, ishsizlik nafaqasi (O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan hajmlarida), davlat ijtimoiy sug'urtasi davlat ijtimoiy ta'minotiga doir nafaqalar, alimentlar olyi o'quv yurtlari, o'rta maxsus va hunar-teknika o'quv yurtlari talabalaring stipendiyalari, hunar-teknika bilim yurtlari stipendiyalari, shuningdek, pensiya qo'shimcha to'langan pullar, fuqarolarning xususiy mulkini sotishdan tushgan summarlar, tabiiy ofatlar, boshqa favqulodda hodisalar munosabati bilan beriladi-

gan moddiy yordam summalarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatlarining qarorlari aso-sida shunday yordam ko'rsatilganda va boshqa xollarda to'lanadigan pullar daromad solishga tortilmaydi.

Bundan tashqari, soliqqa tortiladigan daromad fuqarolarga to'lanishi kerak bo'lgan, lekin ularning arizalariga ko'ra kerxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan xayriya hamda ekologiya fondlariga, shuningdek, qisman yoki to'la-to'kis budgetdan moliyalashtiruvchi madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy ta'minot korxonalarini, muassasalarini va tashkilotlariga o'tkaziladigan summa miqdorida kamaytiriladi.

2-§. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini aniqlash tartibi

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini soliqqa tortishda asosiy ish joyidan hamda asosiy bo'lmagan ish joyidan, yakka tartibdagagi tadbirkorlik faoliyatidi va boshqa daromadlari soliqqa tortiladi. Bunday daromadlarga quyidagilar kiradi:

- mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlar;
- jismoniy shaxslarning mulkiy daromadi;
- jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan kelgan yalpi daromadi.

Mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlarga jismoniy shaxslarning mehnat shartnomasi bo'yicha qilingan ishlardan va fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha olinadigan daromadlari kiradi. Mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

- xodimlarga sotiladigan tovar (ishlar, xizmatlar) qiymati bilan bunday tovarlarni (ishlar, xizmatlar) xarid qilish narxi yoki ularning tannarxi o'rtaqidagi manfiy farq;
- ish beruvchi tomonidan xodimlarning chiqimlarini qoplash uchun qilingan, ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar;
- xodim ish beruvchiga to'lashi kerak bo'lgan, ammo ish beruvchining qarori bilan hisobdan chiqarilgan qarz summalar;
- ish beruvchi o'z xodimlarning hayoti va sog'lig'ini ixtiyoriy sug'ortalash badallarini to'lash uchun qilgan xarajatlar;
- ish beruvchining jismoniy shaxsdan ushlab qolishi kerak bo'lgan to'lovlar yuzasidan to'langan summasi;
- ish beruvchining o'z xodimlarning bevosita yoki bilvosita daromadlarini tashkil etadigan boshqa xarajatlar.

Xodimlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilangan me'yorlar doirasida beriladigan xizmat safari to'lovlarining summalarini jami yillik daromadga kiritilmaydi.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadiga foizlar, dividendlar bo'yicha olinadigan daromad, mol-mulkni ijara berishdan keladigan daromad kiradi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromadiga tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan, daromad olish maq-

sadida tavakkal qilib, o'z mulkiy javobgarligi ostida yakka tartibda amalga oshiriladigan, qonun hujjatlarida tasdiqlangan boshqa faoliyatdan keladigan barcha tushumlar kirdi.

Jismoniy shaxslarning tadbirdorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromaddan soliq solinadigan daromadlarni aniqlash vaqtida mazkur yalpi daromadni olish (topish) uchun qilingan xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalar chegirib tashlanadi.

Jismoniy shaxslarning tadbirdorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromaddan chegirib tashlashi lozim bo'lgan xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalarini aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Jismoniy shaxslarning shaxsiy iste'mol bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari tadbirdorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromaddan chegirib tashlanmaydi.

3-§. Soliq stavkalari

Jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlari summalaridan soliq quyidagi miqdorda undiriladi (2007-yil 1-yanvardan boshlab).

| t/r | Soliq solinadigan daromad miqdori | Soliq summasi |
|-----|--|-----------------------------|
| 1. | Eng kam ish haqining 5 barobar miqdorigacha | Daromad summasining 13 % |
| 2. | Eng kam ish haqining 5 barobaridan 10 barobargacha | 18 % |
| 3. | Eng kam ish haqining 10 barobaridan ortiq summadan | 25 % |

Bunda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabrdagi «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni amalga oshirish choratadbirlari haqidagi 595-sonli qarori 2-bandiga ko'ra budjetga to'lanadigan, amalda stakalar bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamlariga yo'naltiriladigan majburiy har oylik badallar (xodimning hisoblangan ish haqi (daromad)ning 1 % miqdorida) summasiga kamaytiriladi.

Soliq solish maqsadlari uchun eng kam ish haqining miqdori yil boshidan e'tiboran ortib beruvchi yakun tarzida hisoblanadi (yil boshidan e'tiboran tegishli davr uchun eng kam ish haqining oylik miqdori sumasi).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zararli va og'ir sharoitli ishlarda band bo'lgan jismoniy shaxslarning ayrim toifalarini uchun, shuningdek, tabiiy iqlim sharoitlari yomon joylarda ishslash bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha to'lovlar bo'yicha imtiyozli daromad solig'i stavkalarini belgilashga haqli.

Jismoniy shaxslarga to'lanadigan dividendlar va foizlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan stavkalar bo'yicha to'lov manbasida soliq solinadi.

Norezident jismoniy shaxslarning doimiy muassasa bilan bog'liq bo'l-magan holda O'zbekiston Respublikasidagi manbada olingan daromadlarga ulami to'lash manbasida chegirmalarsiz quyidagi tartibdagi soliq stavkalari asosida soliq solinadi:

– dividend va foizlar – 15 %

– O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar o'tasida harakat qilishda xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar yoki transport xizmatlari (fraxtdan daromadlar) – 6 %

– roylati, ijaradan olingan daromadlar, xizmatlar ko'rsatish shu jumladan, boshqaruvi, maslahat xizmatlari ko'rsatishdan keladigan daromadlar va boshqa daromadlar, daromad solig'i solingen daromadlar (foyda) bunga kirmaydi – 20 %.

4-§. Jismoniy shaxslarni daromad solig'i bo'yicha imtiyozlari

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga binoan quyidagi jismoniy shaxslar daromad solig'idan ozod etiladi.

I. To'laligacha:

– xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarining boshliqlari va a'zolari hamda konsullik muasssalarning mansabдор shaxslari, ularning o'zлari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'imesi, O'zbekiston Respublikasidagi mansablaridan olinadigan diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'limgan daromadlari dan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

– xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarini va konsullik muasssalarning ma'muriy-texnik xodimlari va ularning o'zлari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasaga, – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'limgan daromadlardan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

– xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalariga, konsullik muasssalariiga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki – O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasaga, o'z xizmati yuzasidan olingan barcha daromadlari bo'yicha;

– hukumatga qarashli bo'limgan xalqaro tashkilotlarning mansabдор shaxslari, agar ular – O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, ushbu tashkilotlarda olgan daromadlar bo'yicha;

– xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarini va konsulning muassasalari xodimlarining uylarida ishllovchilar agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasaga, o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlar bo'yicha;

– mudofaa, ichki ishlar va favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari va bojxona organlarning oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga mansub shaxslar, shuningdek o'quv yoki sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar-xizmatni o'tash (xizmat vazifasini bajarish) munosabati bilan olgan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lov summalarini bo'yicha;

– gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar, gastrol-konsert faoliyatidan olingan daromadlar bo'yicha;

– prokuratura organlarning daraja unvonlariga ega bo'lgan hodimlar.

II. Har bir to'liq oy uchun eng kam ish haqining turt barobari miqdorida:

– «O'zbekiston Qahramoni», «Sovet Ittifoqi qahramoni», «Mehnat Qahramoni» unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar, urush nogironlati yoxud 1941-45-yillardagi urush davrida yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanish, kontuziya bo'lish yoki shikastlanish oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar jumlasidan bo'lgan boshqa nog'ironlar, sobiq partisanlar jumlasidan bo'lgan nogironlar, shuningdek, pensiya ta'minoti bo'yicha mazkur toifadagi harbiy xizmatchilarga tenglashtiriladigan boshqa nogironlar;

– xizmatni harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda o'tagan harbiy xizmatchilar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lib, fuqarolar urushi va 1941-45-yillardagi urush, sobiq SSSRni himoya qilish bo'yicha boshqa jangovor operatsiyalarning qatnashchilari, 1941-45-yillardagi urush davri mehnat frontining faxriylari va konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari;

– Leningrad qamali paytida 1941-yil 8-sentabrdan 1944-yil 27-yanvargacha bo'lgan davrda Leningrad shahrida ishlagan fugarolar;

– ichki ishlar organlarning boshliqlari va oddiy xizmatchilari jumlasidan bo'lib, xizmat vazifalarini bajarish chog'ida yaralanish, kontuziya bo'lish va shikastlanish oqibatida nogiron bo'lib qolganlar;

– bolalikdan nogiron bo'lib qolganlar, shuningdek, I va II guruh nogironlari;

– qahramon onalar, o'n va undan ortiq bolalari bo'lgan ayollar;

– sobiq SSSRni himoya qilish yoxud harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanish, kontuziya bo'lish yoxud shikastlanish oqibatida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va rafiqalari;

– xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovor harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar;

- Chernobil AESdagagi falokat oqibatida jabr ko'rgan shaxslar;
- ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'limgan bolalari bor yolg'iz onalar;
- ikki va undan ortiq bolasi bor va boquvchisining yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar;
- bolalikdan nogiron bo'lgan va doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onasidan biri;
- korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va o'quv yurtlari tomonidan qishloq xo'jaligi ishlariga yuborilgan fuqarolar – ushbu ishlarini bajarganganlik uchun olgan daromadlari bo'yicha. Bu imtiyozlarni olish uchun jismoniy shaxslar-ning imtiyozlariga bo'lgan huquqlarini hujjat orqali tasdiqlashlari lozim.

5-§. Daromad solig'ining hisoblab chiqarilishi

Soliq kodeksiga muvofiq, asosiy bo'limgan ish joyidan (O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek uning hududidan tashqaridagi manbalardan) daromad olgan rezident-jismoniy shaxs doimiy istiqomat joyidagi soliq organlariga hisobot yildan keyingi yilning 1-apreldidan kechiktirmay jami yillik daromad haqida deklaratsiya taqdim etadi. Tamom bo'lgan taqvimi yilda faqat asosiy ish (xizmat, o'qish) joyda mehnat vazifasini bajarishdan daromad olgan jismoniy shaxslar shu yil uchun olingan daromadlar haqida deklaratsiya taqdim etmaydilar. Chet elliq jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasiga kelgan kunidan e'tiboran bir oy mobaynida mo'l-jallangan daromadlar haqida deklaratsiya topshirildilar. Chet elliq jismoniy shaxslarning faoliyati taqvimi yil mobaynida to'xtagan va u O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketadigan bo'lsa, amalda olingan daromadlar haqida jo'nab ketishdan kamida bir oy oldin deklaratsiyani topshirishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs olingan daromadlar va qilingan xarajatlar to'g'risidagi deklaratsiyani belgilangan tartibda quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

- shunday daromadlar paydo bo'lgan kundan e'tiboran birinchi oy o'tgandan keyingi besh kun ichida;
- hisobot yildan keyingi yilning 15-yanvarigacha.

O'zbekiston Respublikasidagi jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati to'xtatilgan taqdirda soliq organi soliq to'lovchidan kamroq bo'l-gan davr uchun hisobotlar, soliq bo'yicha hisob-kitoblar hamda daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etishni yozma xabarnoma topshirish yo'li bilan talab qilishi mumkin bo'lib, xabarnomada buning sababi va hisobotlar, soliq bo'yicha hisob-kitoblar hamda jami yillik daromad va qilingan chegirmalar to'g'risidagi deklaratsiya qachon va qaysi davr uchun taqdim etilishi lozimligi ko'rsatiladi. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini to'xtatish haqida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan taqdirda soliq to'lovchi 5 kunlik muddatga bu haqida soliq organini yozma

ravishda xabardor qiladi. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini to'xtatish haqida qaror qabul qilingandan so'ng soliq to'lovchi 15 kun ichida soliq organiga hisobotlar, soliq bo'yicha hisob-kitoblar hamda daromadlar haqidagi deklaratsiyani taqqdim etishi shart. Hisobotlar, soliq bo'yicha hisob-kitoblar va daromadlar haqidagi deklaratsiyalar Qonun hujatlarida belgilangan shakl va tartibda topshirish shart.

Jismoniy shaxslar daromadlar to'lash manbayida soliqni ushlab qolishni:

– ishlaydigan jismoniy shaxslarga mehnat shartnomalari yoki fuqarolik huquqiy shartnomalar bo'yicha to'lovlarini amalga oshiruvchi;

– nodavlat pensiyalarini to'lovchi;

– jismoniy shaxsiarga dividend va foizlar to'lovchi amalga oshiradi.

Jismoniy shaxslar daromad solig'ini ushlab qolish va budgetga o'tkazish uchun daromad to'lovchi yuridik shaxs javobgardir va soliq summasi ushlab qolinadi. Mazkur yuridik shaxs soliq sunnmasi ushlab qolinmagan soliq summasini hamda u bilan bog'liq jarima va pensiyalarini budgetga to'lashi shart.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Jismoniy shaxslarning daromadining tarkibiga qanday daromadlar kiradi?
2. Jismoniy shaxslarni jami yillik daromadi qanday aniqlanadi?
3. Jismoniy shaxslarni soliq stavkalari qanday?
4. Jismoniy shaxslarga beriladigan imtiyozlarga nima kiradi?
5. Daromad solig'i qanday hisoblab chiqariladi?

VIII bob. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING MOHIYATI VA UNING TO'LOVCHILARI

1-§. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq tizimiga joriy qilinishi hamda iqtisodiy ahamiyati

Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar, ishlar va xizmatlar ustiga qo'yilganligi uchun egri soliqlar qatoriga kiradi. Bunday qaraganda uning to'lovchilari mahsulot ishlab chiqaruvchi, ish va xizmatlarni bajaruvchi korxona, tashkilot, birlashmadek tuyuladi. Ana shu korxonalar soliqni huquqiy to'lovchilari bo'ladilar. Soliq idoralar soliqni o'z vaqtida va to'liq byudjetga o'tkazishni ulardan talab qiladilar. Aslida esa mazkur korxona, tashkilot va birlashmalar qo'shilgan qiymat solig'ini mahsulot, ish, xizmatni sotib oluvchi korxona, tashkilot va birlashmalar sotib olgan mahsulot, ish, xizmat ustiga qo'yib yuboradilar. Demak, soliqni haqiqiy to'lovchilari shu mahsulot, ish va xizmatni iste'mol qiluvchi korxonalaridir. Ularning oxirgi qiymati chakana savdo orqali aholiga yetib boradi va oxirgi iste'molchilar bo'ladi.

Amaliyotda O'zbekiston Respublikasining soliqlar haqidagi qonunlariga binoan, hisobot davri (oyi) uchun realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun hisoblab chiqarilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi bilan qiymati ishlab chiqarish va muomala xarajatlari (masalan, materiallar, xomashyo, butlovchi buyumlar, yoqilg'ini yetkazib bergan ta'minotchilarga to'langan haq)ga qo'shiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rtaqidagi farq sifatida hisoblab chiqariladi.

Bu umumiy tartib mazkur soliqning qo'shilgan qiymatga solinadigan soliq sifatidagi mohiyatini ochib beradi. Bu o'rinda korxona bir vaqtning o'zida ta'minotchiga soliq to'lovchi sifatida ham, tovarlarni sotib oluvchi, ishlar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilardan soliq oluvchi sifatida ham maydonga chiqadi.

Bunday ahvolda tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetishmovchiligi yoxud ularga talab oshgan sharoitlarda, QQS korxonaning moliyaviy natijasi (foy-dasi)ga nisbatan haqiqatdan neytral soliqqa ham, mulkchilik shakllaridan va xo'jaliklarning tarmoqidan qat'iy nazar, barcha korxonalar va birlashmalar tomonidan to'lanadigan universal soliqqa ham aylanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bilvosita ko'p bosqichli soliq bo'ladi, ishlab chiqarish va taqsimlash siklidan boshlanib, iste'molchiga sotilishgacha bo'lgan har bir aktdan undiriladi. Uning obyekti bo'ladi, ushbu jarayonlarda qo'shilgan qiymat hisoblanadi ya'ni, mahsulot ishlab chiqaruvchi,

ishlarmi bajaruvchi va xizmatlami ko'rsatuvchi tomonidan yangidan mahsulot ishlab chiqarish uchun yoki ishlari va xizmatlarni amalga oshirish uchun sotib olingan xomashyo, materiallar yoki tovarlar va mahsulotlar ustiga qo'shilgan qiymatdir. Ushbu soliq tovarlar, ishlari va xizmatlar narxining barcha elementlarini cheklaydi hamda ishlab chiqaruvchining ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishga undaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i hisobotlari asosida davlat sanoat va savdo kapitalining aylanishi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi va bu makro-darajada tartibga solishni yengillashtiradi. Bundan tashqari, davlat tovarlar hali haqiqiy va oxirgi iste'molchi hisoblangan hamda soliqning haqiqiy to'lovchisi bo'lmish aholiga sotilishidan oldin daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Jahon amaliyoti qo'shilgan qiymat solig'inu hisoblashning deyarli bir xil tizimiga ega. Soliq to'lovchi sotilgan mahsulot, bajarilgan ishlari va ko'rsatilgan xizmatlari uchun xaridorlardan olingan soliq bilan ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlari va xizmatlarni amalga oshirish uchun to'langan soliq summasi orasidagi farkni budgetga to'laydi. Agarda xaridorlardan olingan soliq summasidan chegirib tashlanadigan mahsulot, ishlari va xizmatlarni yetkazib beruvchiga to'langan soliq summasi olingan soliq summasidan ortiq bo'ladi, u holda manfiy qoldiq keyingi davr soliq to'lovlarini hisobiga o'tkaziladi, yoki rivojlangan davlatlarda qo'llanilish kelina yotganidek, soliq to'lovchiga qaytarib beriladi.

Soliqlarni qismlarga ajratib undirishga imkoniyat beradi, chunki soliqqa tortish miqyosiga firmalarning barcha sotuvlari kiradi, ammo oraliq sotib olishlarda to'langan soliq summasi kelgusida jami summadan chiqarib tashlanadi. «Soliq krediti» nomi bilan atalgan ushbu usul soliq tizimiga o'zini o'zi tartibga solish elementini kiritadi va soliqlarni undirilishi yuzasidan tartibni yaxshilaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining asosiy ustunligi shundaki, ishlab chiqarishning har bir bo'g'inida to'langan soliqning hajmini aniqlash mumkin. Bu esa, masalan, eksportga berilgan chegirmalarni aniq hisoblashga yordam beradi va eksport subsidiyalari berilgan vaqtidagi qonun buzilishlarning oldini oladi.

Budjetni muvofiqlashtirish muammolari bozor iqtisodiyotga asoslangan iqtisod uchun davlat tomonidan bozor iqtisodini tartibga solishda juda muhimdir. Ushbu muammolar orasida soliqlar yordamida qoplanib turiladigan budjetning daromad qismini shakllantirish alohida o'rning ega. Bunda ko'pgina mamlakatlarda asosiy o'r'in bilvosita soliqlarga qaratiladi. Xalqaro amaliyotga asosan bu soliqlar ga iste'moldan soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, savdo va oborotdan olinadigan soliqlar), aksizlar va bojxonalar to'lovlarini kiradi.

O'zbekiston Respublikasida bilvosita soliqlar davlat budjeti daromadlarining deyarli yarmini tashkil qiladi. Bundan tashqari, ushbu soliqlar narxining asosiy qismini tashkil qila turib, mamlakat ichidagi ishlab chiqarish va iste'molga hamda xalqaro savdoda yetarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, qo'shilgan qiymat solig'ining asosiy imkoniyatlari va turli mamlakatlarda ularning ishlatalishining tahlili O'zbekiston uchun katta ahamiyatga egadir.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlarda iqtisodiy o'sish darajasiga bog'liq holda soliqlarning bevosita va bilvosita soliqlarga bo'linishi o'rtaida aniq bog'liqlik ko'zga tashlanadi. Davlatning va undagi aholining iqtisodiy rivojlanishining pastligi asosan har bir aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YALM bilan o'chanadi hamda bu hol jismoniy va yuridik shaxslar daromadlaridan olinadigan to'g'ri soliqlar hajmining pastligiga olib keladi. Shu sababli, ko'pgina endigina rivojlanayorgan davlatlarda soliqqa tortishda bilvosita soliqlar asosiy o'rinni egallaydi. Rivojlanishning eng past ko'rsatkichlariga ega bo'lgan davlatlarda bilvosita soliqlarning barcha soliqlar tushumi orasidagi o'mi 68 %ni, to'g'ri soliqlar esa atigi 32 %ni tashkil qiladi. Rivojlangan davlatlarda esa, buning aksi, ya'ni 32 %ni to'g'ri soliqlar, 68 %ni esa egri soliqlarni tashkil qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bilvosita soliqlarning ahamiyati va kerak bo'lganda ularning rolini oshishi muqarrarligini inkor qilmagan holda, quyidagi hollarga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi.

Bilvosita soliqlarning yangisini kiritish yoki mavjudlarining soliq stavkalarini oshirishda ularning ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta'sirini o'rangan holda amalga oshirish lozim. Ushbu xollarda bu salbiy holatlarni oldini olish uchun barcha choralarни amalga oshirish kerak, hattoki, bilvosita soliqlar, ayniqsa, salbiy holati iste'molni juda tez qisqarishiga olib kelib, ishlab chiqaruvchilarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi QQSni qisqartirish choralarini ko'rish lozim.

Bunday xollarda ba'zi etaplarda bilvosita soliqlarning o'mini oshirishga majbur bo'lgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlarning amaliyotini ham hisobga olish zarur. Bu amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilvosita soliqlarning rolini, soliq solish bazasini, soliq stavkasini oshirish faqatgina ushbu choralar natijasida olingan qo'shimcha mablag'larni soliq sohasidagi aniq bir o'zgarishlar uchungina ishlataliganda uzoq muddatli yaxshi natijalar berishi mumkin. Bunday choralar sifatida foyda solig'ini kamaytirishni taklif qilish mumkin.

QQS ko'pgina mamlakatlarda davlat daromadining 12–30 %gacha qismini ta'minlab beradi va bu YaMMNing 5–10 %ga tengdir. Ushbu soliq soliq tushumlari orasidagi ishonarli manbadir va bu ayniqsa daromadlar (foyda) cheklangan mamlakatlar uchun tegishlidir.

O'zbekistonda 1992-yildan beri qo'llanilib kelinayotgan QQS (aksiz soliqlari bilan birgalikda) oldin amal qilib kelgan bilvosita soliqlar – savdo va oborotdan olinadigan soliqlarning o'mini to'liq almashtirdi. Ammo QQS o'zining o'mi bo'yicha byudjetning daromad qismini shakllantirishda, respublika va korxonalar iqtisodiga ta'siri, narxlar proporsiyasini aniqlashda ulardan o'tib ketdi.

QQS qo'llanilib boshlangan vaqtidan hozirgi kungacha bo'lgan davrda O'zbekiston davlati budgetining asosiy manbalaridan biri bo'ladi qoldi.

O'tgan davrlar ichida QQS stavkasi 1992-yilda amal qilgan 30 %dan 1997-yilga kelib 18 %gacha tushirildi va 1998-yildan boshlab 20 % qilib belgilanib, ushbu stavka bugungi kungacha saqlanib qolindi.

Soliqning ushbu stavkasi deyarli barcha MDH davlatlarda amal qilib keladi va bu davlatlararo savdoda amalga oshirishda ancha samarali hisoblanadi. Bundan tashqari, soliqning ushbu stavkasida davlat budgetining daromad qismi 30 %ligcha saqlanib qoladi va bu bozor iqtisodiga mo'ljalangan davlatlardagi ushbu manbadan keladigan tushumlar hajmi bilan mos keladi. Soliqning bu stavkasi yiliga 1–2 %dan kamayib borayotgan foyda solig'i stavkasining pasayishi natijasida olinmay qolinayotgan budget daromadi o'mini qoplash imkoniyatini beradi.

2-§. Qo'shilgan qiymat solig'iining shakllanish va rivojlanish bosqichlari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan vaqtidan unchalik ko'p vaqt o'tmagan bo'ladida, bugungi kunda davlatimiz har qanday mustaqil davlatning asosiy xarakteristikasi sifatida o'zining soliq tizimiga, soliq regulatorlariga ega. Mamlakatimizning yangi qomusi qabul qilinishida davlatimiz rahbari so'zlagan nutqida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida soliqlarning principial o'mi aniqlanib berildi va quyidagilarni aytib o'tdi: – «Endigina Respublikamizda shakllanayotgan soliq tizimi o'ziga juda katta jalbni va uni takomillashtirishni talab qildi. Barchamizga ayonki, soliqlar – bu davlat va mahalliy budgetlarning daromad qismini to'ldirilishida asosiy manba hisoblanadi. Shu bilan birga, soliqlar barcha xo'jalik faoliyatlarini qamrab olmoqda, ular har bir tarmoq, korxona uchun alohida xususiyatlarni hisobga olishi lozim».

Bizning fikrimizcha, shuni to'liq his qilish kerakki, rejali ravishda soliqlarning oshib borishi davlatga va jamiyatga foyda keltirmaydi. Bundan tashqari, soliqlar daromadlarning bir qismini o'z ichiga olmoqda, ular hamma sharoitda xalq xo'jaligi va aholi uchun yanada ko'p va yanada yaxshiroq mahsulotlar va tovarlar ishlab chiqarishga harakat qilayotgan korxonalar va fuqarolarni rag'batlantirishi lozim.

Soliq to'g'risidagi qonunlar takomillashgan sari budget tushumlarini to'ldirish vositasi sifatida umumiyo iste'molga doir qo'shilgan qiymat solig'inining ahamiyati ortib borishiga shubha yo'q. Davlat byudjetining daromad qismini qo'shilgan qiymat solig'i bilan to'ldirish g'oyasi XX asr boshiarida paydo bo'lgan edi. Ushbu soliq birinchi marta Germaniyada 1919-yilda Vilgel'm fon Simens tomonidan «Veredelte Umsazteuer» (облогороженный налог с оборота) nomi bilan kiritilgan edi. Keyinchalik ushbu soliq birincha marta 1954-yilda fransuz iqtisodchisi M.Lore tomonidan qo'shilgan qiymat solig'i sifatida taklif qilingan bo'ladi, bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'pgina davlatlarda muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda. Masalan, Sharkiy Yevropa mamlakatlari (Germaniya, Daniya, Niderlandiya, Fransiya, Shvetsariya)da 60-yillarning oxirida, (Belgiya,

Velikobritaniya, Italiya, Lyuksemburg, Norvegiyada) 70-yillarning boshlarida QQS joriy etilgan va hozirgi kungacha amal qilib kelinmoqda hamda u asosiy iste'mol solig'i hisoblanib kelinmoqda. QQS Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi 35 dan ortiq davlatlarda joriy etilgan va undirilib kelinmoqda. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga (MDH) kirgan barcha davlatlarda 1992-yildan boshlab QQS joriy etilgan.

Qo'shilgan qiymat solig'i Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlarda joriy etilgan Avstraliya va AQSH bundan mustasnodir. QQSni chiqarib tashlash usulidan foydalaniладиган Япониядан ташқари мазкур мamlakatlarning hammasi QQS kredit hisob-kitobi usulidan foydalanadi. Bu usul korxona – shaxslardan ta'minotning barcha bo'g'lnlari bo'yicha soliqqa tortiladigan xomashyo va materiallarning barcha turlari uchun tegishli stavka bo'yicha QQS hisobini yuritishni talab qiladi. Soliq to'lovchilar xomashyo va materiallar yetkazib beruvchilardan olinadigan QQS miqdori kreditdan chiqarib tashlanishiga haqlidir. Buning tasdiq'i sifatida bunday xomashyo va materiallarga ma'lum talablarga mos keladigan soliq hisob-kitobi yoziladi. IHTTga a'zo bo'lgan mamlakatlarning deyarli hammasida yillik aylanmaning eng yuqori miqdori (soliq busayosi) belgilab qo'yilgan va shu tufayli ular QQS bo'yicha ro'yxatdan o'tmaslikka haqlidir.

1960-yillarning o'talariga qadar deyarli biror mamlakat ham hozirgi shakldagiga o'xshash qo'shilgan qiymat solig'idan foydalangan emas. U davrda IHTTda ishlab chiqarish va taqsimot bo'g'lnlarining aniq bosqichida, keyinchalik boshqa hech qanday soliq solinmaydigan bir bosqichli soliq keng iste'mol solig'ining oddiy turi edi. Odatda, ulgurji yoki chakana savdoga bunday soliq solinardi. Xaridordan qat'iy nazar va iste'mol omiliga soliq krediti bermagan holda tovarmi har qanday sotishdan soliq undirishni o'z ichiga oladigan ko'p bosqichli soliqdan ham foydalanilgan. Ya'ni tovar narxiga qo'shilgan soliq miqdori ishlab chiqarish bilan oxirgi chakana savdo o'tasidagi ko'p bosqichlar orqali ko'tarilib borishi lozim edi. 1967-yilda bosqichli soliq to'qqiz mamlakatda mavjud edi.

QQS tizimi ikki bosqichda joriy etildi; avvalo, Shimoliy Yevropa mamlakatlarining ko'pchiligidagi va Yevropa Ittifoqiga eng birinchi kirgan mamlakatlarda qo'llanilgan, so'ngra 1986-yilda IHTT mamlakatlarda umumiyligi soliq islohotlarining amalga oshirilishi QQSning Yevropadan tash-qarida ham tarqalishiga olib keldi. Natijada, IHTTga a'zo bo'lgan 25 mamlakatdan 23 tasida QQS juda qisqa muddatda joriy etildiki, bu o'zarobog'liq bo'lgan bir qancha ta'sir va sabablarning in'ikosi edi. Shunday sabablardan biri, masalan, QQS ishlab chiqarish va iste'molni kamroq darajada o'zgartirib, narx-navoga ancha xolis ta'sir o'tkazishidir. Bundan tashqari, u mahsulot yetkazib beruvchilar orqali kuzatib turish imkoniyati bo'lgani uchun aldash imkoniyatlarini kamaytiradi. Bu esa QQSning ancha yuqori stavkalarini belgilashga, binobarin iste'molga umumlashtirilgan soliqlarning boshqa turlariga nisbatan ko'proq daromad olishga imkon beradi. QQSning faktura usulidan foydalanib, ma'lum tovarlardan yig'ilgan

QQS miqdorini aniq bilish imkonini berishi ham juda muhimdir. Bu usul bojxona orqali tartibga solishga yanada aniqroq tus beradi. Ayni shu maqsadda Yevropa Ittifoqi (YEI)ga kirish istagini bildirgan mamlakatlarda QQSni joriy etish zarurdir.

QQSga o'tish bosqichli turdag'i soliqdan va ulgurji savdo solig'idan voz kechishga asosiy sabab bo'ldi. Chakana savdo solig'iga kelganda esa, QQS bilan bir qatorda u boshqa keng iste'mol soliqlariga nisbatan bir qancha afzalliklarga egadir. Qo'shma Shtatlarda u QQSni joriy etish xususidagi tazyiqni kamaytirib yetarli ijobiy ta'sir qiladi. Aslini olganda chakana savdo solig'i to'xtatib turuvchi tizimdir, chunki mahsulot ishlab chiqaruvchilar, ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanuvchilar ro'y-xatdan o'tishi va tovarlarni ro'yxatdan o'tmag'an shaxslarga, ya'ni odatda, iste'molchilarga sotishdan soliq tulash uchun hisobga olinishlari shart bo'ladi. Ammo tovar shaxsiy foydalanishi uchun xarid qilinmayotgan bo'ladi, tovarlarni bir-birlariga sotishlari va sotib olishlari va bundan soliq to'lamasliklari mumkin. Binobarin, soliq to'lash ro'yxatga olingan savdogarlar tomonidan tovar iste'molchiga sotilgunga qadar to'xtatiladi. QQSning faktura usuli esa, aksincha, soliq miqdorini qoplash tizimi bo'yicha amal qiladi, bunda sotish uchun tovar xarid qiluvchilarning hammasi o'zi xarid qilgan tovar uchun soliq to'lashga majbur bo'ladi. Biroq ular ro'yxatdan o'tgan bo'ladi (asosan, barcha savdogarlar belgilangan aylanmadan oshirib yuborishadi), bu holda QQSni qaytarib berishni talab qilishlari mumkin.

QoS va chakana savdo solig'i stavkalari va soliqqa tortiladigan baza baravar bo'ladi, ularning tovarlar narxiga ta'siri ham bir xil bo'ladi. Bu ikki soliq o'tasida muhim iqtisodiy tafovut yo'q. Lekin QQSning chakana savdo solig'iga karaganda ma'muriy jihatdan ikki afzalligi borligi aniklangan. Birinchidan, QQSda tovar solig'ini uni ishlab chiqaruvchiga o'tkazish oson kechadi, ikkinchidan, faktura bazasidagi QoS chakana savdo solig'iga qaraganda, soliq to'lashdan bo'yin tov lashdan ishonchliroq himoya qilishni ta'minlaydi.

Birinchi afzalligini ko'rib chiqaylik. Pirovard iste'molchilarga ham, oraliqdagi korxonalarga ham sotiladigan tovarlar, ishlar va xizmatlar nisbatan QQSga osonroq moslashadi. Ishlab chiqaruvchi bunday tovarlarni sotib olayotganda to'langan har qanday soliqning o'mini qoplashga harakat qiladi, chakana savdo solig'ida esa, soliq o'mini qoplash og'irligi, agar soliq idoralari tijoratchi deklaratsiyasidan qonikmasa, shu idoralar zimmasinga tushadi. Bundan tashqari, chakana savdo solig'ida tovardan so'nggi marta foydalanishni tekshirish mahsulot yetkazib beruvchining zimmasinga tushadi, tovar yetkazib beruvchi esa xaridor maqomini bilmaydi, demak, pirovard foydalanuvchini ham bilmaydi. QQSda esa buni biladigan xaridor tekshiriladi.

QQSni to'lash chog'ida tovardan pirovardida qanday foydalanishini tekshirishga zarurat bo'limganligi sababli mahsulot ishlab chiqaruvchining binokorlik materiallari, yonilg'i va energiya hamda shu kabi tovarlarni

oldin ular to'lab kelgan soliqlardan ozod qilish oson bo'ladi. Mahsulot yetkazib beruvchi chakana savdo solig'ini to'layotganda tovardan shaxsiy yoki tijorat maqsadlarida foydalanishiga ishonch hosil qilishi kerak.

QQS tovar yoki xizmat nimaga mo'ljallanganidan qat'i nazar to'la-naveradi, xaridor esa QQSni qaytarib olish uchun soliq idoralariiga bunga haqli ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi lozim. QQSning bu afzalligi ko'pincha shaxsiy foydalanish uchun, biznesda yoki eksport uchun darhol foydalanish maqsadida ko'rsatiladigan xizmatlarga soliq solish chog'ida, ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchisi afzalligi quyidagi qoidalar bilan mustahkamlanadi:

a) QQSdan bo'yin tov lash oson emas, chunki hisob-varaqlarga qarab tovar harakatini aniqlash oson, nega deganda sotuvchi o'z xarajatlarni qoplash maqsadida soliq qaytarib berilishi uchun buni tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi kerak. Chakana savdo solig'ida mumkin bo'lmagan tovar harakatini bunday qo'zg'atish soliq inspektorlariga muqobil tekshirish uchun QQS hujjatlaridan daromad solig'ini tekshirishda foydalanish imkonini beradi;

b) QQS qo'llanilishi narxni soxtalashtirish maqsadida xaridor bilan sotuvchi o'rtaida til biriktilish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi, chunki agar xaridor soliq xususida ko'proq chegirmaga ega bo'lish uchun hisobvaraqa narx yuqori darajada ko'rsatilishidan manfaatdor bo'ladi, sotuvchi o'z soliq majburiyatini kamaytirish uchun narx mumkin qadar arzon ko'rsatilishidan, demak, kamroq soliq to'lashdan manfaatdordir;

d) chakana savdo solig'i kam to'langanini isbotlovchi dalillarni ko'r-satish majburiyati soliq idoralari zimmasiga yuklatilgan bo'ladi, xaridorning xarajatlari bo'yicha QQS yuzasidan soliq chegirmsiga ega bo'lish uchun dalillarni taqdim etish majburiyati soliq to'lovchining zimmasiga tushadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining bunchalik tez va keng tarqalishi zamонави texnika va yo'lga quylgan hujjatlar aylanishida soliq operatsiyalarini tez va aniq amalga oshirish imkonini berishi muayyan tovarlar va xizmatlarga soliq solishning imtiyozi shartlari borasida chakana savdodagi sotuvlardan olinadigan soliqqa nisbatan samaralirok ekanligi bilan izohlanadi.

QQS – ishlab chiqarish va taqsimlashdan tortib iste'molchiga sotish-gacha bo'lgan jarayonda har bir sotish hujjatidan olinadigan bilvosita ko'p pog'onali soliq. Uning obyekti qo'shilgan qiymat, ya'ni tovarlar ishlab chiqaruvchi yoki xizmatlar bajaruvchi tomonidan yangi buyum yoki xizmatni bajarish uchun sotib olingan xomashyo, materiallar yoki tovarlar va mahsulotlar qiymatiga qo'shilgan qiymat hisoblanadi. Ushbu soliq tovar narxining barcha unsurlarini cheklaydi va ishlab chiqaruvchini ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirishga undaydi.

QQS bo'yicha hisob-kitoblar jarayonida davlat sanoat va savdo sarmoyasi aylanishi sur'atlari haqida ma'lumot oladi, bu esa makroiqtisodiy tartibga solinishini yengillashtiradi. Bundan tashqari, davlat tovarning aholi – soliqning mazkur turining yagona va oxirgi to'lovchisiga sotilishiga qadar daromad olish imkoniga ega bo'ladi.

Jahon amaliyoti QQSni hisoblashning deyarli bir xil tizimini nazarda tutadi. To'lovchi xaridordan sotilgan tovarlar, bajarilgan ishlari, ko'rsatilgan xizmatlar uchun soliq summasi va yetkazib beruvchi tomonidan moddiy resurslar, yoqilg'i, ishlari uchun to'langan va ular qiymati ishlab chiqarish va aylanma xarajatlarga kiritilgan soliq summasi orasidagi farkni to'laydi. To'lanishi kerak bo'lgan soliq manfiy bo'ladi, ya'ni bu soliq ko'payib ketsa, qoldiq bo'lajak to'lovlar hisobiga kiritiladi yoki rivojlangan mam-lakatlarda, shu jumladan, Buyuk Britaniyada qabul qilinganidek, budgetdan boshqa summalar hisobiga qoplanadi.

QQSga asoslangan soliq to'lash tizimi soliqlarni qismlarga ajratib olish imkonini beradi, chunki firmaning barcha sotuvlardan soliq olinadi, biroq oraliqdagi xaridlar uchun to'langan soliqlar keyinchalik umumiylar summadan qoplanadi. «Soliq krediti» sifatida tanish bo'lgan bu usul soliq tizimiga o'zini-o'zi tartibga solish imkonini beradi, bu esa soliqlar olish tartibini yaxshilaydi.

QQSning asosiy afzalligi shundaki, ishlab chiqarishning har bir bosqichida to'langan soliq miqdorini hisoblash mumkin. Bu misol uchun, eksport uchun soliq chegirmalarini hisoblash va eksport subsidiyalari berilishida buzilishlarning oldini olish imkonini beradi. Bundan tashqari, bunday ko'p bosqichli soliqlardan foydalanish yagona firma tuzilmasi yoki korxonalar uyushmasi doirasida tovarlar ishlab chiqarishda soliq summasini kamaytiradi va shu tariqa firmalaming vertikal integratsiyasiga turki bo'ladi.

3-§. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar va nol darajali stavka bo'yicha soliq solish

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilish. Qo'shilgan qiymat solig'i-dan quyidagilar ozod qilinadi:

1. Sug'urta bo'yicha vositachilar va agentlar amalga oshiradigan sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish operatsiyalari, shu jumladan, bunday operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar.
2. Ssudalar berish va o'tkazish.
3. Pul omonatlari, joriy hisob varaqalar, to'lovlar, o'tkazmalar cheklari va boshqa qimmatli qog'ozlarga daxldor operatsiyalar.
4. Qonuniy to'lov vositasi bo'lgan chet el valutasi va pullar muomalasiga daxldor operatsiyalar, numizmatika maqsadlarga foydalilanildiganlari bundan mustasno.
5. Qimmatli qog'ozlar muomalasiga daxldor operatsiyalar. Ularni tayyorlash va saqlash operatsiyalari bundan mustasno.
6. Maxsus vakil qilingan organlar tomonidan bajariladigan va davlat boji, yig'imlar undiriladigan harakatlar.
7. Bolalami maktabgacha tarbiya muassasalarida boqishga, bermorlar va qariyalarni parvarish qilishga doir xizmatlar.
8. Dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari.

9. Intellektual multk obyektlariga bo'lgan huquqlarni olganlik uchun patent bojlari, ro'yxatga olish yig'imiylari va litsenziya to'lovlari.
10. Protez-ortepediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarish va nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalarining mahsulotlari, davolash muassasalari huzuridagi davolash ishlab chiqarish ustaxonalarining mahsulotlari.
11. Pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlardan tashqari), markali otkritkalar va konvertlar sotish.
12. Aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to'lash bo'yicha xizmatlari.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ilmiy texnika taraqqiyotining muvosiflashtirish kengashi qoshidagi fan va texnikalar Markazining ilmiy texnika dasturlari doirasidagi davlat shartnomalari asosida bajarilgan ilmiy-tadqiqot innovatsiya ishlari.
14. Shahar yo'lovchilar transporti xizmatlari (taksi, shu jumladan, yo'nalishi taksidan tashqari) shuningdek, umumiy foydalanishdagi temir yo'l va avtomobil transportida (taksi, shu jumladan, yo'nalishdagi yo'lovchilar tashish xizmatlari).
15. Xalq ta'limi sohasidagi o'quv ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq xizmatlar, shuningdek Oliy va O'rta maxsus o'quv yurtlaridagi ta'lim uchun haq.
16. Saqlab turish bo'yicha vakolatli davlat organlariga qimmatbaho metallarni realizatsiya qilish oborotlari.
17. Diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o'tkazishga doir xizmatlar.
18. Tibbiy, sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish, turistikeks-kursiya xizmatlari, jismoniy tarbiya va sport muassasalarining asosiy (soha) faoliyati bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlari, bolalar dam olish lagerlarining xizmatlari.
19. Xususiy lashtirilayotgan davlat mulkining qiymati.
20. Gidrometeorologiya va aerologiya ishlari.
21. Geologiya va topografiya ishlari.
22. Nashiriyotlarning, gazeta va jurnallar tahririylarining, matbaa va kitob savdosi korxonalarining, O'zbekiston Teleradiokompaniyasining O'zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatiga doir mahsulotlari va xizmatlari.
23. Vakolatli davlat tashkilotlari o'tkazadigan ekologiya ekspertizasi xizmatlari.
24. Davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o'rgatish xizmatlari.
25. Nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va O'zbekiston chernobilchilar assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovcilari umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar tashkil etuvchi yuridik shaxslar ishlab chiqarayotgan tovarlar, bajarayotgan ishlari va ko'rsatayotgan xizmatlar (savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan bog'liq ishlari va xizmatlar bunda mustasno).

26. Ichki ishlar organlari huzuridagi soqchilik bo'linmalarining xizmatlari.
 27. Faoliyatining gastrol-konsert turi bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan yurildik shaxslarning gastro-konsert faoliyati.
 28. Kitob mahsulotlarini, maktab o'quv ashyolari va ko'rgazmali qurollarini, dori-darmon vositalari va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish.
 29. Mol-mulkni lizingga bergenlik uchun lizing to'lovlan.
- Faoliyatining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) import qilishga doir qismi bo'yicha quyidagilar qo'shimcha qiymat solig'ida ozod qilinadi.
1. Tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjalari bilan tasdiqlangan normalari doirasidagi jismoniy shaxslar tomonidan import qilinadigan tovarlar.
 2. Tabiiy ofatlar, qurolli mojarolar, baxtsiz hodisalar yoki falokatlar yuz berganda yordam ko'rsatish uchun insonparvarlik yordami va beg'araz texnik ko'mak sifatida O'zbekiston Respublika hududiga olib kirilayotgan tovarlar, shuningdek, davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya maqsadida olib kirilayotgan tovarlar.
 3. O'zbekiston Respublika tuzgan shartnomalar (bitimlar) bo'yicha xalqaro va hukumatga qarashli bo'lgan chet el moliyaviy va iqtisodiylashuvlari bengan qarzlar va grantlar hisobiga O'zbekiston Respublika yuridik shaxslari, shu jumladan, norezendlari tomonidan olib kirilayotgan asbob-uskunalar, materiallar (ishlar va xizmatlar).
 4. Import bo'yicha keltirilayotgan dori-darmon vositalari va tibbiy buyumlar.
 5. O'zbekiston Respublikasi hududiga:
 - chet el kreditlari hisobidan hukumat kafolati ostida moliyalashtiriladigan investitsiya loyihamini amalga oshirish uchun olib kirilayotgan texnologik jihozlar;
 - xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashayotgan yangi qurilayotgan va qayta qurilayotgan korxonalar uchun olib kirilayotgan texnologik jihozlar;
 - chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining ustav kapitaliga chet elliq investorlar tomonidan ulush sifatida olib kirilayotgan texnologik jihozlar.
 - vakolatli bankning tegishli tasdig'i bo'lgan taqdirda, belgilangan tartibda tasdiqlangan loyihalarga muvofiq yangi ishlab chiqarishlarni barpo etish, shuningdek, ishlab turgan ishlab chiqarishlarni zamonaviylashtirish va texnik jihatdan qayta jihozlash uchun olib kirilayotgan texnologik jihozlar.
 - vakolatli bankning tegishli tasdig'i bo'lgan taqdirda, lizingga topshirish uchun olib kirilayotgan texnologik jihozlar.
 - xususiylashtirilayotgan korxonalar uchun chet elliq investoring investitsiya majburiyatlari hisobidan olib kirilayotgan texnologik jihozlar.

6. Chet el investitsiyalari ishtirokida, bolalar poyabzali ishlab chiqarishga ixtisoslashayotgan korxonalar tomonidan o'z ishlab chiqarishlarida foydalanish uchun olib kirilayotgan xomashyo, materiallar va yatim tayyor mahsulotlar.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan imtiyozlar yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan iste'mol tovarlariga nisbatan tatbiq etilmaydi, ushbu modda ikkinchi qismining 2, 3, 5, 6, 7 bandlarida nazarda tutilgan tovarlar bundan mustasno. Tovarlarni iste'mol tovarlari jumlasiga kiritish qonun hujjaligiga muvofiq amalga oshiriladi.

(O'zRning 12.12.2003-yildagi Qonuniga asosan 71-moddaning yangi tahriri).

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solish

Quyidagilarga nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadi:

– agar hukumatlararo tuzilgan shartnormalarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) erkin konvertatsiya qilinadigan valutadagi eksportiga, shu jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlariga yetkazib berilishiga;

– qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishi ehtiyojlarini uchun qishloq ho'jaligi korxonalariga yetkazib beriladigan mineral o'g'itlar va yonilg'imoylash materiallariga;

– chet el tarifi tomonidan o'zaro do'stlik prinsipi qo'llangan taqdirda, chet el diplomatik vakolatxonalar hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarining rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek, bu vakolatxonalar diplomatik va ma'muriy texnik xodimlarning, shu jumladan, ular bilan bingalikda yashayotgan oila a'zolarining agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasalar, hamda respublikada doimiy yashayotgan bo'lmasalar, shaxsiy foydalanish uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga).

4-§. Qo'shilgan qiymat solig'ini stavkalari, uni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi

Qo'shilgan qiymat solig'ining stavkalari.

Qo'shilgan qiymat solig'i 20 % stavka bo'yicha to'lanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining budgetga to'lanishi lozim bo'lgan summasini belgilashi tartibi.

Budgetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi bilan qiymati ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga qo'shiladigan tovarlar uchun to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'i summasi ularning soliq solinadigan oborotidan hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 70 va 73-moddalarida nazarda tutilgan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Hisob-varaq-fakturalar.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlarni yuklab jo'natayotgan ishlar bajarayotgan va xizmatlar ko'rsatayotgan soliq to'lovchi ushbu tovarlarni olayotgan (ishlardan va xizmatlardan) shaxsga Qonun hujjalarda belgilangan shaklda tayyorlangan hisob-varaq-fakturani taqdim etishi shart.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi bo'lmagan xaridorlar tovarlarni chakana savdodan sotib olgan taqdirda hisob-varaq-fakturaning qonun hujjalarda belgilangan soddalashirilgan shaklidan foydalanish mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobga turmagan shaxs «qo'shilgan qiymatisiz» degan belgi qo'yilgan hisob-varaq-fakturani yozishi shart. Hisob-varaq-faktura tovarlar yuklab jo'natilgan, ishlar bajarilgan va xizmatlar ko'rsatilgan sanadan kechiktirmay yoziladi.

Hisob-varaq-fakturani to'ldirish quyidagi taribda olib boriladi.

Hisob-varaq-fakturada hisob-varaq faktura ilova qilinadigan tovarni yuklab jo'natish hujjalarning raqami va sanasi ko'rsatilishi lozim.

Jadval shaklini to'ldirayotganda quyidagilarni qayd etish kerak:

1-katakda – tovar (ishlar, xizmatlar) nomi;

2-katakda – mazkur tovar bo'yicha qabul qilingan o'Ichov birligi;

3-katakda – unga doir qabul qilingan o'Ichov birliklari;

4-katakda – tovar o'Ichov birligining shartnoma bo'yicha QQS siz narxi;

5-katakda – mazkur nomidagi tovar bo'yicha miqdori uchun QQS siz qiymati;

6-katakda – QQS stavkasi (20, %);

7-katakda – QQS summasi;

8-katakda – har bir turdag'i tovarning QQS bilan birgalikdagi qiymati.

Qo'shilgan qiymat solig'inинг hisob-kitobi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Qo'shilgan qiymat solig'i qanday soliq hisoblanadi?
2. Qo'shilgan qiymat solig'ini obyekti nima?
3. Qo'shilgan qiymat solig'ini stavkasi nima?
4. Q.Q.S. bo'yicha imtiyozlar.
5. Q.Q.S. qanday hisoblab chiqariladi?

IX bob. AKSIZ SOLIG'INING MOHIYATI VA HISOBBLASH TARTIBI

1-§. Aksiz solig'ining mohiyati va uning obyekti

Aksiz solig'i bilvosita soliq turi bo'lib, tovar yoki xizmat narxiga ustama ko'rninishda undiriladi va pirovardida iste'molchi tomonidan to'lanadi. Aksizlar davlatning soliqqa doir umumiy siyosati tarkibiy qismi hisoblanadi hamda budjet daromadini ko'paytirish, ba'zi tovarlar iste'mol qilinishi (tamaki, spirtli ichimliklar), ishlab chiqarish ayrim turlarining ko'paytirish tabiatni muhofaza qilishga salbiy ta'siri oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy xarajatlar o'mini qoplashda, shuningdek, avtomobil yo'llari qurish va saqlash xarajatlarini, boshqa xarajatlarni, himoyalash manbayi sifatida, vatanimizdagi ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashda va hokazolar uchun qo'llaniladi.

Aksiz hajmi qoida tariqasida, tovar qiymati bilan ham, uni ishlab chiqarish uchun qilingan mehnat sarfi bilan ham bog'liq emas, balki davlatning soliq siyosatiga qarab belgilanadi. Ba'zi mamlakatlarda iste'mol solig'i, ya'ni chakana savdodagi har bir xarid uchun soliq, xizmat ko'rsatish sohasida oborot solig'i, tomoshaxonalardan undiriladigan soliq va boshqalar tobora ko'proq rivojlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida aksiz solig'i O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar, tashkilotlardan undiriladigan soliqlar to'g'risida» gi Qonuniga muvofiq qabul qilingan, lekin respublikamizda birinchi marotaba 1992-yildan boshlab joriy etilgan.

«O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida» aksiz solig'ining yan-gi umumiy qoidalari, aksiz stavkalari va to'lash tartibini ko'rsatib o'tilgan.

Aksiz solig'i tovar qiymatining bilvosita soliq ko'rnishida budjetga to'lanadigan bir qismi bo'lib, u qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan bazada hisobga olinadi. O'zları ishlab chiqargan va aksiz solig'i solinadigan tovarlarni sotuvchi, mulkchilikning har qanday shaklidagi korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar aksiz solig'i to'lovchilar hisoblanadi. Aksiz to'lanadigan tovarlarning eksportiga aksiz solig'i solinmaydi, O'zbekiston Respublikasiga tovarlar eksportiga nisbatan soliq solish rejimini qo'llay-digan davlatlarga tovarlar realizatsiya qilinadigan hollar bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasida aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqarayotgan yoki bunday tovarlarni import qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar budjetga aksiz solig'i to'laydilar.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar uchun ularning qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmagan holdagi (aksiz solig'i summasini o'z ichiga olgan) qiymati yoki tovarning fizik hajmi soliq solish obyekti hisoblanadi.

Agar tovar ishlab chiqaruvchi aksiz to'lanadigan tovarni naturalur haq yoki sovg'a sifatida bersa, soliq to'lovchidan tovarni topshirish paytida tarkib topgan, lekin amal qilingan xarajatlardan kam bo'Imagan narxlar darajasidan kelib chiqib hisoblangan qiymat soliq solish obyekti hisoblanadi.

Ushbu qoidalari, tovarlar o'z xomashyosidan yoki berilgan xomashyodan ishlab chiqarilgandan qat'i nazar qo'llaniladi.

Berilgan xomashyodan ishlab chiqarilgan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i va uni buyurtmachiga berish paytida ushbu qoidalarga muvofiq belgilangan narxda hisoblab chiqarilishi lozim.

Tadqiqot obyektidan kelib chiqib, asosiy egri soliqlardan biri bo'lgan aksiz solig'ining kelib chiqishi va rivojlanishi tarixi xususida to'xtalamiz. Dastlab egri soliqlar ayrim tovar turlari (tuz, tamaki, aroq mahsulotlari, gugurt, shakar va boshqa keng iste'mol mollari)ga aynan aksiz solig'i ko'rinishida namoyon bo'lgan. Baqt o'tishi bilan aksiz osti tovarlari ro'yxati kengayib borgan. O'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, soliqqa tortishning aksizli shakli keng xalq ommasi iste'molidagi ommaviy tovarlarni soliqqa tortish jarayonidagina samara berishi mumkin bo'lgan.

Qadimda aksizlarni boshqa nomlar bilan boj, to'lov, yig'im yoki sodda qilib soliq deb atashganlar. Aksizlarning o'sha davrda amal qilgan soliqqa tortish mexanizmi to'g'risida taxminiy ma'lumotlar mavjudligi uning ilk paydo bo'lgan davrini aniqlashga imkon bermaydi. Masalan, xalq tribunlari Tiberiy va Gay Grakxov (er. av. 162-133 va 153-121-yy.) davrlarida Rim g'aznasiga qo'llamni ozod etishdan, shu bilan birga o'z shaxsiy iste'moli uchun zarus bulmagan tovarlarni dengiz orqali Rimga olib kelinishdan yig'imlar tushib turgan.

Qadimgi Misrda XII-XIII chi sulolalar davrida (er. av. ikkinchi ming yillik) pivoga soliq solingen. Albatta, bu to'lovlar hozirgi talqindagi aksizlar bo'lmasiligi mumkin, lekin ularni aksizlarning dastlabki namunalari sifatida e'tiborga olish lozimdir.

Tarixiy manbalarga ko'ra, Angliyada Kromvel davrida respublikaning yigirma yil amal qilishi davomida aksizlarning ikki yuzga yaqin tuni joriy etilgan. Bunda har xil turdag'i obyektlar soliqqa tortilgan, masalan, poxol kukuni yoki yog' uchun quti idishlar shular jumlasidandir. XXI asrda Gollandiyada egri soliq turlari shunchalik ko'p ediki, tarixchi de-Bitta so'zlariga qaraganda, mehmonxonada tortiq qilingan baliq bo'lagiga 34 xil aksiz to'g'ri kelgan.

Demak, aksizlar, bojlarни hisobga olmaganda soliqqa tortishning eng qadimgi shaklidir.

«Aksiz» franso'zcha—accise, lotincha—accidere so'zlaridan olingan bo'ladi, tarjima qilinganda «kesib olish» ma'nosini anglatadi. O'zbekiston

Pespublikasi soliq qonunchiligidagi aksiz soliq'iga quyidagicha izoh berilgan: «aksiz soliq'i sof daromadning narxda va qo'shilgan qiymat soliq'iga tortiladigan bazada hisobga olinadigan, egri soliq sifatida budgetga o'tkazilagan (undiriladigan) bir qismidan iboratdir. Bizning fikrimizcha, aksiz soliq'i sof daromadning emas, balki yuklab jo'natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egri soliq sifatida budgetga yo'naltirish shaklidir.

Egri soliq sifatida aksiz soliq'inin qo'shilgan qiymat soliq'idan farqlanuvchi xususiyatlari jihatlarini aytib o'tish maqsadga muvofiqdir, ya'ni:

– aksiz soliq'ida cheklangan turdag'i aksiz osti mahsulotlarini sotish oboroti soliqqa tortiladigan obyekt bo'ladi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, qo'shilgan qiymat soliq'idagi soliqqa tortish obyekti bo'lgan ish va xizmatlar aksiz soliq'iga tortilmaydi;

– agar qo'shilgan qiymat soliq'i tovar ishlab chiqarish va ayrboshashning barcha bosqichlarida vujudga kelsa va undirilsa, aksizlar esa faqat ishlab chiqarish sohasidagina amal qiladi. Ushbu qoidadan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinayotgan aksiz osti mahsulotlari va tovarlari istisnodir.

Madomiki, ushbu holatda aksiz soliq'ini to'lovchilar bo'ladi, aksiz osti mahsulotlarini sotib oluvchi va qayta sotuvchi tashkilotlari hisoblanadi.

Aksiz soliq'i o'z mohiyatiga ko'ra tovar bahosiga kiritiluvchi va oxirgi iste'molchi tomonidan to'lanadigan egri soliqdir. Uning ijtimoiy – iqtisodiy mohiyati faqat taqsimot darajasiga qarab ifodalanadi va takomillashtiriladi.

Aksiz soliq'inin iqtisodiy mohiyati budget tushumini ta'minlash orqali xalq xo'jaligi manfaatlarni qondirishga, ko'proq mablag'lami jalb ettirishi orqali namoyon bo'lsa, uning ijtimoiy mohiyati aholining, ya'ni asosiy iste'molchilarning to'lov qobiliyatlarini oshishida o'z ifodasini topadi. Bu esa aksiz soliq'i obyektlari (aksiz osti tovarlari)ni qiskartirilishida, soliq stavkalari pasayishida, aholi to'lov qibiliyatini o'sishida namoyon bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, subyektlar aksiz soliq'i iste'molchilari sifatida o'zaga kelishi tabiiydir.

Ammo aksiz soliq'i yengiliklari tovarlarni xarid qilish uchun olinaligan kredit resurslarini qisqartirilishiga, bu esa o'z vaqtida xarajatlarning pasayishiga olib keladi. Xarajatlarning pasayishi esa daromad (foyda)ni oshirish omillaridan birdir.

Aksiz soliq'ini mohiyatini ochishda u bajaradigan vazifalarni bilish muhimdir. Shu jihatdan uning quyidagi vazifalarini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz:

birinchidan, mamlakat budgetining muhim daromad manbalaridan biri sanaladi. Soliq tizimi rivojlanish bosqichini boshdan kechirayotgan barcha davlatlar singari, mamlakatimizda ham aksiz orqali daromadlarni tez va oson yigish imkoniyatlari yuzaga keladi. Fransuz iqtisodchisi F.Demezon ta'biri bilan aytganda «aksizning o'zi barcha boshqa soliq tushumlari va undan ham ko'proqni berishga qodirdir»

ikkinchidan, aksiz osti tovarlari iste'molini cheklash (asosan, ijtimoiy zararli tovarlar) orqali muayyan bozor doirasida talab va taklifni tartibga

solist. Iqtisodiy o'sish doirasini bashqarishda aksizosti tovarlar ro'yxatini belgilash orqali davlat yalpi talab va taklifni egiluvchanligi ta'minlaydi;

uchinchidan, davlatning milliy bozorni himoya qilish vazifasi aksiz solig'i orgali ta'minlanadiki, bunda yuqori soliq stavkalaridan foydalaniadi;

to'rinchidan, aksiz solig'i monopol mavqedagi tovar ishlab chiqaruvhi yoki aniq mahsulot turini progressiv soliqqa tortish vazifasini o'taydi;

beshinchidan, aksiz solig'i aholini boy badavlat qatlamlari daromadarini qayta soliqqa tortish usuli hisoblanadi. Chunki aksiz solig'i asosan nuuzli (qiymati yuqori) tovarlarga qo'llaniladiki, bunday tovarlarni asosiy iste'molchilar boy-badavlat shaxslar hisoblanadi.

Shunday qilib, aksiz solig'i ijtimoiy muhitni ham yaxshilash imkoniyatarini moliyaviy natijalarning o'sishi orgali taminlab berishi mumkindir. Shu bois aksiz solig'ining takomillashtirilishi ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaxshilanishi bilan chambarchas bogliqidir.

2-§. Aksiz solig'ining stavkalari

Aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati va aksiz solig'i stavkalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi va tasdiqlanadi. 1-yanvar 2007-yilgi aksiz tovarlarni ro'yxati va uning stavkalarini O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2006-yil 18-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2007-yilgi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida» gi PQ-532 sonli qaroriga asosan quyidagicha belgilangan.

1. Ishlab chiqarish korxonalariga:

- benzin 28 %;
- dizel yoqilg'isi 25 %;
- avtokerasin 8 %;
- pivo 30 %;
- tabiiy gaz 25 %.

2. O'simlik ◆ paxta» yog'i :

- Oziq-ovqat yog'I (salomas va «O'zbekiston» yog'ini ishlab chiqarishda foydalilanadigan yog'dan tashqari) 1 tonna uchun 495000 so'm;
- texnik moy (oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga kiruvchi yaroqsiz, kislota soni 0,3 MG. Kon-G-dan ortiq) 1 tonna uchun 392000 so'm.

3. Tamaki mahsulotlari yumshoq o'ramdag'i filtrli sigaretlar 1 ming donasi uchun 4175 so'm.

- qattiq o'ramdag'i filtrli sigaretalar 1 ming dona uchun 5206 so'm;
- filtrsiz sigaretlar, popiroslar 1 ming dona uchun 1476 so'm.

4. Spiritga soliqning stavkasi 1-dan spirit uchun 1410 so'm.

3-§. Aksiz solig'ining to'lash tartibi

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan, aksizga tortiladigan tovarlar uchun ularning qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmagan hol-

dagi (aksiz solig'i summasini o'z ichiga olgan) qiymati yoki tovarning fizik hajmi soliq solish obyekti hisoblanadi. Agar tovar ishlab chiqaruvchi aksizga tortiladigan tovari natural haq yoki sovg'a sifatida bersa, soliq to'lovchi tovari topshirish paytida tarkib topgan taqdirda hisoblab chiqariladi.

Aksiz solig'i summasini quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

(O X A) / 100 bunda:

O – o'z ichiga QQS - siz, aksiz solig'ini o'z ichiga olgan shartnomaviy (erkin) narxi;

A – aksiz solig'i stavkasi.

Daval xomashyosidan ishlab chiqaradigan mahsulotlarga aksiz solig'ini hisoblashda, aksiz solig'i solinadigan mahsulotni sotish oboroti ushbu tovari ishlab chiqarishga doir ishlar qiymati va berilgan xom ashya qiymatidan kelib chiqib aniqlanadi. Daval xomashyosini balansdan tashqari mahsulot ishlab chiqarayotgan korxona hisobga ofadi.

Agar Qonunda boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa, aksiz solig'i aksizga tortiladigan tovar sotilgan oyning o'n kuni tugaganidan so'ng uchinchi kundan qoldirmay budgetga o'tkazilishi kerak. Soliq to'lovchi soliq ro'yxatidan o'tgan joydagi tegishli soliq inspeksiyasiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 20-kundan qoldirmay aksiz solig'i bo'yicha hisob-kitobni taqdim etadi.

To'lovchilar sotishning haqiqiy hajmidan kelib chiqib va O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasining 1997-yil 19-noyabrdagi 36/97-96-son yo'rignomasiga muvofiq hisoblab chiqqan aksiz solig'i summasi budgetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- joriy oyning 13-kunigacha – joriy oyning birinchi un kuni uchun;
- joriy oyning 23-kunigacha – joriy oyning ikkinchi o'n kuni uchun;
- keyingi oyning – 3 – kunigacha – hisobot oyning qolgan kunlari uchun.

Tovarga ilova qilinuvchi hujjatlarda ko'rsatilgan mahsulotni yuklab junatish kuni sotish sanasi hisobanadi.

O'n kunlik to'lovlar bo'yicha kelib tushgan aksiz solig'i summasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarning shaxsiy hisob varaqlarida «Soliq hisoblab yozish» va «Soliq to'lash» kataklarida bir vaqtning o'zida aks ettirildi.

Aksiz to'lanadigan tovar O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i to'langan xomashyodan ishlab chiqarilgan holda mazkur xomashyo bo'yicha to'langan aksiz solig'i summasini hisoblab yozish paytida hisobga olinishi kerak. Iste'mol idishiga quyish (qadoqlash) uchun aksizga tortiladigan tayyor mahsulot oladigan korxonalarga ham ana shunday tartib tadbiq etiladi.

Masalan, keyin qadoqlash uchun paxta moyi oladigan korxonada budgetga to'lanadigan aksiz solig'i iste'mol idishiga qadoqlangan paxta moyi va transport idishida olingan paxta moyi bo'yicha hisoblab chiqarilgan aksiz soliqlari summalarini o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Hisobga olingan aksiz solig'i summasi ustidan nazoratni amalgalashish uchun xomashyo (mahsulot) yetkazib beruvchilar tovarga ilova qilin-

gan hujjatlarda yuklab jo'natilgan mahsulot (xomashyo) bo'yicha budgetga to'lanadigan aksiz solig'i summasini alohida satrda ajratib ko'rsatilishi kerak. Agar harid qilinayotgan aksizga tortiladigan xomashyo (mahsulot) bo'yicha aksiz solig'i summasi tovarga ilova qilinadigan hujjatlarda ajratib ko'rsatilmasa, u hisob-kitob yo'li bilan hisoblab chiqarilmaydi va tayyor mahsulot bo'yicha hisobga qabul qilinmaydi.

Hisobga olingan aksiz solig'i summasi alohida tahliliy hisob varaqada hisobga olinadi va tegishli ulush bilan ishlab chiqarishga xomashyoni hisobdan chiqarish darajasiga qarab, 68-«Budget bilan hisob-kitoblar» hisob varag'i debitiga hisobdan chiqariladi.

Aksizga tortiladigan import tovarlar uchun bojxona haqidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan boj qiymati soliq solish obyekti hisoblanadi.

Aksizga tortiladigan import tovarlar uchun aksiz solig'i bojxonada rasmiylashtirilganiga qadar yoki rasmiylashtirish paytida to'lanadi.

Aksiz solig'i bo'yicha budget bilan hisob-kitoblar hisobi 68-«Budget bilan hisob-kitoblar» hisob varag'inining «Aksiz solig'i bo'yicha hisob-kitoblar» ilova hisob-varag'ida yuritiladi.

Aksiz solig'inining budgetga to'lanadigan summasi 46-«Mahsulot sotilishi» hisob-varag'i debeti va 68-schyotning krediti bo'yicha aks ettiriladi. Aksiz solig'i summasini budgetga o'tkazish 68-schyotni debiti bo'yicha tegishli hisob varaqalar bilan korrespondensiyada aks ettiriladi.

Aksiz markalari olinganda 56-«Pul hujjatlari» schyotini debeti va 51-«Hisob-kitob» schyoti krediti bo'yicha buxgalteriya yozuvni yoziladi. Mar-kazlashgan mahsulot yuklab jo'natilishiga qarab quyidagicha buxgalteriya yozuvni yoziladi: 68-«Budget bilan hisob-kitoblar» schyoti debeti va 56-schyot krediti.

Aksiz solig'ini hisoblash tartibi quyidagi tartibda olib boriladi. Aksiz solig'ini hisoblashda biz quyidagi formuladan foydalanamiz.

Oq-(Sx100)100-A

bunda: 0 – QQS-siz, aksiz solig'ini o'z ichiga olgan shartnomaviy (erkin) narx;

S – korxonaning hisob-kitob narxi (normativ xarajatlar va foyda me'yori);

A – aksiz solig'i stavkasi.

Aksiz solig'i summasini quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$O \cdot A / 100$$

Aksiz markalari nominal qiymatini hisobga olishni aniqlash tartibi quyidagi jadval misolida aniqlandi.

| | | | | | | |
|----------------|------------------------------------|---|--------------------------|--------------------------------|--|-------------------------------------|
| Mah-sulot nomi | Sotishning soliq solinadigan hajmi | Beglilangan stavka bo'yicha aksiz solig'i summasi | Soliq solina-digan hajim | Bitta aksiz marka-ning qiymati | Aksiz markalar uchun hisobga olish summasi 4/5 | To'langan aksiz solig'i summasi 3/6 |
| Aroq | 700000 | 455000 | 455000 | 0,14 | 1400 | 453600 |

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Aksiz solig'i qanday soliqlar tarkibiga kiradi?
2. Aksiz solig'ining mohiyati nimadan iborat?
3. Aksiz solig'ining obyekti?
4. Aksiz solig'i stavkalari?
5. Aksiz solig'ining to'lash tartibi nimadan iborat?

X bob. YER OSTI BOYLIKLERIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN VA SUV RESURSLARDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQNING MOHIYATI VA UNI HISOBBLASH TARTIBI

1-§. Yer osti boyliklaridan foydalanganligi uchun soliqning mohiyati va ahamiyati

Yer ostidan foydalanganlik uchun soliqni O'zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalar qazib olishni, shuningdek, foydali qazilmalar qazib olish bilan bog'lik bo'Imagan yer osti inshootlari qurish va ulardan foydalaniishi amalga oshiruvchi korxona, tashkilot, firmalar va fuqarolar to'laydilar.

Yer ostidan foydalanganlik uchun soliq solish obyektlari quyidagi lardan iborat:

- foydali qazilmalar (shu jumladan, qo'shilib chiqadigan qazilmalar va qimmatli komponentlar) qazib olish hajmi;
- texnogen hosilalarining (mineral xomashyo qazib olish va ularni qay-a ishlash chiqindilarining) hajmi;
- foydali qazilmalar qazib olish bilan bog'lik bo'Imagan yer osti inshootari hajmi;
- to'plangan rangli toshlar xomashyosi, paleontologiya qoldiqlari va boshqa geologik kolleksiya materiallari, namunalarini hisobga olingan qiymati.

Yer ostidan foydalanganlik uchun soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

- yer qa'rini geologik jihatdan o'rganuvchi shaxslar;
- geologiya, mineralogiya va boshqa alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududlarda ilmiy ishlar olib boruvchi shaxslar;
- xo'jalik va maishiy ehtiyojlari uchun o'zlariga berilgan yer uchastkalari doirasida belgilangan tartibda keng tarqalgan foydali qazilmalar, qazib olishni hamda yer ostidan foydalananuvchilar.

Soliq to'lovchilar yer ostidan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblarini soliq organlariga quyidagi tartibda taqdim etadilar:

- foydali qazilmalar qazib olganimiz va texnogen hosilalaridan foydalanganlik uchun-yilning har choragi, yil choragi bo'yicha moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun belgilangan muddatdan kechiktirmay;
- mineral xomashyo qazib olish va uni qayta ishlash bilan bog'lik bo'Imagan holda yer qa'ridan foydalanganlik uchun - bir yilda bir marotaba, yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun belgilangan mudatdan kechiktirmay.

Yer ostidan foydalanganlik uchun soliq:

- foydali qazilmalar qazib olganlik va texnogen xosilalardan foydalanganlik uchun har oyda hisobot oydan keyingi oyning 20 - kuniga;
- qolgan hollarda-yilning har choragida, yil choraklari bo'yicha va yillik hisobotlarini topshirish muddatlarida to'lanadi.

2-§. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning mohiyati, soliq to'lovchilar va uning obyekti

O'z faoliyatida bevosita suvdan foydalanganlik yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilaridir. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, suv manbalarining joylashgan joyidan qat'i nazar, suvdan foydalanganuvchilar tomonidan o'zlarining davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tgan joylarida to'lanadi. Aholi punktlarini suv bilan ta'minlash uchun suvni yetkazib beruvchi korxonalar faqat o'z faoliyatida foydalananadigan suv uchun soliq to'lovchilar hisoblanadi.

Ishlab chiqarish va texnika ehtiyojlari uchun yer osti va yer osti manbalaridan foydalangan suv resurslarining hajmi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyekti hisoblanadi.

Yer osti suv manbalariga: daryolar, ko'llar, suv omborlari, yer ustidagi boshqa suv havzalari va suv manbalari, kanallar va hovuzlar turlari kiradi.

Yer osti manbalariga: artezian quduqlari, vertical va gorizontal drenaj tarmog'i kiradi.

3-§. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari va soliq bo'yicha imtiyozlar

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanganadi.

Yordamchi xo'jaliklari bo'lgan korxonalar, shuningdek, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o'quv yurtlarining suvdan qishloq xo'jaligi ekinlari va dovdaraxtlarni suq'orishda foydalananadigan o'quv tajriba xo'jaliklari soliqni qishloq xo'jaligi korxonalari uchun belgilangan stavkalati asosida to'laydilar.

Quyidagilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan ozod qilinadi:

1. Tijorat bilan shugullanmaydigan yuridik shaxslar, tadbirkorlik faoliyati uchun suv resurslaridan foydalanganuvchilar bundan mustasno;
2. Yer osti ma'danli suvlaridan davolash maqsadida foydalanganuvchi sog'lijni saqlash muassasalari, ular ma'dantli suvdan savdo tarmog'ida realizatsiya qilish uchun foydalangan hollar bundan mustasno.
3. Farmatsevtika faoliyati bilan shugullanuvchi va suvdan dorivotsitalari tayyorlash uchun foydalanganuvchi yuridik shaxslar.
4. Atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishning oldini olish maqsadida yer osti suvlarini chiqazib olayotgan yuridik shaxslar – ana shu yer osti suvlar uchun, ishlab chiqarish va texnika extiyojlari uchun foydalananadigan suv hajmlari bundan mustasno.

5. Suv uchun byudjetga haq o'tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar;

6. Foydali qazilmalar qazib olish va shaxtadan suvlarni qochirish vaqtida yer osti suvlarni chiqazib olgan yuridik shaxslar-ana shu yer osti suvlar uchun, ishlab chiqarish va texnika ehtiyojlari uchun foydalilaniladigan suv hajmlari bundan mustasno.

7. Gidroelekrostansiyalar-agregatlarni ishlatishda suvdan foydalanganlik uchun.

8. Birlarinchu tarzda foydalanganlik uchun haqqi to'langan suvdan ikkilamchi tarzda foydalanuvchi yuridik shaxslar.

9. Asosiy faoliyat turi bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishitiruvchi yuridik shaxslar-sho'rlangan yerlarni yuvish magsadida suvdan foydalanganlik uchun bo'shatib olinayotgan mablag'lardan jamg'armalar va jamiyatning ustavda belgilangan vazifalarni bajarish uchun foydalanish sharti bilan.

4-§. Suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq hisoblab chiqarish tartibi va to'lash muddati

Yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni olinigan suv hajmi doirasida hisoblab chiqadilar. Bu soliq bo'yicha hisob-kitoblar yil choraklari bo'yicha va yillik moliyaviy hisobotlarni topshirish uchun belgilangan muddatlarda soliq organlariga taqdim etiladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchi hisoblana-digan xonijiy investitsiyali korxonalar ushbu soliq bo'yicha hisob-kitobni bir yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobotlarni topshirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadilar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq amalda olingan suvning hajmidan kelib chiqib, har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 15-kuniga qadar to'lanadi.

Yilning choragi davomida suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'laydigan solig'ining umumiyligi summasi eng kam ish haqining ellik barobaridan kam bo'lgan korxonalar soliqni yilning har choragida bir marta, yil choraklari bo'yicha moliyaviy hisobotlarni topshirish uchun belgilangan muddatlarda to'laydilar.

Qishloq xo'jaligi korxonalari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni bir yilda bir marta joriy yilning 15-dekabrigacha to'laydilar. Yil yakunlari bo'yicha hamma soliq to'lovchilar yillik moliyaviy hisobotni topshirish uchun belgilangan muddatlarda davlat soliq xizmati organlariga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni summasini hisob-kitobini taqdim etadilar.

Soliq to'liq to'lanmagani holda to'lanmay qolgan soliq summasi hisob-kitob taqdim qilinganidan so'ng besh kunlik muddatda budgetga o'tkaziladi.

Ortiqcha to'langan soliq summalarini to'lovchining yozma arizasi olinigan kundan boshlab soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarz bo'limgani holda

30 kun muddatda soliq idorasi tomonidan soliq to'lovchiga qaytariladi yoki navbatdagi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi.

Yuridik shaxslarning suv resurslаридан foydalanganlik uchun soliq bo'yicha budget hisob-kitoblarning buxgalterlik hisobi 68-«Budget bilan hisob-kitoblar» hisobvarag'i, «Suv resurslаридан foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblar» hisobvarag'ida amalga oshiriladi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Suv resurslаридан foydalanganlik uchun soliqning roli va ahamiyati nimadan iborat?
2. Soliqning obyekti va uni stavkasi qanday?
3. Yer osti boyliklaridan foydalanganligi uchun soliqning mohiyati.
4. Yer osti boyliklaridan foydalanganligi uchun soliq stavkasi.

III QISM MAHALLIY SOLIQLAR VA YIQIMLAR

XI bob. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN MOL-MULK SOLIG'I

1-§. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk solig'ini joriy etish sabablari

Mol-mulk solig'ining shakllanish jarayoni va tarixiy bosqichlari. Korxonalarning mol-mulkiga solinadigan soliq, asosan, joylardagi mahalliy budgetlarning daromad qismini shakllantiradi. Undirilgan ana shu soliq summasi teng ulushlarda mahalliy budgetlarga o'tkaziladi. Hozir mutaxassislar mol-mulk solig'i va shu kabi resurs to'lovlarini anchagina oshirish va foyda (daromad)ga soliq yukini kamaytirish maqsadga muvofiq deb ta'kidlashmoqda.

Mol-mulk solig'i soliqlar tizimida qanday maqsadlarda joriy etiladi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Mamlakatimizda mazkur soliqni joriy etishdan quyidagi maqsadlar ko'zda tutilgan edi:

Birinchidan, korxonalar o'zlarining xo'jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishni uyg'otish.

Ikkinchidan, xujalik yurituvchi subyektlar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirish.

Mol-mulk solig'i moliyaviy nuktayi nazardan rag'batlantiruvchilik va nazorat qilish mahalliy byudjetlarni to'ldirish nuktayi nazridan esa fiskal vazifalarini bajaradi.

Mol-mulk solig'i yuqorida bayon qilinganlardan tashqari, mavjud ishlab chiqarishni ekstensiv kengaytirishni jilovlash vazifalarini hal qilishga ham samarali ta'sir qiladi. Turli sabablarga ko'ra, daromadlarning bir qismi har doim daromad solig'iga tortilishdan «qochib qoladi». Ammo moddiy boylikka aylangach, mol-mulk solig'iga tortilmasdan iloji yo'q. Sarmoyalarni soliqqa tortish ulardan faol foydalanishni rag'batlantiradi, ortiqcha zaxiralardan holi bo'lishga rag'bat bo'ladi, xizmat qiladi va o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorining tashkil topishini jadallashtiradi. Bundan soliqning rag'batlantiruvchilik vazifasi kelib chiqib, u ishlab chiqarishda mol-mulkdan samarali foydalanish, asosiy fondlarning foydalanilmaydigan hajmini va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Hozirgi paytda mulk soliqlaridan keladigan daromad yetakchi salmoqqa ega bo'lmasa-da, bu soliqlar soliq tizimida o'ziga xos o'rinn tutadi. Shuningdek, mol-mulk solig'i davlat budgetiga daromadni ta'minlash bilan

birga, daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi. Mulk soliqlarining asl maqsadi davlat budgeti manfaatlariga va korxonalar manfaatlariga xizmat qilishdan iborat.

Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortish mexnizmi bu-yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq solish bilan bog'liq bo'lgan, soliqni tashkil qilishda bevosita ishtirok etuvchi elementlar majmui hisoblanadi. Bu majmua: soliq subyekti, soliq obyekti, soliqqa tortish birligi, soliq stavkasi, soliqqa tortiladigan baza, soliq imtiozлari, soliqni to'lash muddatlari va boshqa elementlardan iborat.

Hozirgi paytda yuridik shaxslarning mol-mulklarini soliqqa tortish mexanizmida mavjud bo'lgan muammolar, avvalo, soliqqa tortish obyekti ni aniqlash tartibi va soliq stavkasi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, 2001-yil 1-yanvar holati bo'yicha asosiy vositalarni qayta baholashning amalga oshirilishi bu muammolarni yanada murakkablashtiradi. Shuningdek, huquqiy-me'yoriy hujatlarda bayon qilingan qoidalar amaldagi holatlarga unchalik mos kelmayapti. Shu boisdan, birinchi muammo soliqqa tortiladigan obyekt tarikibini aniqlash bilan bog'liq bo'ladi u soliq kodeksida ham 381-tonli «Yuridik shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqni hisoblash va budgetga to'lash tartibi to'g'risida»gi yo'rinqnomaga asosan, soliqqa tortiladigan obyekt deyilganda korxonalar balansida bo'lgan asosiy vositalar shu jumladan, lizing shartnomasiga ko'ra sotib olingan vositalar va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, shuningdek, belgilangan muddatlarda tugallanmagan qutilish obyektining qiymati nazarda tutiladi. Soliqqa tortiladigan obyekt korxona mol-mulkining qiymatidagi ifodasi bo'ladi, shu korxonaning balansida bo'lgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, lizing shartnomasi bo'yicha olingan mol-mulkarning majmuyini tashkil etuvchi balans qiymatidan iboratdir.

Agar ushbu huquqiy-me'yoriy hujatlardagi qoidalarga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda soliqqa tortishdagi kamchiliklarni kuzatish mumkin. Fikrimizcha, yuridik shaxslar mol-mulki soliqqa tortiladigan obyekt sifatida, asosiy vositalarning o'rtacha yillik balansi qiymatini hisoblash jarayonida asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatidan eskirish summasi chegitilganidan keyin qolgan qoldiq qiymati bo'yicha hisoblanishi lozim. Chunki korxonalar asosiy vositalari ekspluatatsiya jarayonida o'zining boshlangich sifatini yo'qtib ham jismoniy, ham ma'naviy tomondan eskiradi. Shuftayli, ularning amaldagi haqiqiy qiymati eskirish darajasiga muvofiq uning miqdoriga nisbatan kamayadi. Rossiyalik iqtisodchi olimlar ko'pgina korxonalarda asosiy fondlarning eskirish darajasi 70-90 %ni tashkil etmoqda deb, ta'kidlamoqdalar.

Darhaqiqat, amaliyotda korxona mol-mulkini boshlang'ich qiymat bo'yicha soliqqa tortish, avvalo, soliqqa tortishning adolatlilik tamoyiliga ziddir. Bu usulda soliqqa tortish, bir tomondan, fond sig'imi yuqori bo'lgan korxonalar uchun mulk solig'i bo'yicha soliq og'irligini oshirsa, ikkinchi tomondan, asosiy vositalarga ega bo'lmagan korxonalar uchun ijobji bo'lib qolmoqda. Natijada, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish korxo-

nalari o'tasida mulk solig'i bo'yicha soliqqa tortishning noteng hollari yuzaga kelmoqda. Xususan, soliqqa tortish maqsadida asosiy vositalami o'rtacha yillik balans qiymatini boshlang'ich qiymati bo'yicha soliqqa tortish hozirgi paytda bozor iqtisodiyoti talablariga mos kelmasligi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar balansida mavjud asosiy vositalardan samarali foydalanishni amalga oshira olmayotganini alohida ta'kidlash mumkin.

Soliqni hisoblashda eskirish summasini soliqqa tortiladigan mol-mulk obyekti qiymatidan chegirish lozim. Chunki asosiy fondlarni yangilash va qayta rekonstruksiya qilishga safarbar qilinadigan mablag'lar soliqqa tortiladigan doiradan tashqarida bo'lishi lozim. Aks holda, korxonalarda asosiy fondlarning texnologik yangilanish sikli buzilishi va oqibatida asosiy fondlarning to'liq yemirilishiga olib kelishi mumkin.

Hozirgi paytda xalq xo'jaligi tarmoqlaridagi asosiy fondlarni yangilash kerak. Chunki xo'jalik yurituvchi subyektlarning xo'jalik faoliyatida yangi ilg'or texnologiyalardan foydalanish jahon andozalariga mos mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Shu munosabat bilan korxonalarda eskirish miqdorini soliqqa tortish doirasidan chiqarib, asosiy fondlarni yangilash yoki texnologik yangilanish siklini to'g'ri amalga oshirishni tashkil etish zarur. Fikrimizcha, soliqni asosiy vositalar dastlabki qiymatiga ko'ra hisoblash korxonalarni modernizatsiyalash va eskirgan uskunalarini almashtrish uchun rag'bat bo'la olmaydi. Boshqacha aytganda, mol-mulk solig'ini asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatidan undirish tartibini saqlab, bozor munosabatlarini shakllantirib bo'lmaydi.

Albatta, amalda soliqqa tortish maqsadida asosiy vositalarning o'rtacha yillik balansni qiymati aniqlash uchun qoldiq qiymati bo'yicha soliqni hisoblash ma'lum darajada davlat budgetiga tushishi lozim bo'lgan soliq miqdorining kamayishiga olib keladi. Bunday holat budget daromadlarini shakllantirishda budget yo'qotishlariga olib kelishi mumkin. Fikrimizcha, ushbu budget kamomadi masalasini yechish uchun respublikamiz soliq siyosatining konseptual yo'nalishlariga tayanishi kerak. Ayniqsa, bozor munosabatlarida iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida, soliqqa tortish maqsadida, korxona mulkchilik huquqi asosida bo'lgan uzoq muddatli aktivlar bilan birga ularning balansida mavjud bo'lgan qoldiqlar yoki mulk deb inkor etib bo'lmaydigan buxgalteriya hisobi balans aktivida aks ettirilgan ma'lum aylanma aktivlar koldiqlarini mol-mulk solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan baza tarkibiga qo'shimcha element qilib kiritish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur metodologik xulosa mamlakatimiz xo'jalik yurituvchi subyektlari mol-mulklardan samarali foydalanish uchun ahamiyatli bo'lishi barobarida budget daromadlarini shakllantirish uchun amaliy asoslarini yaratish va belgilashda ham muhimdir. Shunday qilib, soliqqa tortiladigan obyektning o'zgarishi natijasida mol-mulk solig'ini maqbullashtirish soliq to'lovlarini rejalashtirishning asosiy prinsipi bo'ladi, u soliqqa tortiladigan baza quydigilar hisobiga oshib ketishiga yo'l qo'ymasligi kerak:

⇒ Korxonalar aylanma mablag'larini vaqtincha to'xtatib qo'yadigan ortiqcha moddiy zaxiralarni qisqartirish.

- ⇒ Tayyor mahsulotlarni oldi-sotdi jarayonlarini jadallashtirish.
- ⇒ Ishlab chiqarish texnologik sikllari vaqtini qisqartirish va tugal-namagan ishlab chiqarish hajmini kamaytirish.
- ⇒ Ishlab chiqarish zaxiralarning maqbul miqdorini belgilash.

Korxonada mavjud tovar zaxiralarni soliqqa tortishning afzalligi to'g'-risida fikr yuritar ekanmiz, tovar zaxiralari mol-mulk solig'i obyekti tarkibiga kiritilganda qaysi bahoda hisobga olinishi kerak, degan savol tug'i-ladi. Tovarlarni soliqqa tortiladigan bazada hisobga olishda ular qiymatidan qo'shilgan qiymat solig'ini chegirish zarur. Boshqacha aytganda, korxonalaming soliqqa tortiladigan bazasidan tovarlar bo'yicha KKS bo'yicha chegirmalarni to'gri va asoslangan bo'lishi uchun birlamchi hisob hujjatlari va schyot-fakturalarda aks ettirilgan qo'shilgan qiymat solig'i summalaridan foydalanish mumkin.

Soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilardir.

Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulkka ega bo'lgan va o'z majburiyatlar bo'yicha mol-mulki bilan javob beradigan, shu jumladan, mustaqil hisob-kitobvarag'iga ega alohida bo'limlar tushuniladi.

Soliq solishning alohida tartibi o'matilgan ayrim toifadagi to'lovchilarga yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i tatbiq etilmaydi.

Bunda, agar soliq solishning alohida tartibi o'matilgan yuridik shaxslar faoliyatning asosiy turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob yuritishlari va qonun hujjatlariga muvofiq mol-mulk solig'ini to'lashlari zarur.

2-§. Yuridik shaxslardan mol-mulk solig'ini undirishda mol-mulkning yillik o'ttacha qoldiq qiymatini aniqlash tartibi

Yuridik shaxslar uchun soliq solish obyekti bo'lib asosiy vositalarning (qonun hujjatlariga muvofiq mulk qilib olingan yerning qiymati bundan mustasno) va nomoddiy aktivlarning o'ttacha yillik qoldiq qiymati, shuningdek belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektining qiymati hisoblanadi. Soliq solish obyekti bo'ladi, shuningdek, me'yordagi muddatlarida o'matilmagan uskulalarning qiymati hisoblanadi.

Agar u quyidagi shartlardan biriga javob bersa, amortizatsiyalandigan asosiy vositalarning ijarasi lizing hisoblanadi:

- a) ijara muddati asosiy vositalar xizmat muddatining sakson foizidan oshsa;
- b) ijarachi asosiy vositalarni qat'iy narxda yoki ijara tugashi bo'yicha belgilanadigan narxda sotib olish huquqiga ega bo'ladi;
- c) ijaraga olinadigan asosiy vositalarning qoldiq qiymati ijaraning tugashida ularning ijara boshlanishidagi qiymatining yigirma %dan kamni tashkil etsa;
- d) to'lovlarining joriy summasi butun ijara davri uchun ijaraga olinadigan vositalar qiymatining to'qson f %dan oshsa.

Yuridik shaxslar mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymati hisobot yilining I-yanvaridagi va hisobot yilidan keyingi yilning I-yanvaridagi mol-mulk qoldiq qiymatining yarmini qo'shishdan olingan summani hamda hisobot davri qolgan barcha oylari har bir dastlabki kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati summasi yig'indisi 12 ga bo'lishdan olingan son sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

| O'rtacha yillik qoldiq qiymati | I yan- varga ----- 2 | = | I fev- ralga | = .. = | I de- kabrga | + ----- 2 |
|---|-------------------------------|---|-----------------|--------|-----------------|--------------|
| 12 | | | | | | |

hisobot davriga soliqni hisoblab chiqarish uchun mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymati hisobot davri oyining birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati yarmini, hisobot davridan keyingi birinchi oyning birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati yarmini va hisobot davri qolgan barcha oylari birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymatini qo'shishdan olingan summani 12 ga bo'lishdan olingan summa sifatida aniqlanadi.

Agar mol-mulk oyning birinchi yarmida amalga kiritilgan bo'lsa, mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatini hisoblab chiqarishda kiritish oyi to'liq oy deb qabul qilinadi, agar mol-mulk oyning ikkinchi yarmida amalga kiritilgan bo'lsa, o'rtacha yillik qoldiq qiymat amalga kiritish oyidan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab hisoblanadi.

Misollar:

1) yuridik shaxs 20 oktabrda ta'sis etilgan:

2007-yil uchun hisoblab chiqarishga yuridik shaxs mol-mulki o'rtacha yillik qoldiq qiymatining hisob-kitobi

| Balans moddalari nomi | Balans kodi satni | Balans moddalari bo'yicha summalar | | | | |
|---|-------------------------|------------------------------------|--|-------|-------|-------|
| | | 01,01 | | 01,11 | 01,12 | 01,01 |
| Asosiy vositalar | 010 | | | 845 | 845 | 835 |
| Nomoddiy aktivlar | 020 | | | | | |
| Asosiy vositalarning eskirishi | 011, 021 | | | 100 | 110 | 120 |
| Soliq solinadigan mol-mulkning qoldiq qiymati | 012, 022 | | | 745 | 735 | 715 |

Soliqni hisoblab chiqarish uchun mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymati

745 : 2 Q 735 Q 715 : 2

12

- 122,08

d) hisobot yilining I choragi uchun:

| Ichorak uchun soliqni hisoblab chiqarishga mol-mulk- ning o'rtacha qoldiq qiymati | 1 yan- varga + 1fevral ga | - + 1martga | + 1aprel- ga |
|--|------------------------------------|-------------|-----------------|
| 2 | | | 2 |

12

3) 13 martdan mol-mulk solig'ini to'lovchi bo'lgan yuridik shaxs uchun:

| I chorak uchun soliqni hisoblab chiqarishga mol- mulkning o'rtacha qoldiq qiymati | 1 martga ----- 2 | + ----- 2 | 1 aprelga ----- 12 |
|---|------------------------|-----------------|--------------------------|
|---|------------------------|-----------------|--------------------------|

Soliq solinadigan bazani aniqlash uchun, balans aktivida aks ettiriladigan eskirishni chegirgan holda, buxgalteriya hisobining quyidagi hisobvaraqlari bo'yicha summalar qabul qilinadi:

asosiy vositalarni hisobga olish hisob varaqlari;

uzoq muddatga ijara qilinadigan asosiy vositalarni hisobga olish hisob varaqlari;

nomoddiy aktivlarni hisobga olish hisob varaqlari;

tugallanmagan qurilishni (belgilangan muddatlarda qurilishi tugallanmagan obyekt qismida) hisobga olish hisobvaraqlari;

o'matishga mo'ljallangan uskuna (me'yor muddatlarida o'matilmagan uskuna qismida) hisobga olish hisob varaqlari.

4-§. Korxonalarda mol-mulkni qayta baholanishi va uning soliq obyektiga ta'siri

Mol-mulk solig'i stavkasi. Soliq stavkalari quyidagicha:

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga 3 % stavkasi bo'yicha soliq solinadi.

Me'yordagi muddatlarda o'matilmagan uskuna uchun mol-mulk solig'i ikki baravar ko'paytirilgan stavka bo'yicha to'lanadi.

Eksport mahsuloti ishlab chiqaradigan va uni mustaqil ravishda yoki ixtisoslashgan tashqi savdo birlashmalari va firmalari orqali sotadigan, vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, konsernlar, uyushmalar va kompaniyalarning tarkibiy bo'lmalari hisoblangan korxonalar uchun quyidagi miqdorlarda sotishning umumiy hajmida o'zi ishlab chiqargan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning eksportdagisi ulushiga bog'liq holda mol-mulk solig'ining tabaqaqalashtirilgan stavkalari belgilanadi:

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i STAVKALARI

| t/r | To'lovchilar | Soliq solinadigan bazaga nisbatan % larda soliq stavkalari |
|-----|--|--|
| 1 | Yuridik shaxslar | 3,5 |
| 2 | o'zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valutadagi hissasi quyidagi miqdorlami tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun: | |
| | sotishning umumiy hajmida 15 %dan 30 %gacha bo'lganda | belgilangan stavka 30 %ga pasaytiriladi |
| | sotishning umumiy hajmida 30 %dan 50 %acha ortish bo'lganda | belgilangan stavka 50 %ga pasaytiriladi |

Izoh: Me'yoriy muddatlarda o'matilmagan uskunalar (foydalanilmagan uskunalar) uchun mol-mulk solig'i ikki baravar stavka bo'yicha to'lanadi.

Ko'satilgan imtiyoz savdo-vositachi korxonalarga, shuningdek, erkin almashtiriladigan valutaga xomashyo tovarlari-paxta tolasi, ip gazlama, lint, neft, neft mahsulotlari, gaz kondensati, tabiiy gaz, elektr energiyasi, qimmatbaho, rangli va qora metallarni eksport qiladigan ishlab chiqarish korxonalariga tatbiq etilmaydi.

Soliq bo'yicha imtiyozlar.

Quyidagi yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solinmaydi:

a) notijorat tashkilotlarning mol-mulkiga, tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniладigan mol-mulkdan tashqari;

soliq solish maqsadida notijorat tashkilotlar deganda quyidagilar tu-shuniadi:

faqat davlat byudjeti mablag'lari hisobiga moliyalanadigan, tasdiqlangan smetalar doirasida xarajatlarni qoplashga budjetdan dotatsiyalar ola-digan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar;

xayriya birlashmalar, uyushmalar va jamg'armalar, xalqaro tashkilotlar, diniy birlashmalar va boshqa tashkilotlar;

1) ijtimoiy-xayriya yoki boshqa maqsadlar uchun barpo etilgan, tadbirkorlik faoliyati uchun daromad olishni ko'zlamasligi ta'sis hujjalariada qayd etilganlari;

2) moliyaviy va boshqa mablag'larni mazkur tashkilotning xodimlari, muassislar yoki a'zolarining shaxsiy manfaatlari uchun taqsimlamaydigan va investitsiyalamaydiganlari (mehnat uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqqidlashlardan tashqari);

b) xalq ta'limi va madaniyat muassasalari ehtiyojlari uchun foydalilaniladigan mol-mulkka;

d) uy-joy-kommunal xo'jaligi va boshqa umumfuqarovi yahamiyatga molik shahar xo'jaligining mol-mulkiga;

e) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilar» uyushmasining mulkida bo'lgan, ishlövchilari umumiyl sonining kamida elliq foizini nogironlar tashkil qilgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga, savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanadiganlari bundan mustasno;

f) yangi tashkil etilgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga, ro'yxatdan o'tgan paytidan e'tiboran ikki yil mobaynida. Mazkur imtiyoz tugatilgan (qayta tashkil etilgan) korxonalar, ularning filiallari va tarkibiy bo'linmalarning ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlari negizida tashkil etilgan korxonalarga, shuningdek, korxonalar huzurida tashkil etilgan yuridik shaxslarga nisbatan, basharti ular ana shu korxonalardan ijara olingan asbob-uskunalarda ishlayotgan bo'lib, qo'llanilmaydi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va mahalliy hokimiyat organlari (o'z hududida mol-mulk joylashgan soliq to'lovchilarga nisbatan) tomonidan qo'shimcha imtiyozlar berilishi mumkin.

Mol-mulk soliq'i hisoblab chiqarilayotganida soliq solinadigan baza quydagilarning qiymatiga kamaytiriladi:

a) soliq to'lovchining balansida bo'lgan uy-joy-kommunal va ijtimoiy-madaniy soha obyektlarining;

b) tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadida va yong'inga qarshi xavfsizlik uchun foydalilaniladigan obyektlarning;

Obyektlarni tabiatni muhofaza qilish maqsadlari uchun foydalaniyotganlar toifasiga kiritish tabiatni muhofaza qilish organlarining muayyan obyektlardan tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalanilishi to'g'risidagi ma'lumotnomasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Sanitariya-tozalash maqsadida foydalilaniladigan obyektlar qatoriga tozalagich inshootlari kiradi.

Yong'indan saqlash obyektlariga o't o'chirish depolari, o't o'chirish uchun maxsus qurilgan suv havzalari, o't o'chirish jihozlari o'matilgan taxtalar kiradi.

g) mahsulot o'tkazgichlar, aloqa yo'llari (shu jumladan, avtomobil yo'llari), aloqa va energiya uzatish liniyalarining, shuningdek, ularni foydalanimishga yaroqli holda saqlab turish maqsadida ko'rilgan inshootlarning.

Mahsulot o'tkazgichlarga quydagilar kiradi:

neft, neft mahsulotlari, kondensat quvurlari va quvur transportining boshqa turlari, nasos, kompressor hamda taqsimlash stansiyalari bilan birga;

uy-joy-kommunal obyektlari bo'limgan mintaqaviy gaz, bug kuvurlari, issiqlik trassalari, suv quvurlari, kanalizatsiya kollektorlari;

buxgalteriya hisobotida alohida obyektlar sifatida hisobga olinadigan alohida joylashgan seklar, konlar va karerlarning ayrim uchastkalari orasidagi mahsulotlarni harakatlantirish uchun ishlataladigan yer osti, yer usti va havoda joylashtirilgan har xil ko'rinishdagi kuvurlar va transportyorlar.

Aloqa liniyalariga havo aloqa liniyalarini, ularga ilib qo'yilgan simlar va aloqa kabellari, ustunli radiofiksatsiya aloqa liniyalarini, ularni belgilaydigan signal va o'Ichov ustunlari (qoziqlari), radiorele aloqa liniyalarini, kabelli telefon kanalizatsiyasi, yer usti va yer ostidagi ularga xizmat qilinmaydigan kuchaytirish (regeneratsiya qilish) punktlari, taqsimlovchi shkaflar, qutilar, yerga ulangan sim konturlari va boshqa aloqa inshootlari kiradi.

Energiya uzatish liniyalariga havo va kabelli elektr uzatish liniyalarini kiradi.

Soliq solish maqsadida ularni foydalanishga yaroqli holda saqlab turish maqsadida qurilgan inshootlarga ustunlar, tabiiy va sun'iy to'siqlardan o'tishlar va boshqa muhofaza inshootlari kiradi.

- d) aloqa yo'ldoshlarining;
- e) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra to'xtatib qo'yilgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;
- f) shahar yo'lovchilar transportining (taksidan, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari), shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashiydigan umumiy foydalanishdagi avtomobil transportining (taksi, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari);

- d) yo'l hujaligi korxonalarining yo'llarni ta'mirlash va saqlash ishlarida band bo'lgan transport vositalarining;

- h) davlat dasturlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari uchun kadrlar tayyorlashda foydalaniладigan transport vositalarining.

- i) lizingga olingan mol-mulkning, lizing shartnomasining amal qilish muddatiga.

Soliq to'lovchinining balansida bo'lgan tadbirkorlik faoliyatida foydanilayotgan fuqaroni himoyasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlarning;

Chet el krediti hisobiga olingan uskunalarining, shu kreditni qoplash muddatiga, lekin besh yildan ortiq bo'limgan muddatga.

Soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi amalga kiritilishiga qadar qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugashiga qadar saqlanadi.

Soliq to'lash tartibi.

Yuridik shaxslar budjetga joriy to'lovlar summasini hisobot yili mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan va soliq stavkasidan kelib chiqib mustaqil ravishda belgilaydilar.

Budjetga joriy to'lovlarini to'lash har oyning 20-kunidan kechiktirmay, yillik soliq summasining 1/12 qismi miqdorida to'lanadi. Budjetga joriy

to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash uchun soliq to'lovchilar mol-mulkning tegishli yilga o'ttacha yillik qoldiq qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqadilar va joriy yilning 10 (o'ninchi) yanvariga chiqarishda davlat soliq xizmati organlariga yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ini hisoblash to'grisidagi Yo'riqnomanning 6-ilovasiga binoan shaklda ma'lumotnomma taqdim etadilar.

Birinchi chorak, yarim yillik, 9 oy va yil tugashi bilan to'lovchi hisobot davri uchun mol-mulkning haqiqatda o'ttacha qoldiq qiymatidan kelib chiqib yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan mol-mulk solig'i hisob-kitobini mustaqil ravishda amalga oshiradi va uni davlat soliq xizmati organlariga moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi. Taqdim qilingan hisob-kitobdan kelib chiqib hisoblangan mol-mulk solig'ining summasi choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni topshirish uchun belgilangan muddatdan keyin besh kun ichida o'tkaziladi.

Mol-mulkning qoldiq qiymati va imtiyoz taqdim etish muddatini ko'rsatgan holda korxona mol-mulki o'ttacha qoldiq qiymatining hisob-kitobi va soliq undirilmaydigan mol-mulk ro'yxati mol-mulk soligining hisob-kitobiga majburiga ilovalar hisoblanadi.

Mahsulot eksportini amalga oshiradigan eksportchi korxonalar mol-mulk solig'i hisob-kitobini taqdim etayotganlarida mazkur yuriqnomanning 5-ilovasiga binoan eksport qilinadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ga doir ma'lumotnomani taqdim etadilar.

Eksportchi korxonalar eksport ulushi 15 dan 25 %gacha bo'lganda hisob-kitob shaklida 2-satning 3-ustunida soliq stavkasini kasr chizig'i orqali ko'rsatadilar (2 %; 0,6 %).

Ortiqcha to'langan soliq summalarini, agar soliqlar va yig'imirlar bo'yicha qarz mavjud bo'lmasa, to'lovchining yozma arizasiga ko'ra bo'lg'usi to'lovlar hisobiga qayd etiladi yoki 30 kun ichida qaytariladi.

Budjet bilan hisob-kitoblarning buxgalteriya hisobi budjetga to'lovlar bo'yicha qarznini hisobga olish hisobvarag'i bo'yicha yuritiladi.

Hisoblab yozilgan soliq summasi quyidagicha aks ettiriladi:

davr xarajatlarini hisobga olish hisobvaragi debeti;

budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarini hisobga olish hisobvarag'i krediti.

Budjetga o'tkazilgan soliq summalarini quyidagicha aks ettiriladi:

budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarini hisobga olish hisobvaragi debeti;

pul mablag'larini hisobga olish varag'i krediti.

Belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektlari va me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskuna uchun mol-mulk solig'ini to'lash tartibi:

1. Belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyekti uchun mol-mulk solig'ini to'lovchilar bo'ladi qurilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar-buyurtmachilar hisoblanadi.

Soliq solish obyekti bo'ladigan belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektining qiymati (smetalar, smeta-moliya hisob-kitoblari va kapital qurilish titullari ro'yxatida ko'zda tutilgan bino va inshootlarni ko'-

rish, uskunalar, asboblar, asbob-uskunalarni va boshqa predmetlarni sotib olish xarajatlari (qurilish pudrat yoki xo'jalik usuli bilan qurilishidan qat'i nazar), ya'ni buyurtmachi tomonidan f-3 shaklida (bajarilgan ishlar va xarajatlar hajmi to'g'risida ma'lumotnomasi) rasmiylashtirilgan statistika hisobiga obyekt bo'yicha kiritilgan va tugallanmagan qurilish hisobvarag'ida hisoblanadigan hamma ishlar va xarajatlar (belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektlari qismida) hajmi hisoblanadi.

Qurilishning belgilangan muddati deb qurilishni tashkil qilish loyihasi (KTKL) tarkibida 1.04.03-85-son KMK «Korxonalar, binolar va inshootlarni qurish muddati me'yorlari»ga muvofiq loyihalash tashkiloti tomonidan aniqlanadigan obyekt qurilishining me'yoriy muddati hisoblanadi.

Loyihalash tashkilotlari loyiha-smeta hujjatlarida tayyorchash muddatlarini ajratgan holda qurilish muddati me'yorini ko'rsatishlari shart. Loyiha-smeta hujjatlarida qurilish muddati me'yorini ko'rsatilmagan taqdirda, buyurtmachi loyihalash tashkilotidan muayyan obyekt bo'yicha qurilish muddatining me'yori to'g'risida xulosa olishga majbur.

2. Me'yordagi muddatda o'matilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig'ini to'lovchilar bo'ladi kapital mablag'lar hisobiga qayta jihozlanadigan obyektlarda montaj qilish talab qilinadigan va o'rnatishga belgilangan texnologik, energetik va ishlab chiqarish uskunalar bo'lgan (ustaxonalar, tajriba qurilmalari va laboratoriylar uchun, uskunalarni qo'shib) yuridik shaxslar hisoblanadi.

Me'yordagi muddatda o'matilmagan uskunalar uchun soliq solish obyekti bo'ladi o'rnatishga belgilangan uskunalar qiymati hisoblanadi, ular qatoriga montaj qilishni talab qiladigan, faqat qismlarini yig'ish va poydevorga yoki ustunlarga, polga, qavatlararo to'siqlarga va boshqa bino va inshootlarni ko'tarib turuvchi konstruktsiyalarga o'matiladigan uskunalar hamda uskunalarni hisobga olish hisobvarag'ida hisoblanadigan shunday uskunalarning ehtiyoj qismlar to'plami (me'yordagi muddatda o'matilmagan uskunalar qismida) hisoblanadi. Ushbu uskunalar tarkibiga o'matiladigan uskunalar qatorida montaj qilish uchun belgilangan nazorat-o'ichov apparaturasi yoki boshqa asboblar ham kiradi.

Korxonalar, binolar va inshootlar qurilishiда tasdiqlangan qurilish muddati va tayyorlab qo'yilgan zaxiralar me'yoriga muvofiq har bir obyekt bo'yicha texnologik yoki boshqa uskunalarini yetkazib berish va montaj qilish jadvali belgilangan bo'lishi lozim.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan va import qilingan uskunalarini yetkazib berish va montaj qilish jadvalida quyidagi muddatlarda topshirish hisobga olinadi:

- yirik texnologiya va energetika uskunaları – ularni nomma-nom ro'yxatlari bo'yicha montaj qilish va yetkazib berish jadvallarining rejadagi muddati o'tib ketgandan keyin;

- texnologiya uskunaları, texnologiya liniyalari, qurilmalar va boshqa umumizavod uskunaları – uskunalarini montajga topshirishining rejadagi muddati o'tgandan keyin, lekin olti oydan ortiq bo'lmagan muddatda;

– komplekt import uskunaları – ularni montajga topshirishning rejadagi muddati o'tib ketgandan keyin, lekin bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga, agar texnik shart-sharoitlariga ko'ra uskunani qismlar bo'yicha montaj qilish mumkin bo'lmasa, ularni montajga topshirish muddati uskunalar butun komplektining kelib tushishi paytidan hisoblanadi;

– qismlarga ajratilgan import uskunaları, shuningdek, kabel mahsulotlari, simlar va troslar – ularni montajga topshirishning rejadagi muddati o'tgandan keyin, lekin olti oydan ortiq bo'lmagan muddatda.

Uskunalarini montaj qilish va o'matish uchun me'yordar va jadvallar bulmaganida soliq quyidagi muddatlarda to'lanadi:

– ishlab chiqarish maqsadlaridagi obyektlar bo'yicha mamlakatimizda ishlab chiqarilgan va import qilingan uskunalarining o'matilmaganligi uchun – sotib olinganiga bir yillik muddat to'lganidan keyingi oydan boshlab;

– noishlab chiqarish maqsadlaridagi obyektlar bo'yicha – sotib olinganiga olti oy tugagandan keyin;

– montajni talab qilmaydigan xo'jalik inventarlari va uskunalarini bo'yicha – sotib olingan kundan boshlab.

Uskunalarini yetkazib berish va montaj qilishning yuqorida ko'rsatilgan muddatlarini buzganligi uchun korxona va tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, mol-mulk solig'ini ikki baravar ko'paytirilgan stavka bo'yicha to'laydilar.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'ini to'lovchilarga kimlar kiradi?
2. Mol-mulkning o'rtacha yillik (choraklik, 6 oylik, 9 oylik) qoldiq qiymati qanday tartibda hisoblanadi?
3. Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i stavkasini kim belgilaydi va bu soliqdan qanday imtiyozlar mavjud?
4. Mol-mulk solig'ini hisobini taqdim etish tartibi va soliqni to'lash muddatlari qanday?

XII bob. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN MOL-MULK SOLIG'I

1-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'inining iqtisodiy mohiyati

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq – bu bevosita soliq bo'ladi, u o'zining ushbu sisati bilan moddiy boyliklarni olish va jamg'arish jarayonida undiriladi. Bu real soliqdir, («real» atamasi (inglizcha real – mulk) ayni ushbu soliq birinchi galda fuqaro egalik qilinadigan mol – mulk solinishi bilan bog'liq). Bu muntazam soliq hisoblanadi, ya'ni u yarim yilda bir marta muntazam ravishda undiriladi. Nihoyat bu hududiy soliq bo'ladi, u O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan va unda ro'yxatga olingan ko'chmas mulk va transport vositalari (2002-yil 1-yanvardan transport vositalari dvigatel quvvatidan olinadigan soliq bekor qilingan) uchun to'lanadi. Mol-mulk solig'i mutanosib (proporsional) va shedulardir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni huquqiy tartibga solishning asosiy manbalariga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 29-dekabrdagi 478-sonli «Jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo'lgan bino va inshootlarni baholash va qayta baholash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'grisida»gi qarori (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 9-dekabrdagi 591-sonli «Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini tasdiqlash to'g'risida»gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan), O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan «Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqish va budgetga to'lash tartibi to'g'risida» yo'rinqoma ishlab chiqildi. Ilgari ushbu soliqning undirib olinishi 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan «Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinar edi.

Respublika fuqarosi, boshqa davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs, O'zbekiston rezidenti yoki norezidenti bo'lishidan qat'iy nazar soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 90-moddasiga muvofiq soliqqa tortiladigan obyektga: 1) uy-joylar, 2) kvartiralar, 3) bogdorchilik va o'zumchilik shirkatlari a'zolarining chorborg' va bog' uylari 4) garajlar va boshqa imoratlar, bino va inshootlar kiradi hamda yuqoridagi mol-

mulkka ega bo'lgan jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilardir. Bundan tashqari, 2002-yil 1-yanvargacha jismoniy shaxslarning mulki bo'lgan avtomobillar, motorli qayiqlar, vertolyotlar, samolyotlar va boshqa transport vositalari dvigatellarining quvvati soliq solish obyekti bo'lib hisoblangan. Lekin 2002-yil 1-yanvardidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 31-dekabrdagi «Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar proqnozi va 2002 yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining parametrlari to'g'risida»gi 490-son qaroriga muvofiq Jismoniy shaxslarning transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatsanlik uchun iste'moli solig'i joriy etildi.

Umuman olganda, «soliq solish obyekti» va «soliq solish predmeti» tushunchalarini farqlash zarur. Bu farq ayni jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqqa nisbatan yanada yaqqol namoyon bo'ladi, u soliqning subyektini aniqlaydi va u bilan ma'lum huquqiy aloqada, jumladan, mulk huquqiy munosabatlarda bo'ladi. Shunga e'tiborni qaratamizki, 1998-yil 13-yanvardagi 392-sonli Yo'riqnomha (2-bandida)da O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksidan (89-modda) farqli o'laroq, shunday belgilanadiki, soliq «o'z ixtiyorida mol-mulkka ega bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi». Mazkur yo'riqnomaning 5.3-bandida shuni belgilaydiki, soliq bo'yicha imtiyozlar faqat tovar mulk imtiyoz oluvchiining o'z mulki bo'lgan_holler-dagina beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 29-dekabrdagi 478-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo'lgan bino va inshootlarni baholash va qayta baholash to'g'risida» nizomning 4-bandida shunday deyiladi: «*Foydalaniш uchun qabul qilingan va mahalliy texnik ro'yxatdan o'tkazish idorasida ro'yxatga olingan, jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo'lgan uy-joylar, kvartiralar, bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari a'zolarining chorborg' va bog uylari, garajlar va boshqa imoratlari, binolar va inshootlar soliq solish uchun baholash obyekti hisoblanadi*».

Soliq solish obyekti – bu subyektning soliq to'lash majburiyatini shart qilib qo'yuvchi yuridik dalillardir (mazkur holatda mulkchilik huquqida mol-mulkka egalik qilish bunday yuridik dalil hisoblanadi).

Soliq solish predmeti (atama mazmuniiga ko'ra soliq solish obyektiga yaqin) – bu tegishli soliqning undirilishini asoslab beruvchi daliliy xususiyatdagi belgilardir. Masalan, uy, kvartira kabi mol-mulk uchun mulkchilik huquqi obyekti bo'ladi, uy yoki kvartiraning o'zi esa soliq solish predmeti hisoblanadi va h.k.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 29-dekabrdagi 478-sonli qaroriga muvofiq jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo'lgan uy-joylar, kvartiralar (shu jumladan, xususiyathtirilgan kvartiralar), garajlar, boshqa imoratlarni bahaolash va qayta baholash uchun yagona funksional ko'rsatkich-imorat, bino umumiyl maydonning kvadratmetri belgilanadi. Bu esa soliq solish birligidir.

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 93-moddasi soliq bo'yicha imtiyozlarga ega bo'lgan shaxslar doirasini tartibga soladi. Uning tahlili

shuni ko'rsatmoqdaki, qonun chiqaruvchi har qanday mol-mulk solig'idan ozod etiladigan jismoniy shaxslarning qator toifalarini ajratadi, jismoniy shaxslarning boshqa guruhi lariga esa, faqat imoratlar, binolar va inshootlar uchun soliq to'lash bo'yicha imtiyozlar berdi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo'mitasining «Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqish va budjetga to'lash tartibi to'g'risida» yo'riqnomaga muvofiq jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini hisoblash soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mol-mulk solig'idan imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan kishilar soliq xizmati organlariga kerakli hujjatlarni taqdim etadilar.

Imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha mol-mulk solig'i har yili I-yanvardagi holati yuzasidan kommunal xizmat ko'rsatish imoratlari beradigan inventarizatsiya qiymatiga doir ma'lumotlar asosida, ma'lumotlar bo'limgan taqdirda esa mazkur obyektlarning qiymati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrdagi PQ-532 soni qarorining 14-ilovasiga asosan, ya'ni jismoniy shaxslar mol-mulkni baholash bo'yicha organlar belgilangan inventarizatsiya qiymati bo'lmasa soliq undirish uchun Toshkent shahari va viloyat markazlarida 2100 ming so'm boshqa shaharlar va qishloqlarda 920,0 ming so'm miqdordagi mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi hamda shu asosida 2007-yil 1-yanvardan boshlab soliqqa tortiladi.

Imoratlar, binolar va inshootlar bir qancha mulkdorlarga tegishli umumiy hissali mulk egalari bo'lganda soliq har bir mulkdorming imoratlari, binolar va inshootlardagi hissasiga qarab hisoblanadi.

Yangi qurilgan yoki sotib olingen mulklar bo'yicha soliq kelgusi yil boshidan boshlab hisoblanadi.

Meros bo'yicha mol-mulkdan soliq merosxo'rillardan meros ochilgan paytdan boshlab undiriladi. Mol-mulk yo'q qilingan, butunlay vayron bo'lgan oydan e'tiboran to'xtatiladi.

Mol-mulkka mulk huquqi kalendar yil davomida bir mulkdordan boshqasiga o'tganda soliqni birinchi mulkdor o'sha yilning 1-yanvaridan bu mol-mulkka mulk huquqini o'qtgan oyning boshigacha to'laydi, ya'ni mulkdor esa mulk huquqini qo'lga kirtgan oydan e'tiboran to'laydi.

Kalendar yil davomida imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda mol-mulk solig'i ana shunday huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran qayta hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash usuli – *kadastrli usul* hisoblanadi. Soliqni bunday usul bilan to'lashning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, mol-mulkka uning tashki belgilari, mo'ljalanayotgan daromad asosida soliq solinishi bois, soliqni to'lash vaqtি daromadni olish vaqtি bilan hech qanaqa bog'liq emas va shu munosabat bilan mol-mulk solig'ini to'lash uchun qatiy muddat belgilanadi. Jumladan, mol-mulk solig'i teng ulushlarda ikki muddatda – 15-iyun va 15-dekabrdan kechiktirmay to'lanadi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 95-moddasi).

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solish predmeti joylashgan joydagi soliq organi tomonidan hisoblab chiqiladi, bunda soliq organi tomonidan yozib beriladigan to'lov xabarnomasi to'lovchilarga har yili joriy yilning 1-mayidan kechiktirilmay topshiriladi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 95-moddasi 8-qismi). Shunday qilib, soliq to'lovchining roli go'yki passivdir.

Soliqlar bo'yicha to'lovlar faqatgina soliq solish predmeti joylashgan joydagi mahalliy budgetga o'tkaziladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq uning har yili 1-yanvar holatiga ko'ra ro'yxatga olish (invetarizatsiya) qiymatiga nisbatan % hisobida hisoblab chiqariladi. Agar imoratjar, binolar va inshootlarning ro'yxatga olish qiymati haqidagi ma'lumotlar bo'lmasa, u holda soliq ushbu mulknинг davlat majburiy sugurtasi bo'yicha summalarini hisoblash uchun belgilangan qiymatidan, shuningdek, har yi ning 1-yanvar holatiga ko'ra baholanishidan chiqqan holda hisoblab chiqiladi.

2002-yil 1-yanvardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 31-dekabrdagi «Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar progozi va 2002-yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining parametrlari to'g'risida»gi 490-son qaroriga muvosiq joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilig'isi va suyultirilgan gaz iste'moliga solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo'mitasining yo'rinqomasida belgilab berilgan.

Yuriqnomaga muvosiq ushbu soliq turi bo'yicha soliq summasi jismoniy shaxslarga sotiladigan benzin, dizel yoqilig'isi va suyultirilgan gaz uchun mablag' to'lanishi bilan bir vaqtda undiriladi va soliq summasi quydagi formula bo'yicha hisoblanadi:

NqV · St,

Bu yerda:

N-hisoblab yozilgan soliq;

V-jismoniy shaxslarga sotilayotgan benzin, dizel yoqilig'isi va suyultirilgan gazning natural ifodadagi hajmi;

St-soliq stavkasi.

Soliq summasi chakana narxga qo'shimcha ravishda belgilanadi va jismoniy shaxs-xaridorga berilgan chekda alohida satr bilan ko'rsatiladi.

Hisoblab chiqarilgan va ushlangan soliq summasi hujalik yurituvchi subyektlar uchun tushum deb hisoblanmaydi hamda boshqa to'lanadigan soliqlar, yig'implar va majburiy to'lovlar bo'yicha soliq obyekti bo'lmaydi.

Budgetga soliq to'lovchilar sotilgan benzin, dizel yoqilig'isi va suyultirilgan gaz hisobi hamda hisoblangan soliq summalarini hisobini alohida yuritadilar.

Budget bilan hisob-kitoblar hisobi «Budget bilan hisob-kitoblar» hisob-varag'i bo'yicha — «Jismoniy shaxslardan olinadigan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilig'isi va suyultirilgan gaz iste'moliga soliq» ilova hisobvarag'ida yuritiladi, soliqni o'tkazish «hisob-kitob varag'i» hisob-varag'i bo'yicha aks ettiriladi.

Soliq mahalliy budjetga O'zbekiston Respublikasi budjetlari daromad va xarajatlarining tegishli tasnifiga ko'ra bulim va paragrafga to'lanadi.

Soliq bank muassasalarini orgali har o'n kunda, benzin, dizel yoqiligi va suyuldirilgan gaz jismoniy shaxslarga sotilgan oy un kunligi tugaganidan so'ng uchinchini kundan kechiktirmay to'lanadi.

Joriy o'n kunlik to'loviar hisobiga olingen soliq bo'yicha hisob-kitob avtomobilga yonilg'i qo'yish shoxobchalari joylashgan erdag'i davlat soliq xizmati organlariga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay taqdimga etiladi.

2-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lovchilari, obyekti va soliq stavkalari

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini to'lovchilari bo'lib, soliq solinadigan mol-mulkga ega bo'lgan fuqarolar hisoblanadi.

Demak, bu yerda mol - mulk soliq obyekti hisoblanadi. Ammo jismoniy shaxslarning hamma mulki emas, faqat quyidagi mulklari mol-mulk solig'i obyekti hisoblanadi:

- a) uy-joylari;
- b) kvartiralari;
- c) chorborg' va bog' uylari;
- e) garajlar va boshqa imoratlar;
- f) binolar va inshootlar qiymati (inventar qiymati).

Qisqacha qilib aysak, imoratlr va inshootlar qiymati mol-mulk solig'i obyekti hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i stavkasini har yili kelgusi moliya yili uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qaror bilan tasdiqlanadi.

Masalan: 2007-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiining 2006-yil 18-dekabrdagi 532-sorli qarori bilan jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining quyidagi stavkasi belgilangan:

| | o'lchov birligi | Soliq stavkasi |
|---|-----------------|----------------|
| Turar joylar, kvartiralari, dala hovlilar, garajlar va boshqa imoratlar, binolar va inshootlar kiyamatidan kelib chiqib: 1-yanvar 1998-yildan qayta baholangan % bo'ladi; | | |
| | | 0,5 |

Jismoniy shaxslar mulki qiymati qayta hisoblanmagan bo'ladi, Toshkent shahri va viloyatlar markazlarida shartli ravishda 2100 ming. so'm; boshqa shaharlar va qishloq joylarida 220 ming. so'm qilib olinadi.

Masalan: fuqaroning uy joylari Toshkent shahrida joylashgan, 1998-yil 1-yanvardan qayta hisoblangan qiymati 1200 ming sum. Bu fuqaro 2003-yilda 6-ming sum mulk solig'i to'lashi kerak. Bordiyu, fuqaro mulkining

qiymati qayta baholanmagan bo'lsa, Toshkent shahrida 2100 ming so'm qilib olinadi va budjetga 10,5 ming so'm mol-mulk solig'i to'laydi.

3-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'idan imtiyozlar

Quyidagi jismoniy shaxslarning mulkiga (imoratlar, binolar va insho-otlar) soliq solinmaydi:

«O'zbekistan Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlarning;

1941-1945 yillardagi urush qatnashchilari va partizanlari, ularga tenglashtirilgan shaxslar, ichki ishlar va davlat xavfsizligi organlari tarkibida xizmat qilgan shaxslarning, harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda shtatdagi lavozimlarni egallagan shaxslar. Leningrad shahri qamalida bo'lganlarning va konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari, xizmatini Afg'oniston Respublikasida va jangovor harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'indiriga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlarning;

Qahramon onalar, shuningdek, o'n nafar va undan ortiq farzandi bor ayollarning;

Chernobil AESdagagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar olayotgan fuqarolarning (shu jumladan, u yerga vaqtinchalik xizmatga yuborilganlartungi);

Pensionerlarning, shuningdek, I va II guruh nogironlarining;

muddatli xizmat harbiy xizmatchilarini va ularning oila a'zolarining xizmatni o'tash davrida;

harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishda yarador, kontuziya bo'lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida yoki frontda bo'lish tufayli orttirilgan kasallik oqibatida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va boshqa turmush qurmagan rafiqalarining (erlarining).

O'zbekistan Respublikasi Mudosaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, milliy xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilarini jumlasidan bo'lgan nogironlarning ichki ishlar organlarining xizmat vazifasini ado etayotganda yarador, kontuziya bo'lgan yoki shikastlanganlik oqibatida nogiron bo'lib qolgan boshliqlar va oddiy xizmatchilar jumlasidan bo'lgan shaxslarning mulklari soliqdan ozod etiladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan imtiyozlar mol-mulk egasining tanloviga binoan, mol-mulkning faqat bir obyektiqa taalluqli bo'ladi. Massalan, ikkita uy bo'lsa, bittasiga beriladi.

Mol-mulk solig'i to'lovchi jismoniy shaxslar – pensionerlar uchun foydalananayotgan 60 kv.metrga soliqdan imtiyoz beriladi. Undan ortig'i umumiyl belgilangan tartibda soliqqa tortiladi.

Yil mabaynida soliq to'lovchilarda mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz olish huquqi paydo bo'lgan, taqdirda ularga soliq to'lashdan imtiyoz huquqi paydo bo'lgan oydan boshlab beriladi.

Yil davomida mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz yo'qotilgan holatda mulklarni soliqqa tortishdan imtiyoz huquqi yuqotilgan oydan keyingi oydan boshlab soliqqa tortiladi.

Imtiyozlar faqat mol-mulk imtiyoziga ega bo'lgan shaxsning mulki bo'lgandagina berilishi mumkin.

4-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblash va to'lash muddatlari

Jismoniy shaxslarning mol - mulkiga solinadigan soliq soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi.

Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar zarur hujjatlarini soliq idoralariga taqdim etadir.

Bir necha mulkdorning ulushbay asosidagi umumiy mulki bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i har bir mulkdorning mulkdagi ulushiga munosib ravishda to'lanadi. Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha soliq ular barpo etilgan yoki olingan yildan keyingi yilning boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulkdan soliq merosxo'rlardan meros ochilgan paytdan boshlab undiriladi.

Mol-mulk yo'q qilingan, butunlay vayron bo'lgan hollarda mol -mulk solig'i undirish ular yo'q qilgan yoki butunlay vayron bo'lgan oydan e'tiboran to'xtatiladi.

Mol-mulkka mulk huquqi kalendar yil davomida bir mulkdan boshqasiga o'tganda soliqni birinchi mulkdor o'sha yilning 1-yanvaridan bu mol-mulkka mulk huquqini yo'qotgan oyning boshigacha to'laydi yangi mulkdor esa-mulk huquqini qo'lga kiritgan oydan e'tiboran to'jaydi. Kalendar yil davomida imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda soliq ana shu huquq vujudga kelgan oydan boshlab qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomalari to'lovchilarga soliq idoralari tomonidan har yili 1-maydan kechiktirmay topshiriladi. Soliq teng ulushlarda ikki muddatda 15 iyun va 15-dekabrdan kechiktirmay to'lanadi. Soliq ortiqcha to'langan bo'lsa, agar uning soliqlar va yig'imirlar bo'yicha qarzi bo'limasa, bu summalar soliq to'lovchiga uning yozma arizasiga ko'ra 30 kun ichida qaytarib beriladi yoki kelgusi to'lovlardan hisobiga o'tkaziladi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i to'lovchilar kimlar?
2. Mulklarning qiymati qanday tartibda hisoblab chiqiladi va uning stavkalari qanday?

3. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i stavkasini kim belgilaydi va bu soliqdan qanday imtiyozlar mavjud?
4. Mol-mulk solig'ini hisobini taqdim etish tartibi va soliqni to'lash muddatlari qanday?

XIII bob. YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN YER SOLIG'I

1-§. Yer solig'ini soliq tizimiga joriy etishning asosiy sabablari va uning iqtisodiy mohiyati

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan huquqiy va jismoniy shaxslar o'rtaida vujudga keluvchi obyektiv majburiy to'lovlariga asoslangan moliyaviy munosabatlar orgali xarakterlanadi. Bu moliyaviy munosabatlar maxsus ijtimoiy harakterga ega bo'ladi, milliy daromadning bir qismi bo'lgan pul mablag'larini davlat ixtiyoriga safarbar qilishga xizmat qiladi.

Yuqorida fikrlardan kelib chiqqan holda soliq tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: «Soliqlar davlat va jamiyatning pul mablag'-lariga bo'lgan extiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan holda va o'matilgan muddatda jismoniy va yuridik shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir.

Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqadi.

Soliqlarning funksiyalari ularning mohiyatini amaliyotda harakat qilayotganligini ko'rsatadi. Shunday ekan, funksiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko'rsatib turishi zarur. Bugun paydo bo'ladi, ertaga yo'q bo'ladi, ketadigan holatlar soliq funksiyasi bo'la olmaydi. Demak, funksiya kategoriyasi doimiy, qat'iy takrorlanib turadigan vogelikni ifodalaydi. Shunday uslubiy yondashishdan kelib chiqib soliqlar funksiyasini aniqlash kerak.

Soliqlarning funksiyalari masalasida katta bahslashuvlar mavjud, lekin yagona bir fikrga kelingan emas. Ko'pchilik iqtisodchilar soliqlarga fiskal, boshqaruvchi, rag'batlantiruvchi, nazorat funksiyalari xos deb ta'rif berishadi.

Soliqlarning birinchisi funksiyasi yordamida davlat byudjetining daromadi tashkil etilsa, ikkinchisini ham amalga oshira borib, davlat ishlab chiqarishga uning o'sishini rag'batlantirishi yoki vaqtinchalik sekinlash-tirishi, sarmoya jamg'arish jarayonini kuchaytirishi yoki qisqartirishi kabi tadbirlarni amalga oshinishi mumkin.

Soliq amaliyotida soliqlarni undirishning uchta usuli mavjud:

1. Kadastrli.
2. Daromad manbaidan.
3. Daromad egasi daromadni oлganidan so'ng (deklaratsiya bo'yicha).

Birinchi usul, bevosita real soliqlarni hisoblash uchun foydalaniладиган обьектлар (yer, imoratlар va shu kабилар)ning bahosi va o'rtacha daromadлiliги to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan kadastr yoki reestrдан foydalанишими taqwozo etadi.

Oly belgilariга ko'ra tasniflanадиган обьектнинг тавсифномаси кадастринг qurilishiga asos bo'ladi. Masalan, yer kadastrini tuzishda turli tumanlardagi ayni bir xildagi yer uchastkalari sifati, joylashgan joyi, foydalaniшими va boshqa belgilariга ko'ra guruhanadi. Har bir guruh uchun maydon birligining qator yillar uchun o'rtacha daromadлiliги belgilanadi. Boshqa hamma yer uchastkalari maydon birligidan soliq stavkasi belgilangan u yoki boshqa toifaga tenglashtiriladi.

Soliq to'lashning kadastrli usulining o'ziga xos xususiyati sifatida shuni ajratib ko'rsatish kerakki, soliqning to'lanish payti daromadning olinishi payti bilan aslo bog'liq bo'lmaydi, chunki bunday usulda mol-mulk uning taxmin qilinадиган daromadлiliгining tashqi belgilari asosida baholanadi.

Objeктнинг ana shunday belgilarga asosланадиган o'rtacha daromadлiliги uning haqiqiy daromadлiliгидан jiddiy farklanishi mumkin, shuning uchun bunday usul ko'p jihatdan tarixiylik tusiga ega bo'lishi mumkinki, undan soliq apparatni uncha rivojlanmagan holatda qo'llaniladi.

Ikkinchi usulda soliqni soliq subyektiga daromadni to'laydigan yuridik shaxs hisoblaydi va ushlab qoladi. Ishchining ish haqidan, xizmatchining maoshidan daromad solig'i shu tariqa undiriladi. Soliq korxonada xodimning daromadni olishigacha ushlab qolinadi, bu soliqni to'lashdan bo'yin tovplashni istisno qiladi, chunki buxgalteriya soliq solinадиган daromadni va soliq summasini aniq hisob-kitob qilib chiqadi.

Soliqning daromad manbayida to'lanishi shuni anglatadiki, soliq uni deklaratasiyalar bo'yicha to'lashdagи singari soliq idorasи tomonidan hisoblanib ushlab qolinmaydi, balki uni subyektlar jismoni shaxs foydasiga to'lovni amalga oshiradigan to'lov manbalar (korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, boshqa ish beruvchilar) hisoblaydilar va ushlab qoladilar.

Uchinchи usul soliq to'lovchilarning soliq idoralariга deklaratasiyalarni, ya'ni ularning oladigan daromadlari va o'zlariga tegishli bo'lgan soliq imtiyozлari haqidagi rasmiy bayonotni berishini nazarda tutadi. Soliq idoralari soliq deklaratasiyasi va amaldagi soliqqa tortish stavkalari asosida to'lanishi lozim bo'lgan soliq miqdorini nazorat qiladilar. Soliq deklaratasiyasi asosida, odатда, tadbirkorlik faoliyatidan, dehkon (fermer) xo'jaligini yuritishdan olinadigan daromadlar, shuningdek, intellektual faoliyat bilan shug'ullanadigan shaxslar (fan, adabiyot, san'at asarlarining mualliflari, kashfiyotlar, ixtiolar mualiflari, sanoat namunalarini yaratuvchilar va hokazo) daromadlari soliqqa tortiladi.

O'zbekiston Respublikasida yer solig'i kadastrli usulda undiriladi. Bunda yerlarning unumдорлиги (boniteti) hisobga olingan holdagi jadval shaklidagi er solig'ini stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili yangidan tasdiqlanadi.

Kadastri usulda shaharlar va shahar qo'rqonlarida yer soligi stavkalatini ishlab chiqishga ular xududini shahar ayrim tumanlari yerlari hamda infratuzilmasini iqtisodiy baholash qiymati bo'yicha kompleks tarzda baholash asos qilib olingan.

Ma'lumki, shahar hududining qimmati markazdan chekka joylarga qarab nafaqat hududning infratuzilma bilan ta'minlashdagi tasovutlar, balki boshqa omillar ta'siri tusayli ham kamayib boradi. Shu sababli, yer solig'i stavkalarini tabaqalashtirish uchun shahar va q'orq'onlar hududi zonalarga bo'linadi, bunda yerlarni kompleks baholashning qiymati umum tomonidan qabul qilingan, zonaning shahar hosil qiluvchilik rolini, transport bilan ta'minlangani, muhitning jozibadorligi, ekologik holati, yer tebranishlarining bo'lish-bo'lmasisligi, shahar ayrim tumanlarining funksional vazifalarini hisobga oladigan, yer uchastkalarining iste'mol qiymatiga ta'sir ko'rsatadigan koefitsintlarni qo'llagan holda belgilanadi, yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish va yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga stavkalar miqdori, ijtimoiy omillarni e'tiborga oлgan holda, yuridik shaxslar uchun mo'ljallanganidan taxminan o'n bavarav kam qilib belgilangan.

Qishloq xo'jaligida yerdan ishlab chiqarishning asosiy vositasi sifatida foydalaniadi, shuning uchun qishloq xo'jalik ahamiyatidagi yerlar uchun soliq stavkalari yer sifatidan, ya'ni tuproq xosildorligi va yer unumдорлигидан kelib chiqib belgilangan.

Yer solig'i stavkalar, jahon amaliyotida qabul qilinganidek yer qiymatidan kelib chiqib belgilangan. Respublikada yerning bozor qiymati shakllanmagani sababli, 1 hektar sug'oriladigan yerdan olinadigan dehqonchilik yalpi mahsulotining o'rtacha qiymatidan kelib chiqib, uni shartli baholash amalga oshirildi. Jahon amaliyotida yer solig'i stavkalar turli mamlakatlarda turlicha belgilanadi, lekin o'rtacha yer qiymatining salkam 5 % tashkil etadi. Respublika sharoiti uchun qishloq xo'jaligida shakllangan iqtisodiy holatni hisobga olib va uni rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida soliq stavkalar 3 % miqdorida qabul qilingan.

Soliq miqdorlarini yerlar sifati, tabiiy iqlim zonalari bo'yicha tabaqalashtirish maqsadida sug'oriladigan yerlar uchun soliq stavkalar ma'muriy tumanlar bo'yicha, ularni tuproq ball-bonitetlari bo'yicha 10 darajaga bo'lgan holda belgilangan. Tuproq boniteti dehqonchilikning hozirgi darajasida qiyoslama tabiiy hosildorlikning shartli ko'rsatkichi hisoblanadi. Bonitetni aniqlashda tuproqning genetik kelib chiqishi, sug'orishning qancha muddat davom etayotgani, ekin eqilishi, agro-iqlimi resurslar bilan ta'minlangani, mexanik tarkibi, tuproqning xosil bulish genezisi, tuproq qoplaming suv o'tkaza olishi, sho'ranganlik darajasi, eroziyaga uchraganligi, toshloqligi, zichligi hamda tuproqning boshqa tabiiy xossalari hisobga olinadi. Tuproq boniteti 100 balli tizim bo'yicha aniqlanadi.

Lalmi yerlar va yaylovlar zonalar yoki vertikal mintaqalarga bo'lingan, bu yerda yog'inlar bilan turlicha ta'minlanganlik shakllanadiki, ularning unumдорлигидан shu holatlar bilan bog'liqdir.

Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalarining joylashgan joyi bo'yicha soliq miqdorlarini tabaqlashtirish maqsadida ma'muriy va sanoat markazlari atrofidagi stavkalarga 1,1 dan 1,3 ga qadar oshiruvchi koefitsientlar belgilangan.

Yer solig'i va yagona yer solig'ini 2007-yil uchun kadastr shaklidagi yangi stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2007-yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognosi va davlat budgetining parametrlari to'g'risida»gi PQ- 532-sonli qarorida bayon qilingan.

Yer solig'inining soliq tizimida va budget daromadlari tarkibida tutgan o'mni

O'zbekiston bozor munosabatlariga o'ta boshlagach 1990-yilda «Yer to'g'risida»gi qonun qabul qilindi, unga binoan yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning pullik bo'lishi belgilandi. O'zbekiston Pespublikasi Mustaqillikni qo'lga kiritgach 1993-yil 6-mayda O'zbekiston Pespublikasi Oliy Kengashi tomonidan «Yer solig'i to'g'risida»gi maxsus qonun qabul qilindi, unda soliq solishning obyektlari va subyektlari imtizilar soliq to'lash tartibi va hokazolar ancha batafsil belgilab berildi. Qonun 1994-yil 1-yanvardan amalga kiritildi. Qonunda Yerlardan noqishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanadigan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'inining undirish tartiblari belgilab berildi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini ustuvor rivojlantirish zaturligini e'tiborga olib qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar uchun qonunni joriy etish 1995-yil 1-yanvargacha kechiktirildi. Shunday qilib yer solig'inining joriy etilishi bilan mamlakatda yer munosabatlarini tartibga solishning chinakam iqtisodiy vositalari paydo bo'ldi.

1997-yil 24-aprelda O'zbekiston Pespublikasi Oliy Majlisini tomonidan Uzbekiston Pespublikasi Soliq kodeksi qabul qilinishi va 1998-yil 1-yanvardan kuchga kiritilishi bilan yer solig'inining huquqiy asoslari yaratildi.

Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish sharoitida davlat qishloq xo'jaligi korxonalarini soliqqa tortar ekan, bundan fiskal manfaatdorlikni emas, balki soliqlar orqali qishloq xo'jaligini boshqarish, ishlab chiqarishni rivojlantirishni, shuningdek, ularni ijtimoiy himoya qilishni ko'zlaydi. Buni qishloq xo'jaligini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlardan ham ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Pespublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1998-yil 10-oktyabrdagi «Qishloq xo'jalik tovarlarini ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'ini joriy etish tugrisida»gi Farmoniga muvofiq 1999-yil 1-yanvardan boshlab qishloq xo'jalik tovarlarini ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'i joriy qilindi.

Yer uchastkasiga egalik qilish huquqi bor yuridik shaxs yer solig'ini to'lovchi bo'lib hisoblanadi. Soliq qonunlatiga asosan, yer solig'ini hisoblash va budgetga o'tkazib berish majburiyati yuridik shaxsga yuklatiladi.

2-§. Yuridik shaxslar yer solig'ini to'lovchilari va soliq obyekti. Yer solig'i stavkalari va uning hududiy tabaqalashtirish asoslari

Yer solig'ini to'lovchilar bo'lib o'zining mulkida, egaligida va foydalaniishida yer uchastkalari bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Soliqqa tortish maqsadlarida yuridik shaxslar deganda mulkchiligidagi, xo'jalik yuritishda yoki operativ tarzdagagi boshqaruvida mol-mulkka ega bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ana shu mol-mulk bilan javob beruvchi, shuningdek, mustaqil balansga va hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan har xil turdagи korxonalar va tashkilotlar shu jumladan, ularning alohida bo'linmalari tushuniladi.

Yagona soliq to'lashga o'tgan kichik korxonalar, savdo tashkilotlari yer solig'i to'lamaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-oktabrdagi «Qishloq xo'jalik tovarlarini ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'grisida»gi Farmoniga muvofiq qishloq xo'jalik tovarlarini ishlab chiqaruvchilari 1-yanvar 1999-yildan boshlab budgetga to'lanadigan barcha soliq va to'lovlar o'miga yagona yer solig'ini to'laydilar.

Yagona yer solig'i to'lovchilari balmish qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishlari uchun boj to'ovi, litsenziya yig'implari, bularidan tashqari jamq'armalarga ajratmalar, shuningdek, alkogolli mahsulotlarga aksiz solig'ini to'lashning amaldagi tartibi saqlab qolinadi.

Ushbu tartib quyidagilarga tegishli bo'lmaydi:

- o'monchilik, baliqchilik, ovchilik xo'jaliklariga;
- ilmiy tadqiqot tashkilotlari va ilmiy muassasalarining tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklariga;
- mustaqil yuridik shaxslar hisoblanmagan yordamchi qishloq xo'jaliklariga;
- dehqon xo'jaliklariga, ular uchun O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni bilan nazarida tutilgan soliq shartlari saqlanib qolinadi.

Yagona yer solig'ini to'lovchilar quyidagilar hisoblanadi:

1) qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari), fermer xo'jaliklari, agrofirmalar, shuningdek, boshqa qishloq xo'jaligi maxsulotlari ishlab chiqaruvchilar, bu yuridik shaxslar qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan birga boshqa xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishdan qat'i nazar, yagona yer solig'ini to'lovchilar hisoblanadilar;

2) qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar o'z ixtiyoriga ko'ra budgetga kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliqni yoki qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun belgilangan yagona yer solig'ini to'laydilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining to'lovchilari mulkchilik shaklidan qat'i nazar, iqtisodiyotning tarmoq va sohalari bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi:

sanoat korxonalari;

qurilish tashkilotlari;
qishloq xo'jaligi korxonalari;
ta'minot sotish, vositachilik tashkilotlari;
transport;
banklar;
sug'urta tashkilotlari;
savdo korxonalari;
umumiy ovqatlanish korxonalari;
maishiy va kommunal xizmat korxonalari;
madaniy-ma'rifiy, tomosha-ko'ngilochar muassasalar;
meditsina muassasalari birjalar;
aksionerlik jamiyatlari va sherkchiliklari;
mas'uliyati cheklangan jamiyatlar;
jamoat tashkilotlari;
xonijiy firmalar, yuridik shaxs va jismoniy shaxslar ishtirokidagi qo'shma korxonalar;
kichik korxonalar;
kooperativlar;
xo'jalik yuritishning boshqa shaklidagi korxonalar.

Yerni ijara olgan yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, mahalliy hokimiyyat idoralarining qarori bilan ijara olin-gan yerlar uchun yer solig'i o'rniiga budgetga ijara haqi to'laydilar.

Yuridik shaxslarga ajratib berilgan yerlar uchun yer solig'i erdan foydalanish va foydalanimaganidan q'a'tiy nazar soliq to'laydilar.

Soliq kodeksini 97-moddasiga, asosan, yuridik shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari soliq solinadigan obyekti hisoblanadi:

1) qonun hujjatlarda belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;

2) qishloq yoki o'rmon xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

3) korxonalar, binolar va inshootlar qurish uchun yoki qishloq xo'jaligiga taalluqli bo'limgan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun berilgan yer uchastkalari;

4) korxonalar, binolar eki inshootlarga bo'lgan mulk huquqi utishi bilan birga egalik qilish va foydalanish huquqli ham utgan yer uchastkalari.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijara berilgan yer maydoni yagona yer solig'iga tortish obyekti hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi erlarining maydoni va ularning sifati va joylashgan joyi bo'yicha yer balansi, tuproq xarialari, tekshiruv materiallari boshqa yer kodastr hujjatlari bo'yicha qabul qilinadi.

Ixtisoslashgan loyihalash yoki ilmiy tadqiqotchilik institutlari tomonidan tuproq haritalariga tuzatish kirish va erlar sifatini (ball-bonitetlarini) o'zgartirishga doir ishlar olib borilganida bunday ma'lumotlar teqishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va vi-

yatlar hokimliklari tomonidan yer solig'ini hisoblash uchun ushbu ma'lumotlarni qo'llanish muddatini ko'satgan holda tasdiqlanishi lozim.

Yer solig'i stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Qoraqalpoq'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha qishloq xo'jalik yerlariga yagona yer solig'ining muvaqqat bazaviy stavkalari, ma'muriy tumanlar va shaharlar bo'yicha sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari uchun yagona yer solig'ining bazaviy stavkalari, shuningdek, yagona yer solig'i muvakkat bazaviy stavkalarning tuzatish ko'effitsiyentlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Yerlardan noqishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanadigan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari quyidagicha guruhlangan:

- 1) yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan korxona, tashkilot va muassasalardan olinadigan yer solig'i stavkalari;
- 2) lalmikor ekinzorlar, bo'z yerlar va kup yillik kuchatzorlar uchun olinadigan yer solig'i stavkalari;
- 3) cug'orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlardan olinadigan yer solig'i stavkalari;
- 4) o'rmon va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida foydalanilmaydigan boshqa yerlardan olinadigan yer solig'i stavkalari.
- 5) shahar va posyolkalardagi yer uchastkalaridan olinadigan yer solig'i stavkalari;
- 6) qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun korxona, tashkilot va muassasalardan olinadigan yer solig'i stavkalari.

Qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yer uchastkasi mulkdori, yer egasi yoki yerdan foydalanuvchining aybi bilan yomonlashgan (boniteti pasiyib ketgan) taqdirda, yer solig'i erning sifati yomonlashuviga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Shaharlar va shahar posyolkalarining ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jalik ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jalik yerlariga belgilangan stavkalarning ikki baravari miqdorida undiriladi.

Berilgan yerlardan ikki yil davomida foydalanmagan jismoniy shaxslardan yer solig'i uch baravar miqdorda undiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining qaroriga muvofiq yer uchastkalarini ijara olgan yuridik va jismoniy shaxslar yer solig'i o'miga budjetga ijara haqi to'laydilar.

Ijara haqi taraflarning kelishuviga binoan belgilanadi, lekin bu haq qonun hujjatlarida belgilangan yer solig'ining bir stavkasidan kam va uch stavkasidan ko'p bo'lmasligi, yerlardan qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanilgan taqdirda esa-bir stavkasi miqdorida bo'lishi lozim.

Yermi ijara olganlar hisobi, ijara to'lovi hisobini taqdim qilish, ijra to'lovini hisoblash va to'lash yer solig'i bo'yicha belgilangan tartib bilan amalga oshiriladi.

3-§. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari va uning guruhlanishi. Yer solig'ini hisoblash va budgetga to'lash tartibi

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishda davlat soliq imtiyozlardan ham unumli foydalanadi.

Soliq imtiyozlari soliq mexanizmining tarkibiy qismlaridan biri bo'ladi, soliq tizimida muhim o'rinn tutadi. Soliq imtiyozlari vositasida soliqlarning raq'batlantirish va tartibga solish funksiyalari bajariladi.

Soliq imtiyozlari soliq obyekting soliq to'lashdan ozod qilingan qismidir.

Davlat iqtisodiyotni biron-bir tarmog'ini rivojlantirishga rag'batlantirish uchun imtiyozlar tizimidan keng foydalanadi. Tarmoqni yoki biron faoliyat turini rivojlantirishda dastlab keng miqyosda imtiyozlar beriladi, keyinchalik rivojlanish izga tushgandan so'ng soliq imtiyozlarini qaytarib olish boshlanadi.

Davlat iqtisodiyotni biron-bir tarmog'ini rivojlantirishga rag'batlantirish uchun imtiyozlar tizimidan keng foydalanadi. Tarmoqni yoki biron faoliyat turini rivojlantirishda dastlab keng miqyosda imtiyozlar beriladi, keyinchalik rivojlanish izga tushgandan so'ng soliq imtiyozlarini qaytarib olish boshlanadi.

Respublikamiz soliq tizimida ham soliq imtiyozlardan keng foydalanadi. Hozirgi paytda soliq bo'yicha imtiyozlardan asosan chet el investitsiyasini jalb etishda, kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishda, korxonalar va tashkilotlarni investitsion faoliyatini rag'batlantirishda va boshqa maqsadlarda keng foydalanilmoqda. Soliq imtiyozlar juda keng qamrovli bo'ladi, ulami 4 ta yo'nalishga ajratish mumkin:

1-yo'nalish: soliqqa tortish obyekti bilan bog'liq imtiyozlar;

2-yo'nalish: soliqni tulashdan to'liq ozod etish bilan bog'liq imtiyozlar;

3-yo'nalish: soliqni to'lashdan vaqtinchalik ozod qilish bilan bog'liq imtiyozlar;

4-yo'nalish: yangi korxonalamani qayd etish bilan bog'liq va shunga o'xshash imtiyozlar.

Yer solig'idan imtiyozlar ikki xil bo'ladi:

1. Yer uchastkalari soliqdan ozod etiladi.
2. Yuridik shaxslar soliqdan ozod etiladi.

Soliq kodeksining 101-moddasida asosan, soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagi yerlar kiradi:

1) shaharlar, shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlarining umumiyligi foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sohil bo'yulari, ariq tarmoqlari, qabristonlar va boshqalar);

2) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligining, jamoa garajlarining umumiyligi foydalanishdagi yerlari;

3) tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga molik yerlar (davlat qo'nixonalari, milliy va dendrologiya bog'lari, botanika bog'lari, zakazniklar, ov

qilishga mo'ljallanganlari bundan mustasno, tabiat yodgorliklari), ixota daraxtzhorlari egallagan yerlar;

4) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (tarixiy-madaniy qo'riqxonalar, xotira bog'lari, sag'analar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan yerlar);

5) suv fondi yerlari (daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar, den-gizlar, muzliklar, botqoqliklar, gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar, shuningdek, suv havzalari soxiidagi suv xo'jaligi ehtiyojlar uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda berilgan yerlar);

6) elektr uzatish liniyalari, podstantsiyalar, umum davlat aloqa liniylari va ularning inshootlari egallagan yerlar;

7) umumi foydalanishdagi avtomobil yo'llari, temir yo'llarning umumi tarmog'i, umumi foydalanishdagi shahar elektr transporti (shu jumladan, metropoliten) va ularning inshootlari egallagan yerlar;

8) sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalari, suzish havzalari, sportning texnik turlari obyektlari va boshqa jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish komplekslari, onalar va bolalarning dam olish va sog'lomlash-tirish joylari, sanatorijs-kurort muassasalar va dam olish uylari, o'quvmashq bazalari egallagan yerlar;

9) magistral suv quvurlari, neft va gaz quvurlari, magistral kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, suv olish va tozalash inshootlari, shuningdek, suv ta'minoti va kanalizatsiyaga tegishli boshqa obyektlar egallagan yerlar;

10) samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, shu jumladan, ularni yerda boshqarish yo'lkalari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunalar joylashgan yerlar;

11) ishlab chiqarish obyektlari kuriishi uchun ajratilgan (yoki obyektlari egallagan) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan qurilish ishlari to'xtatib qo'yilgan yerlar;

12) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

13) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq xo'jaligi va urmon xo'jaligi sohasidagi ilmiytadkikot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalilaniladigan yerlari;

14) yangi o'zlashtirilayotgan yerlar va meliorativ holatini yaxshilash ishlari olib borilayotgan sug'oriladigan yerlar-loyihada nazarda tutilgan muddatga, lekin ishlar boshlanganidan e'tiboran ko'pi bilan besh yilga;

15) zaxiradagi yerlar;

16) rekreatsion ahamiyatga molik yerlar (aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalarga berilgan yerlar: o'rmon bog'lari, bog'lar, hiyobonlar, plyajlar va boshqalar);

17) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (kasalliklarning oldini olish va odamlarni davolash ishini tashkil etish uchun qulay tabiiy omillarga ega bo'lgan yerlar);

18) yakka tartibda uy-joy kurish va shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun qonun hujjatlarda belgilangan normalar doirasida berilgan yerlar – yer uchastkalari berilgan paytdan e'tiboran ikki yil muddatga.

Yerlardan o'z o'mida foydalanimagan taqdirda ushbu moddada belgilangan imtiyozlar qo'llanilmaydi.

Soliq kodeksining 102-moddasiga asosan quyidagi yuridik shaxslar yet solig'idan ozod qilinadilar:

1) tijorat bilan shug'ullanmaydigan yuridik shaxslar (budgetdan moiliyaviy ta'minlanadigan boshqaruva organlari va ilmiy-tadqot muassasalarini bundan mustasno), yer uchastkalardan tadbirkorlik faoliyati yo'lida foydalanayotganlardan tashqari;

2) madaniyat, maorif, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot muassasalarini, bo'ysunuvidan qat'i nazar, o'z zimmalariga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun ularga ajratilgan yer uchastkalari uchun;

3) dehkon (fermer) xo'jaliklari – davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil muddatga;

4) chet el iinvestitsiyalari ishtirokidagi, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar – ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida;

5) nogironlar ijtimoiy birlashmalari, «Nuroniy» jamgarmasi, O'zbekiston chernobilchilar uyushmasi tasarrufida bo'lgan ishlovchilari umumiy sonining kamida elliq foizini nogironlar tashkil etgan yuridik shaxslar, savdo, vositachilik ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar bundan mustasno;

6) «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Qizil Yarim Oy jamiyati, «Nuroniy» jamg'armasi korxonalari, bo'shatib olinayotgan mablag'lardan o'zlarining ustavda belgilangan vazifalarini bajarish uchun foydalanish sharti bilan;

7) Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida yangi tashkil etilgan turistik faoliyat bilan shug'ullachuvchi yuridik shaxslar – tashkil etilgan paytdan e'tiboran birinchi foya olguniga qadar, biroq bu muddat ular ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran uch yildan oshmasligi lozim.

Soliq kodeksi 102-moddasining birinchi qismi 3 va 4-bandlarida ko'rsatilgan yuridik shaxslar belgilangan imtiyozli davrdan keyin bir yil o'tguniga qadar tugatilgan taqdirda, soliq summasi ularning butun faoliyat davri uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblash va budgetga to'lash tartiblari

Yer solig'ini hisoblash tartibi ish tajribasi to'planishiga qarab mun-tazam takomillashtirib borildi. Bunga soliq to'lovchilarning qonundagi u yoki bu qoidalarni tushuntirib berishni iltimos qilgan xailari ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Soliq kodeksida yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi amalda eski tartibdagidek o'zgarmay qoldi, biroq ba'zi o'zgarishlar ham yuz berdi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq yuridik shaxslar yer soligini mustakil ravishda hisoblab chiqadilar va davlat soliq inspeksiyalari har yilning 1-fevraliga qadar taqdim etadilar. Shunday qilib, soliq to'gri hisoblanishi uchun mas'uliyat yuridik shaxslar zimmasiga tushadi. Hatto, agar soliqni hisoblash uchun yer maydoni rasmiy hujjatlar bo'yicha qabul qilingan, tekshiruvda esa ular band etgan yer uchastkasi maydoni hisob-kitobda ko'satilganigan ortiqcha bo'lib chiqsa, yuridik shaxslardan soliqni to'g'ri hisoblash uchun mas'uliyat soqit qilinmaydi.

Agar yer sotilsa, olib qo'yilsa (kamaysa) soliqni undirish yer olib qo'yilgan oydan boshlab tuxtililadi, (kamaytiriladi) Masalan, korxonadan yer uchastkasining bir qismi tegishli davlat hokimiyati idoralari tomonidan 25-avgustdan olib qo'yildi, unda korxona soliqni 1-avgustidan to'lamaydi.

Yer solig'idan imtiyoz belgilanganda ular shu huquq paydo bo'lgan oyidan boshlab soliq tulamaydilar. Yer solig'idan imtiyoz to'xtatilgan hollarda, shu imtiyoz to'xtatilgan oydan so'ngi oydan boshlab yer solig'i to'lanadi.

Yer maydoni bir qancha yuridik shaxslarning mulkida bo'lgan qurilishiga tegishli bo'ladi, har bir mulkdar umumiy maydonidagi hissasiga qarab yer solig'i to'laydi.

Ko'p qavatlari turar joylarning bir qismini egallagan yuridik shaxslar turar joyning umumiy maydonidan egallagan qismi uchun soliq to'laydi yoki shu yuridik shaxs foydalanayotgan ishlab chiqarish imoratining foydalaniши hissasiga qarab soliq to'laydi.

Soliqqa tortish maqsadida o'mon, baliqchilik va ovchilik korxonalarini hamda mashina – traktor parklari qishloq xo'jalik korxonalariga tenglashtiriladi.

Soliqdan olgan imtiyozlarni ma'lum maqsadlarga foydalanuvchi yuridik shaxslar ham yer solig'ining hisobini soliq idoralari belgilangan muddatda va shaklda topshiradilar.

Yer uchastkasi yil ichida ajratilib berilsa, yer uchastkasi ajratilgan so'ngi oydan boshlab yer solig'i to'laydi. Masalan, korxonaga yer tegishli idoralarning qarori asosida 15-avgustdan berildi, ya'ni soliqni korxona I sentabrdan boshlab to'laydi.

Yuridik shaxslar tomonidan yer solig'ini to'lash va uni hisobga olish tartibi.

Yuridik shaxslar (qishloq xo'jaligi korxonalaridan tashqari) yer sliyoini har chorakda ikkinchi oyning 15-sanasiga qadar to'lab boradilar (15-fevral, 15-may, 15-avgust, 15-noyabr).

Agar yuridik shaxs yer uchastkasini hisobot choragi uchun soliq to'lash muddatidan so'ng olsalar, unga yer solig'ini to'lash muddati bo'ladi kelgusi chorakning soliq to'lash muddati hisoblanadi.

Yagona yer solig'i to'lovchilar tomonidan mustakil ravishda yerlarning maydoni, bazaviy stavkalar va to'zatish koefitsiyentlari asosida hisoblab chiqiladi.

Qishloq xo'jaligi ahamiyatiga ega erlardagi yer maydonlari yer tuzish xizmati o'tkazadigan yer hisobi ma'lumotlari, yerlarni ro'yxatdan o'tkazish va qishloq xo'jaligi yerlarini va ekinlari maxsus asboblar yordamida ulchash materiallari, shuningdek, ixtisoslashgan loyihalash va qidiruv tashkilotlari o'tkazish boshqa tekshiruv materiallari asosida tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Qishloq xo'jaligi erlariga yagona yer solig'inining bazaviy stavkalari sifatida quyidagilar qabul qilingan:

- sug'oriladigan yerlar bo'yicha – 1 klassli yerlar;
(ball-bonitet-10 gacha);
- lalmi erlar bo'yicha – tekis zona yerlari;
- pichanzorlar va yaylovlari bo'yicha – «Cho'l» mintaqasidagi yerlar.

Yerlar joylashishining tafovutlari va sifati, (ball-boniteti)ga qarab bazaviy stavkalari tegishli tuzatish koeffitsiyentlari o'zgartiriladi.

Yerlarning har bir turi bo'yicha yagona yer solig'i summasi quyidagi formulaga ko'ra belgilanadi:

S yas-Seu . Sb . Kt

bunda:

Syas – yagona yer solig'inining summasi, so'mlarda;

Seu – yer uchastkasining maydoni, gektarlarda;

Sb – 1 gektar uchun soliqning bazaviy stavkasi, so'mlarda;

Kt – tuzatish koeffitsiyenti.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha qishloq xo'jalik yerlariga yagona yer solig'inining muvaqqat bazaviy stavkalari, ma'muriy tumanlar va shaharlar bo'yicha sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari uchun yagona yer solig'inining bazaviy stavkalari, shuningdek, yagona yer solig'i muvaqqat bazaviy stavkalarning to'zatish koeffitsiyentlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan tasdiqlanadi.

4-§. Fermer (dehqon) xo'jaligida soliq tizimi

1. Yagona yer solig'i yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari mehnatining pirovard nati-jalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish va soliqqa tortish mexanizmini soddalashtirish uchun 1999-yilning 1-yanvaridan boshlab joriy qilingan.

Qishloq xo'jaligi korxonalari yagona yer solig'ini to'lashga o'tmasdan oldin, ya ni 1998-yilda quyidagi asosiy soliq va yig'imlami to'lar edi:

qishloq xo'jaligi korxonalari, jumladan, fermer xo'jaliklari daromad (foyda) solig'ini rentabellik darajasiga qarab to'lashgan: rentabellik darajasi 20 %acha bo'lsa, daromadining 5 %ni, rentabellik darajasining 20 %dan 35 %gacha bo'lgan qismi uchun 20 %, rentabelligi 35 %dan oshgan qismiga 35 % to'lanar edi. Yangi tashkil bo'lgan korxonalar ikki yil davomida daromad solig'ini to'lamas edi.

Ekologiya solig'ini hamma qishloq xo'jaligi korxonalari ishlab chiqarish tannarxidan 1 % miqdorida har chorakda bir marta moliya hisobotini topshirish muddatiga qadar to'lar edilar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni qishloq xo'jaligi korxonalarini ekinzor va daraxtzorlarni sug'orish uchun foydalangan suv uchun to'lar edi. Soliq to'lanadigan suv miqdoridan yerlarining sho'rini yuvish, dehqon va fermer xo'jaliklarining yerlarini sug'orish uchun sarflangan suvlardan foydalansa 4,5 tiyindan, yer osti suvidan foydalansa 6 tiyindan belgilangan edi. Bu soliq yilda bir marta - hisobot yilining 1-dekabrigacha to'lanishi kerak edi.

Yer ostidan foydalanganlik uchun soliqni ko'pchilik qishloq xo'jaligi korxonalarini to'lamas edi. Chunki ular foydali qazilmalarni qazib olmaydi. Ammo qishloq xo'jaligi korxonalarini yer ostidan inshootlarni joylashtirish uchun foydalansa bu soliqni to'lar edi. Bunday inshootlarga yer ostida joylashgan yoqilg'i saqlanadigan joylar, 0,4 kVdan ko'p kuchlanishga ega bo'lgan elektr o'tkazish liniyalari, yer ostidagi omborxonalar kirar edi. Bu soliq yiliga bir marta, hisobot yili uchun moliyaviy hisobot berish mudatigacha to'lanar edi.

Yer solig'ini qishloq xo'jalik korxonalarini yagona yer solig'iga o'xshab, yerlarning sisatiga, joylashgan joyiga qarab 1,9 karra kam bo'lgan stavkalarda to'lar edi. Yer solig'ini to'lash bo'yicha imtiyozlar yagona yer solig'i uchun ham saqlanib qolindi. Yer solig'i yilda bir marta-hisobot yilining 1-dekabrigacha to'lanishi kerak edi.

Mol-mulk solig'ini ham hamma qishloq xo'jalik korxonalarini to'lar edi. Ularning mulkidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bog'lik bo'lgan obyektlar chiqarib tashlanar edi. Boshqa mol-mulk uchun soliq boshlangich balans bahosidan 4 % miqdorida har oyda hisobot oyining 20 sanasigacha to'lanishi kerak edi.

Infratizilmani rivojlantirish uchun soliq korxonalar ixtiyorida qolgan sof foydaning 6 %gacha miqdorida to'lanar edi. Obodonchilik ishlari uchun yig'im ham korxonalar ixtiyorida qolgan sof foydaning 2 %gacha miqdorda to'lanar edi.

Yagona yer solig'ini joriy qilishdan maqsad qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalinish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining mehnatning pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish, qishloq xo'jalik korxonalarini soliqqa tortish tizimini soddallashtirish va bixillashtirishdir. Bunday tizimning joriy etilishi yerlardan yanada okilona foydalanimishini ta'minlashi lozim, chunki har bir hektar yer maydoni uchun undan foydalinish darajasidan qat'iy nazar ancha miqdordagi soliq summasini to'lash kerak bo'ladi. Ushbu tadbirning ishga solinishi xo'jaliklarni yordamchi ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga undashi kerak, chunki bunday faoliyat natijasida olinadigan daromadlar soliqqa tortilmaydi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini uchun yagona yer solig'ining joriy etilishi soliqqa tortish tizimining bundan keyingi yanada takomillashtirishidan dalolat beradi.

Yagona yer solig'ining to'lovchi hisoblangan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini uchun bojxona boji, davlat boji, litsenziya yig'imlari,

byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar, hamda alkogol mahsulotlar uchun aksiz solig'i to'lashning amaldagi tartibi saqlanib qoladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni yuritishga egalik qilish va foydalinish uchun berilgan yoki ijaraga olingan yer maydonlari soliq obyekti bo'lib hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlar), fermer xo'jaliklari va agrofirmalar yagona yer solig'ining to'lovchilaridir.

Agar fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan bir qatorda shu faoliyat turlari bilan shug'ullansa, ular alohida hisob yuritishlari va boshqa faoliyat turlari bo'yicha qonunchilikda belgilangan soliqlarmi to'lashlari lozim.

O'mon, baliq va ovchilik xo'jaliklari, ilmiy tekshirish tashkilotlari va ilmiy muassasalarining tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklari, huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lmagan yordamchi qishloq xo'jaligi hamda dehqon xo'jaliklari yagona yer solig'i to'lamaydi.

Yagona yer solig'i O'zbekiston Respublikasining Prezidenti 1998-yilning 10-oktabrida qabul qilingan «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagon yer solig'ini joriy etish to'g'risida»gi Farmoniga hamda Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-dekabridagi 539-sonli qaroriga asosan, joriy qilingan. Yagona yer solig'ining to'lovchilar bo'lgan, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining shu soliq bo'yicha davlat budgeti bilan hisoblashish mexanizmi O'zbekiston Respublikasining Adliya Vazirligi 2000-yilning 5-martida 1102-tartib raqami bilan ro'yxatga olingan «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan yagona yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida»gi yo'rqnoma belgilangan. Yagona er solig'i soliqqa tortiladigan yer maydoni, ba'za stavkalari va tuzatish koeffitsiyentlariga asosan, soliq to'lovchilar tomonidan mustaqil ravishda hisoblanadi.

Jamoat binolari va xonadonlar, suv havzalari, kanallar, kollektor va yo'llar bilan band bo'lgan yerlar hamda qishloq xo'jaligida foydalaniylaydigan boshqa yerlar bo'yicha tegishli tuman va sha-harlarining sug'oriladigan yerlarining birinchi sinfi uchun belgilangan stavkalar baza stavkasiga qabul qilingan.

Yagona yer solig'i soliqni to'lovchilar tomonidan yer maydoni, soliqning bazis stavkasi va tuzatish koeffitsiyentlariga asosan, hisoblab chiqariladi.

Yagona yer solig'ining summasi har bir yer turi bo'yicha quyidagi formulaga asosan aniqlanadi:

$$H_q S_{zu} \cdot C_b \cdot K_m$$

Bu yerda : N — yagonayer solig'ining summasi, so'm hisobida;

S_{zu} — yer maydoni, hektar hisobida;

C_b — 1 ga uchun soliqning bazasidan stavkasi;

K_m — tuzatish koeffitsienti.

Soliqqa tortish maqsadida yerlar sug'oniladigan yerlar, lalmikor yerlar, o'tloq va yaylovlari, jamoat binolari va xonadonlar bilan band bo'lgan yerlar, suv havzalari, kanallar, kollektor va yo'llar bilan band bo'lgan yerlar

hamda qishloq xo'jaligida foydalanimaydigan boshqa yerlarga bo'linadi. Har bir yer guruhi bo'yicha tegishli baza stavkalari va tuzatish koefitsientlari qo'llaniladi.

Sug'oriladigan yerlar bo'yicha bali «0» dan 10 gacha bo'lgan birinchi sinfga kiradigan erning 1 hektari uchun absolyut summada belgilangan soliq stavkasi baza stavkasiga qabul qilingan baza stavkalari tuman va shaharlar bo'yicha belgilangan. Yer maydonlarining qeraida joylash-ganligiga, sifati (ball boniteti) va suv bilan ta'minlanganligiga qarab baza stavkalari tegishli tuzatish koefitsientlariga asosan o'zgartiriladi.

Lalmikor yerlar hamda o'tloq va yaylovlari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha belgilangan baza stavkalari qo'llaniladi.

Ball boniteti – bu tuproq sifati va tabiiy unumdorfilingining bahosi bo'lib, yer uchastkasining joylashgan joyi, suv bilan ta'minlanganligi, boriladigan yo'llarning mavjudligi va qulayligi va hokazolarga ham bog'liq.

Endi biz quyidagi jadval yordamida qishloq ho'jalik korhonalaridan olinadigan yagona yer solig'inining bazaviy stavkalarini ko'rib chiqamiz.

Qishloq ho'jaligi yerlari uchun yagona yer solig'inining bazaviy stavkalarini.

1-jadval

2007 yil (1 ga -so'm)

| t/r | Viloyatlar | Sug'oriladigan yerlar (1-sinf) | Lalmikor yerlar (tekislik mintaqasi) | O'tloq va yaylovlari (cho'l mintaqasi) |
|-----|-------------------|--------------------------------|--------------------------------------|--|
| 1 | Andijon viloyati | 5933,7 | 713 | 149,8 |
| 2 | Namangan viloyati | 6116,2 | – | 149,8 |
| 3 | Farg'ona viloyati | 5513,4 | – | 138,6 |

Jadval ma'lumotlari shuni ifoda etadiki. Forg'ona vodiysi bo'yicha 1-ga uchun eng yuqori sug'oriladigan yerlar yagona yer solig'i Namangan viloyatida hisoblanadi va u 6112 so'mni tashkil etadi.

Endi biz quyidagi jadvalda yagona yer solig'inining tuzatish koefitsientlarini ko'rib chiqamiz.

2-jadval

| Ko'rsatkichlar | Koeffitsientlar | |
|-----------------------|-----------------|-----------------|
| Sug'oriladigan yerlar | | |
| Bonitet bali | 0-10 | (Baza stavkasi) |
| 11-20 | | 1,50 |
| 21-30 | | 2,25 |
| 31-40 | | 3,29 |
| 41-50 | | 4,67 |
| 51-60 | | 6,54 |
| 51-70 | | 9,00 |
| 71-80 | | 11,68 |

| | |
|---|------------------|
| 81-90 | 14,55 |
| 91-100 | 17,5 |
| Baholanmagan yerlar | 4,67 |
| Lalmikor yerlar | |
| Tekislik mintaqasi | (baza stavka) |
| Adir mintaqasi | 1,19 |
| Tog' oldi va tog' mintaqasi | 1,67 |
| O'tloqlar va yaylovlari | |
| «Cho'l» mintaqasi | (bazaviv stavka) |
| «Adir» mintaqasi | 1,51 |
| «Tog» mintaqasi | 2,05 |
| Jamoat binolari va xonadonlari bilan band bo'lgan yerlar | |
| Sug'oriladigan erlar (1-sinf) – baza stavka | 20,44 |
| Suv havzalari, kanallar, kollektorlar va yo'llar bilan band bo'lgan yerlar | |
| Sug'oriladigan yerlar (1-sinf) – baza stavka | 1,04 |
| Qishloq xo'jaligida foydalaniilmaydigan boshqa yerlar | |
| Sug'oriladigan yerlar (1-sinf) -baza stavka | 0,004 |

Qishloq xo'jaligi uchun belgilangan yerlarning maydoni yer tuzish xizmati tomonidan olib boriladigan yerlarni hisobga olish va erlar inventarizatsiyasining ma'lumotlari bilan qishloq hamda maxsus loyihalash va qidiruv tashkilotlari olib borgan tekshirish ma'lumotlari bilan tasdiqlanishi kerak.

Hisoblangan yagona yer solig'i summasining miqdori qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar moliya-xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lmasdan, yer uchastkasi joylashgan tuman budgetiga o'tkaziladi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan boshlab to'lanadi.

Yer uchastkasi olib qo'yilganda (kamaytirilganda), sotib olingenida, sotilganida, soliq undirish yer uchastkasini olib qo'yish (kamaytirish) sotib olish, sotish amalga oshirilgan oydan boshlab to'xtatiladi (qisqartiriladi).

Yagona yer solig'i to'lovchilariga imtiyoz belgilanganida, ular ushbu huquq vujudga kelgan oydan boshlab soliq to'lamaydilar.

Imtiyoz huquqi to'xtatilgan hollarda ushbu huquq to'xtatilgan oydan keyingi oydan boshlab soliq to'lanishi kerak.

Baliq yetishtiruvchi ho'jaliklar ham yagona yer soliqlari to'lashlari mumkin.

Baliq yetishtiruvchi xo'jaligi bu sun'iy suv havzalari – hovuzlarda baliq ko'paytirish, o'stirish va ovlash bilan shug'ullanuvchi korxona. Ular tomonidan soliq quyidagi yerlar uchun to'lanadi:

- sun'iy baliq yetishtiradigan hovuzlar bilan band erlar; bunda su-g'oriladigan yerlar uchun belgilangan tuzatish koefitsiyentlari qo'llaniladi, agar sifati aniqlanmagan bo'lса, baholanmagan yerlar uchun belgilangan koefitsiyentlar qo'llaniladi;
- dambalar va avraglar bilan band yerlar; bunda qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlar uchun belgilangan tuzatish koefitsiyentlari qo'llaniladi;
- kanallar, kollektorlar, yo'llar va boshqa suv xo'jaligiga mo'ljilangan yerlar; bu holda suv havzalari kanallar, kollektorlar va yerlar uchun belgilangan tuzatish koefitsiyentlari qo'llaniladi.

yagona yer solig'i to'lashga faqat baza stavkasi tasdiqlangan qishloq xo'jaligi yerlariga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilargina (baliq yetishtiruvchi xo'jaliklar ham) o'tishlari mumkin.

Hukumat qarori bilan qishloq ho'jalik korxonasi maqomi berilgan korxonalar mavjudi. (Masalan, mashina traktor parki (MTP). Bunday korxonalar yagona yer solig'i to'lashga o'tmagani qishloq xo'jaligi korxonalari sifatida barcha soliqlar va majburiy to'lovlarini to'laydilar. Ammo bunday korxonalar yagona yer solig'i to'lashga o'tishlari mumkin emas.

Soliqqa tortilmaydigan yer uchastkalariga quyidagilar kiradi:

- qishloq ahолisi yashaydigan joylardagi umumfoydalishdagi yerlar;
- ihota daraxtzorlari egallangan yerlar;
- sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalari, basseynlar, sportning texnik turlari obyektlari va boshqa fizkultura-sog'lomlashtirish majmumulari, onalari va bolalarining dam olish va sog'lomlashtirish joylari, sanotoriya va kurort muassasalari va dam olish uylari, o'quv-mashq bazalari;
- yangi o'zlashtirilayotgan va meliorativ holatini yaxshilash jarayonida bo'lgan loyihada ko'rsatilgan muddatga, lekin ish boshlangandagina boshlab 5 yildan oshmagan yerlar;
- ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash obyektlari bilan band yerlar;
- tut ko'chatlari o'tkazilgan yer maydonlari 3 yil muddatga, qator oralariga qishloq xo'jaligi ekinlari ekilishida qat'iy nazar;
- O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq soliqqa tortilmaydigan boshqa yerlar;

Yagona yer solig'i to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

- yangidan tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, jumladan, fermer xo'jaliklari, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab 2 yil muddatga;
- daromad (foyda) va yer solig'i to'lashdan ozod etilgan boshqa qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar soliqni hisoblash varasini soliq ins-peksiyasiga joriy yilning 1-fevraligacha taqdim qilishlari kerak. Soliq yilda uch marta, ya'ni yillik soliqning 20 %idan kam bo'lмаган qismi 1-iyulgacha, 30 %dan kam bo'lмаган qismi 1-sentabrgacha va qolgan qismi 1-dekabrgacha to'lanishi lozim.

XIV bob. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN YER SOLIG'I

1-§. Yer solig'i to'lovchilari va jismoniy shaxslar uchun yer solig'i obyekti

O'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida yer uchastkalariiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar er solig'i to'lovchilari hisoblanadi. Yer solig'i to'lovchilarini soliq idoralari har yili yil boshiga hisobini olib boradi.

Jismoniy shaxslar uchun yer solig'i obyekti yer uchastkalaridir. Quydagi yer uchastkalari soliq solinadigan obyekti hisoblanadi:

1. Turar joylar yetagida va jamoat erlارida shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yerlar.

2. Yakka tartibda uy-joy qurilish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari.

3. Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchilagini yuritish uchun berilgan yer uchaskalari.

4. Xizmat yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq berilgan chek yerlar.

5. Meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki sotib oliniish natijasida uy-joy, dala hovli bilan birgalikda egalik qilish uchun huquqi ham uggan yer uchastkalari.

6. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari.

7. Tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijara berilgan yer uchastkalar.

Berilgan yerlardan ikki yil mabaynida foydalanmagan jismoniy shaxslardan yer solig'i uch baravar miqdorda undiriladi.

2003-yildan boshlab agar yer uchastkalariga mulk, egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar bo'lmasa, soliq butun maydon uchun quyida ko'satilgan oshuvchi koeffitsiyentlarini qo'llagan holda to'lanadi.

2-§. Yer solig'i stavkalari va yer solig'idan jismoniy shaxslar uchun imtiyozar

Yer solig'i stavkalari har yili yangi yil uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi 2003-yildan boshlab yer solig'i stavkasi 1.2 koeffitsiyent bilan indeksatsiya qilingan.

Qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yer uchastkasi mulkdoni, yer egasi yoki erdan foydalanuvchining aybi bilan yomonlashgan (boniteti pasayib ketgan) taqdirda, yer solig'i yerming sifatida yomonlashuviga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Shahar va shahar kuryoonlarining ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jaligi yerlariga belgilangan stavkalarning ikki baravari miqdorida undiriladi.

Jismoniy shaxslar yer solig'i bo'yicha imtiyozga egaligi yoki ega emasligidan qat'i nazar, maydoni davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilganidan ko'p bo'lgan yer uchastkalari uchun yer solig'inинг 1.5 oshuvchi koeffitsiyenti bilan to'laydilar.

Yer uchastkasining joylashishiga qarab qishloq joylari uchun yer solig'i stavkasiga quyidagi koeffitsiyentlar qo'llaniladi:

- Toshkent shaxri atrofida 20 km radiusda – 1,3;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari 15 km radiusda 1,2;
- Tumanlar markazidan 10 km radiusda – 1,15;
- Boshqa shaharlar 5 km radiusda – 1,10.

Agar yerlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat hokimiyati organlarining qaroriga muvofiq ijara olingan bo'ladi, jismoniy shaxslar yer solig'i o'miga ijara xaqi to'laydilar

Ijara haqi tarafning kelushuvi asosida belgilanadi, lekin bu haq qonun hujjatlarda belgilangan yer solig'ining bir stavkasidan kam va uch stavkasidan ko'p bulmasligi, yerlardan qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanganda esa - bir stavka miqdorida bo'lishi lozim. Dehqon xo'jaliklaridan undiriladigan yer solig'ini hisoblab chiqarish chogida yer solig'i stavkalariga yer sifatiga bog'liq holda quyidagi koeffitsiyentlar qo'llaniladi:

- tuproq boniteti 40 ballgacha bo'ladi – 0,75;
- tuproq boniteti 41 balldan 70 balgacha bo'ladi – 1,0;
- tuproq boniteti 70 balldan ortiq bo'ladi – 1,25;
- jismoniy shaxslarga tadbirkorlik maqsadida foydalanilayotgan yerlar uchun soliq stavkasi yuridik shaxslarga belgilangan stavkada qo'llaniladi.

Yer solig'idan imtiyozlar ikki guruhga bo'linadi:

1. Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan yer uchastkalari;

2. Yer solig'i to'lashdan to'liq ozod etilgan jismoniy shaxslar.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagilar kiradi:

1. Yakka tartibda uy – joy qurish va shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun qonun hujjatlarda belgilangan me'yorlar doirasida berilgan yerlar, yer berilgan paytdan boshlab ikki yil muddatga.

2. Yangi o'zashtirilayotgan yerlar va meliorativ holatni yaxshilash ishlari olib borilayotgan sug'oriladigan yerlar-loyihada nazarda tutilgan muddatga lekin ishlari, boshlangandan e'tiboran besh yilgacha.

3. Yangi tut ko'chati o'tkazilgan yer uchastkalari qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanishdan qat'iy nazar uch yil muddatga. Shu munosabat bilan bahorda o'tkazilgan tut ko'chatlari egallagan yerlar soliq tulashdan uch yilga ozod etiladi, bunga ko'chat

o'tkazilgan yil ham kirdi. Ko'zda o'tkazilgan ko'chatlar o'tkazilgan yildan keyingi yildan boshlab uch yilga soliq to'lashdan ozod etiladi. Soliq kodeksining 101-moddasida soliqdan ozod etilgan boshqa yerlar bor. Ammo ular jismoniy shaxsga tegishli ekanligi aytilmagan.

Agaryerlar o'z o'mida foydalanimasa imtiyoz yo'qoladi. Yer kodeksining 55-moddasiga ko'ra qishloq xo'jaligi kooperativ a'zolariga, muassasalar va tashkilotlar xodimlariga, shu tashkilotlar yerdidan dehqon xo'jaligi yuritish uchun sug'oriladigan yerdidan 0,35 ga. gacha, lalmikor yerdidan 0,5 gacha, yaylovlardan 1 ga. gacha me'yordarda yer ajratib beriladi. Bu faqat qishloq joylarida yashovchi dehqon xo'jaliklariga beriladi.

Yer kodeksining 27-moddasiga binoan shahar va ko'rg'onlarda yashovchilarga yakka tartibda uy-joy qurish uchun 0,06 ga yer ajratilib beriladi.

Yer solig'idan to'liq ozod etiladigan jismoniy shaxslarga quyidagilar kiradi:

1. Yaylov chorvachiligining cho'ponlari, yilgibоqartari, mexanizatorlari, vrachlari va texniklari, boshqa mutaxassislar va ishchilarini.

2. «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lganlar, uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar, 941–1945-yilaridagi urush nogironlari va qatnashchilari.

3. Xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovor harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tgan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar.

4. Haqiqiy muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmatchilarning oilalari – xizmat muddatiga.

5. I va II guruh nogironlari.

6. Yolg'iz pensionerlar; ularga bir o'zi yoki voyaga yetmagan bolalari yoki nogiron bola bilan birga alohida uy, kvartira yoki yotokxonada yashaydigan pensionerlar kiradi.

7. Boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar; bularga ota-onadan biri yoki ikkalasi vasof etgan va oilda 16 yoshga yetmagan besh nafar va undan ko'p bolalari bo'lgan oilalar kiradi.

8. Konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqinlari, Chemobil AES dagi falokat oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslar;

9. Ko'chirib keltirilgan fuqarolar kelib joylashgan yer uchastkalari bo'yicha – yer uchastkalari berilgan vaqtidan e'tiboran besh yilgacha.

10. Ilgari shaxsiy pensiya tayinlangan shaxslar.

Ushbu imtiyozlar yakka tartibda uy joy ko'rish va shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun qonun hujjalarda nazarda tutilgan me'yorlar doirasida yer uchastkalari berilgan jismoniy shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi. Me'yordan ortiqcha yer maydonlariga ega bo'lganlar shu qismidan yer solig'ini 1,5 oshuvchi koefitsiyent bilan to'laydlar. Imtiyoz huquqi yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan shaxslar yashaydigan va birgalikda xo'jalik yuritadigan butun oilaga tatbiq etiladi.

3-§. Jismoniy shaxslar yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi

Jismoniy shaxslarning yer solig'i soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning yer solig'ining hisoblash uchun soliq idoralari shahar, tuman yer fonda ma'lumotlari hokimliklarning qarorlari asosida hamda uyma uy yurib o'tkazilgan tekshirishlar asosida yer uchastkalari maydonini aniqlab chiqadilar.

Jismoniy shaxslarning yer solig'i har yilning boshida soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi va to'lov xabarnomasi yoziladi.

Yer solig'ini to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi har yili soliq idoralari tomonidan 1-maydan kechiktirmay jismoniy shaxslarga yetkaziladi. Ular jismoniy shaxslarga shaxsan topshirilishi lozim.

Jismoniy shaxslar yer solig'ini joriy yilning 15-iyun va 15-dekabriga qadar to'lab qo'yishlari shart. Aks holda soliqdan boqimanda paydo bo'ladi va soliqdan tashqari penyeja (aybona) to'lashga to'g'ri keladi.

Soliq o'tgan yillarda undirilmagan bo'lsa, soliq idoralari avvalgi uch yil uchun soliq hisoblab undirib olishga haqli. O'tgan yillar uchun undirilmagan soliq summasiga aybona hisoblanmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», «O'zbekiston» 1995-y.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. «O'zbekiston» 1992-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. «O'zbekiston» 2004-yil.
4. O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksi. «Xalq so'zi» gazetasi. 1998-yil. 3-yanvar.
5. O'zbekiston Respublikasining «Budget tizimi to'g'risida» gi Qonuni. «Xalq so'zi» gazetasi. 2000. 14 yanvar.
6. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari. Yanvar, 1994. «Korxona to'g'risida»gi Qonun. 1995-y. «Moliyaviy qonunlar». 1995-yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «davlat byudjetiga soliq-lar va boshqa to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berishni tartibga solish to'g'risida»gi 1999-yil 26-iyun Farmoni. T.; 2000. Adolat.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1987-soni Farmoni.
9. Karimov I.A. O'zbekiston-bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'lisi. T., O'zbekiston, 1993.-108-b.
10. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nashlari T., O'zbekiston, 1993 -53-b.
11. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-iijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., O'zbekiston, 1995-73-b.
12. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.T., O'zbekiston, 1995 -259-b.
13. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.T., Sharq. 1997.
14. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1998, 682-b.
15. Karimov I.A. Odamlarning tashvish va orzu-intilishi bilan yashash faoliyatimiz mezoniga aylansin. «Turkiston» gazetasi, 2002-yil 20- iyul, № 88 (145779).
16. Karimov I.A. Islohotlar strategiyasi mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdir. «Xalq so'zi» gazetasi, 2003-yil 18-fevral, № 40.
17. «Soliq va bojxona xabarlar» ro'znomasi, 1997, 2002-yillar.
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan tasdiqlangan nizom «Mahsulot tannarxiga kirtiladigan xarajatlar elementlariga kirtilgan o'zgarishlar to'g'risida» 27.01.97-yil.

19. Л. Павлова. «Финансовый менеджмент». Москва, 1995 год.
20. Yo'Abdullaev, K.Yaxyoev. «Soliq»: 100 savol va javob. Toshkent. «Mehnat», 1997-у.
21. В.М.Родина. Финансы. Москва. «Финансовая статистика». 1995.
22. Sh.K.Gataulin. «Soliqlar va soliqqa tortish». 1996.
23. V.S.Beganov, J.X.Abdullaev va boshqalar. «Moliya siyosati, soliqlar va soliq solish». 1998-у.
24. И.В.Тураева. «Налоговое право». Экономика 1995-год.
25. Л.В.Журавлева. Бюджетная политика как метод государственного регулирования. - М.: Дело 2001. 264-с.
26. Н.Г.Иванова. Казначевская система исполнения бюджетов.- Санкт-Петербург.: Питер. 2001.-200-с.
27. Yo'ldoshev M., Tursunov Y.Moliya huquqi. T.; Mehnat. 1999.
28. Yo'ldoshev M., Tursunov Y.Soliq huquqi. T.; Moliya. 2000.212-b.
29. Yo'ldoshev O.T.Davlat budgetining daromadlar va xatajatlar tarkibida jiddiy va ijodiy siljishlar yuz berdi. Soliq va bojxona xabarları. 1996.
30. Malikov T.S.Moliyaviy qaror qabul qilish asoslari T.: Sharq 1999. 64-b.
31. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari T.; Adliya. 2002.-204-b.
32. А.Г.Наговитшин. Бюджетная политика. М.:Инфра. 2000.-124-с.
33. А.Г.Наговитшин. Бюджетная политика. М.: экзамен. 2000. 512 с.
34. З.Х.Суроджидинова. Управление государственного финансирования. Текст лекции. Т.: ТФИ. 2001.94-с.
35. Toshmurodova B. Soliqlar vositada iqtisodiyotni boshqarish mehanizmi. T.; Yangi asr avlodi. 2002.-128-b.
36. Xvan L.B.Soliq huquqi. T.: Konsauditinform. 2001.-656-b.

M U N D A R I J A

| | |
|--|------|
| Kirish..... | 3 |
| I QISM. SOLIQ NAZARIYASI | |
| <i>I bob. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIYALARI</i> | |
| 1-§. Soliqlar va soliqqa tortish fanini o'qitishning zaruriyati va predmeti..... | 4 |
| 2-§. O'zbekiston Respublikasining soliqlari va solisiz to'lovlar..... | 6 |
| 3-§. Soliqlarning mohiyati va ahamiyati..... | 7 |
| 4-§. Soliqlarning obyektiv zarurligi..... | 9 |
| 5-§. Soliqlarning funksiyalari..... | 10 |
| <i>II bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMI VA SOLIQ STAVKALARI</i> | |
| 1-§. O'zbekistonda soliq solish tizimi va uning asosiy elementlar..... | 12 |
| 2-§. Soliq stavkalarini turlari va soliq deklaratsiyasi..... | 13 |
| 3-§. O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini qayta qurishning zarurligi..... | 14 |
| <i>III bob. O'ZBEKISTON DAVLATINING SOLIQ SIYOSATI</i> | |
| 1-§. O'zbekiston respublikasidagi o'tish davri iqtisodiyotini boshqarishda moliya siyosatining roli..... | 18 |
| 2-§. Soliq siyosati haqida tushuncha..... | 21 |
| 3-§. Soliq siyosatining chet el tajribasi..... | 21 |
| 4-§. Soliq siyosatini ishlab chiqishda davlatning roli..... | 22 |
| 5-§. Hozirgi davr soliq siyosati..... | 23 ✓ |
| 6-§. Soliq mexanizmi..... | 24 |
| 7-§. Budjet-soliq siyosati yaxlitligi va moliyaviy tartibga solish | 25 |
| <i>IV bob. SOLIQLARNING IQTISODIYOTNI BOSHQARISHDAGI ROLI VA SOLIQ IMTIYOZLARI</i> | |
| 1-§. To'g'ri va egri soliqlar haqida tushuncha va ularni budjet daromadlarini to'ldirishdagi roli..... | 30 |
| 2-§. Soliq imtiyozлari haqida tushuncha va soliqqa tortish tamoyilari..... | 31 |
| <i>II QISM. UMUMDAVLAT SOLIQLARI</i> | |
| <i>V bob. YURIDIК SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA (DAROMAD) SOLIG'I</i> | |
| 1-§. Foyda (daromad) solig'ining mohiyati va obyekti..... | 34 |
| 2-§. Yuridik shaxslarning jami daromadini aniqlash tartibi..... | 34 |
| 3-§. Foyda solig'ining stavkalar..... | 37 |
| 4-§. Foyda solig'i bo'yicha beriladigan imtiyozlar..... | 38 |
| 5-§. Foyda solig'ini hisoblab chikish, hisobini tuzish va to'lash tartibi..... | 40 |

**VI bob. SODDALASHTIRILGAN SOLIQ TIZIMI
(YAGONA SOLIQ)**

| | | |
|------|--|----|
| 1-§. | Soddalashtirilgan soliq tizimi haqida tushuncha va uning iqtisodiy ahamiyati | 44 |
| 2-§. | Yagona soliqning soliq tizimiga tatbiq etilishi va amal qilish jarayoni..... | 46 |
| 3-§. | Yagona soliq to'lovchilarining tarkibi va uning obyekti..... | 47 |
| 4-§. | Yagona soliqning stavkalari, soliqni hisoblash muddatları..... | 48 |

**VII bob. JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADIGA
SOLINADIGAN SOLIQ'NING MOHIYATI VA
HISOBLASH TARTIBI**

| | | |
|------|--|----|
| 1-§. | Jismoniy shaxslardan daromad solig'inинг mohiyati, soliq to'lovchilar va soliq solish obyekti..... | 52 |
| 2-§. | Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini aniqlash tartibi..... | 53 |
| 3-§. | Soliq stavkalari..... | 54 |
| 4-§. | Jismoniy shaxslarni daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar..... | 55 |
| 5-§. | Daromad solig'inинг hisoblab chiqarilishi..... | 57 |

**VIII bob. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIQ'NING
MOHIYATI VA UNING TO'LOVCHILARI**

| | | |
|------|---|----|
| 1-§. | Qo'shilgan qiymat solig'inинг soliq tizimiga joriy qilinishi hamda iqtisodiy ahamiyati..... | 59 |
| 2-§. | Qo'shilgan qiymat solig'inинг shakllanishi va rivojlanish bosqichlari..... | 62 |
| 3-§. | Qo'shilgan qiymat solig'inинг soliq bo'yicha imtiyozlar va nol darajali stavka bo'yicha soliq solish..... | 66 |
| 4-§. | Qo'shilgan qiymat solig'inинг soliq stavkalari, uni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi..... | 69 |

**IX bob. AKSIZ SOLIQ'NING MOXIYATI VA HISOBBLASH
TARTIBI**

| | | |
|------|--|----|
| 1-§. | Aksiz solig'inинг moxiyati va obyekti..... | 71 |
| 2-§. | Aksiz solig'inинг stavkalari..... | 74 |
| 3-§. | Aksiz solig'ini to'lash tartibi. | 74 |

**X bob. YER OSTI BOYLIKLARIDAN FOYDALANGANLIK
UCHUN SOLIQLARNING MOXIYATI VA UNI
HISOBLASH TARTIBI**

| | | |
|------|--|----|
| 1-§. | Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni mohiyati va ahamiyati. | 78 |
| 2-§. | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning mohiyati, soliq to'lovchilar va uning obyekti. | 79 |
| 3-§. | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari va soliq bo'yicha imtiyozlar. | 79 |
| 4-§. | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisoblab chiqarish tartibi va to'lash muddati. | 80 |

III QISM. MAHALLIY SOLIQLAR VA YIG'IMLAR
XI bob. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN
MOL-MULK SOLIG'I

| | |
|---|----|
| 1-§. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk solig'ini joriy etish sabablari..... | 82 |
| 2-§. Yuridik shaxslardan mol-mulk solig'ini undirishda mol-mulkning yillik o'tacha qoldiq qiymatini aniqlash tartibi..... | 85 |
| 3-§. Korxonalarda mol-mulkni qayta baholanishi va uning soliq obyektiga ta'siri. Mol-mulk solig'ini stavkasi. | 87 |

XII bob. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN
MOL-MULK SOLIG'I

| | |
|--|----|
| 1-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati. | 94 |
| 2-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lovchilari, obyekti va soliq stavkalari. | 98 |
| 3-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'idan imtiyozlar. | 99 |

XIII bob. YURIDIK VA SHAXSLARDAN UNDIRILGAN
YER SOLIG'I

| | |
|--|-----|
| 1-§. Yer solig'ini soliq tizimiga joriy etishning asosiy sabablari va uning iqtisodiy mohiyati. | 102 |
| 2-§. Yuridik shaxslar yer solig'ini to'lovchilari va soliq obyekti. Er solig'i stavkalari va uning hududiy tabaqalashtirish asoslari. | 106 |
| 3-§. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha soliq imtiyozлari va uning guruhanishi. | 109 |
| 4-§. Fermer (dehqon) xo'jaligidagi soliq tizimi. | 113 |

XIV bob. JISMONIY SHASXLARDAN UNDIRILGAN
YER SOLIG'I

| | |
|--|-----|
| 1-§. Yer solig'i to'lovchilari va jismoniy shaxslar uchun yer solig'i obyekti. | 119 |
| 2-§. Yer solig'i stavkalari va yer solig'idan jismoniy shaxslar uchun imtiyozlar. | 119 |
| 3-§. Jismoniy shaxslar yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi. | 122 |
| Foydalaniлgan adabiyotlar..... | 123 |

1700

A.YO'LDOSHEV

SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2007

Muharrir: M. Mirkomilov
Tex. muharrir: A. Moydinov
Musahhih: S. Badalboyeva
Sahifalovchi: A. Shaxamedov

Bosishga ruxsat etildi 29.06.2007. Qog'oz bichimi 60x84 1/16.
Ofset usulida chop etildi. Sharqli bosma tabog'i 12,0.
Nashr bosma tabog'i 8,0. Adadi 500 nusxa. Buyurtma №49.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi»da chop etildi.
700003, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.